

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**qo`l yozma huquqida**

Mirzayev Hayrullo

XVI-XIX asrlar O`rta Osiyo xalqlari tarixi rus va yevropa manbalarida.

Ixtisoslik: 5 A 220201 «O`ZBEKISTON TARIXI».

**MAGISTRLIK ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN**

**D I S S E R T A T S I Y A**

***Ish ko`rib chiqildi***

va himoyaga tavsiya qilindi.

kafedra mudiri:

***Ilmiy rahbar***

\_\_\_\_dots. S.A. Xoshimov

\_\_\_\_ dots. M.G`.Abdullayev

**ANDIJON-2015**

## **Mundarija.**

**Kirish .....3-8**

**I bob. Oʻrta Osiyo xalqlarining qadimgi va oʻrta asrlar davri tarixi yevropa sayyohlari hamda rus elchi, muarrixlari asarlarida.**

I.1. Oʻrta Osiyo xalqlarining qadimgi va oʻrta asrlar davri tarixi yevropa sayyohlari asarlarida.....9-14

I.2. Rus elchi va muarrixlari asarlarida Oʻrta Osiyo xalqlarining qadimgi va oʻrta asrlar davri tarixi.....15-26

**II bob. Xiva hamda Qoʻqon xonliklari tarixiga doir Rossiyalik sayyoh va elchilarining esdaliklari.**

II.1. Xiva xonliklari tarixiga doir sayyoh va elchilarining esdaliklari.....27-44

II.2. Rossiyalik elchi va savdogarlarning esdaliklarida Qoʻqon xonligi.....45-60

**III bob. Buxoroga tashrif buyurgan Rossiyalik sayyoh, elchilar va ularning esdalik, xotirantomalari va asarlarida amirlik tarixining aks ettirilishi.**

III.1. Buxoroga tashrif buyurgan Rossiyalik sayyoh, elchilar va ularning missiyalari hamda xotiralari.....61-73

III.2. Rossiya sayyoh va elchilarining esdaliklarida Buxoro amirligining ijtimoiy hayotining aks ettirilishi.....74-86

**Xulosa.....87-98**

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....90-92**

**Ilovalar**

## ***Kirish***

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab tariximizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, sovet davrida noto'g'ri baho berilgan yoki yuzaki ko'rib chiqilgan masalalarga jiddiy ilmiy yondashuv kuchaydi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi "O'z RFA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqidagi" qaroridan so'ng haqqoniy tarixini yaratish, bu jarayonda birlamchi manbalarga asosiy e'tibor berish, qo'yilgan muammoni soha mutaxasislari tomonidan xalq etilishi, mavjud muammolar echimini ilmiy asoslash borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Bu borada yurtboshimiz I.A. Karimovning O'zbekiston tarixining u yoki bu masalalarini o'rganishda aniq va haqqoniy yondashuv masalasidagi konsepsiyasidan kelib chiqib ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muammolari, shu bilan birga, umumbashariy qadriyatlarini o'z maqsad-muammolari, shu bilan birga umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi"<sup>1</sup>. Ayniqsa, o'zbek xalqi davlatchiligi va undagi xukmronlik qilgan sulolar, ularning qo'shni davlatlar bilan olib borgan munosabatlari tarixi ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mustaqillik tufayli o'zbek xaqining boy madaniy tarixi qayta tiklandi. Istiqlol yillarida O'zbekiston tarixining ko'pgina masalalari o'zining yangi, ilmiy jihatdan xolis va haqiqiy yechimini topa boshladi. Bu ayniqsa, bir necha o'n yillar davomida sohtalashtirib, bir yoqlama talqin qilib kelingan XVI-XIX asrlar yani xonliklar davri tarixini o'rganishda ham yaqqol ko'zga tashlandi.

Bugungi kunda ko'rilayotgan davrga haqqoniy baho berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. XVI-XIX asrlar tarixini xolis haqqoniy yoritishda eng avvalo birlamchi manbalarga alohida e'tabor qaratish joizdir. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi qarorini eslash o'rinlidir. Mazkur qarorda barcha arxeologik va yozma manbalarni to'plash hamda ularni ilmiy-qiyosiy tarzda tahlil etish va bir tizimga solish zarurligi qayd etilgan. Xalq so'zi. 1998-yil 28-iyul.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –Б.97.

Ana shu yozma manbalar sarasiga, yurtimizning XVI-XIX asrlar tarixiga oid O`rta Osiyoga tashrif buyurgan rus va yevropalik sayyohlarning xotira va esdaliklari ham kiradi. Jumladan, XVI asrning o`rtalarida O`rta Osiyoga tshrif buyurgan Antoniy Jenkinson, XVII asrda yurtimizga kelgan I.D.Xoxlov, S.I.Pazuxin, V.A.Davidov, M.Qosimovlarning esdaliklari, 1721-1725-yillar Buxoroda bo`lgan F.Beneveninning, 1740-1741 yillarda Omsk shahridan 1741-yil Shubay Arslonovning Toshkent shahriga kelib yiqqan axborotlari, 1800-yil Toshkent hokimi Yunusxo`ja chaqiruviga ko`ra kelgan Burnashev va Pospelovlarning xotiralari, F.Nazarovning 1813-1814 yillarda Qo`qonga qilgan safari haqidagi xisobotlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, Buxoroda bo`lib "To`qqiz yillik sayohati" nomli kitob yozgan Filip Yefremov, XIX asrning boshlarida Buxoro amirligiga tashrif buyurgan E.N.Yeversian, ruhoniy Budrin esdaliklari, N.V.Xakimov, N.Potanin esdaliklari, X.Vamberining "O`rta Osiyo ocherklari" kitobi ko`rilayotgan davrni tadqiq etishda muhim manbalar sirasiga kiradi. E`tiborga loyiq tomoni shundaki rus va yevropa sayyohlarining yozib qoldirgan asarlari yoki orginal xarakterga ega bo`lib ularda mahalliy xalq hayoti va turmushining maishiy tomonlari yaxshi yoritilgan. Tarixchilar mahalliy tarixnavislar asarlarida uchramaydigan nodir ma`lumotlarni xorijlik mualliflar estaliklaridan topishimiz mumkin. Biroq bugungi kunga qadar ushbu asarlar to`liq tadqiqotchilar tomonidan o`rganilib, ilmiy iste`molga kiritilganicha yo`q. Tadqiqotimizda biz bugunga qadar to`liq o`rganilgan rus va yevropa manbalari asosida XVI-XIX asrlarda yurtimizda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni ochib berishga harakat qilamiz.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Tarixdan ma`lumki, XVI-XVIII asrlar davomida yurtimiz hududlarida bir-biridan mustaqil uchta Buxoro, Xiva, Qo`qon xonliklari vujudga keldi. Ushbu uch mustaqil davlatlarning o`zbek davlatchiligi taraqqiyotidagi o`rni, ularning o`ziga xos davlat boshqaruv organlari, aholisi, aholining turmush tarzi, mashg`ulotlari, ularda kechgan xalq harakatlari, davlatlarni boshqargan xukmdorlar tarixi, qo`shini va uning tuzilishi kabi masalalarni o`rganish borasida bugungi kunda yurtimizda talay ilmiy ishlar yaratildi. Biroq bu hol xonliklar davri tarixi to`liq, ochiq-oydin bor bo`yi basti bilan o`rganildi degani emas.

Turkiston sarhdlarida XVI-XVIII asrlarda vujudga kelgan uch mustaqil xonlik tarixini yoritishda o`sha davrda yaratilgan yozma manbalarning o`rni

beqiyosdir. Ushbu davr manbalarini o'rganmasdan turib, bu davrda xonliklar hududida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar xususida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish mumkin emas.

Xonliklar davri tarixini o'rganishda nafaqat mahalliy tarixshunoslar balki Arab, Xitoy va Rossiya elchilari, sayyohlarining asarlari hamda esdaliklari ham muhim tarixiy manba hisoblanadi. Ularda ham tariximizning u yoki bu sahifalariga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Shuni e'tiborga olib, ushbu bitiruv magistrlik dissertatsiyamizda Xiva va Qo'qon xonligi tarixiga doir rus sayyoh va elchilarining esdalik hamda xotiranomalariga to'xtalib o'tishga qaror qildik.

O'rta Osiyo Rossiya va uning sarmoyador guruhlarini har jihatdan ham harbiy strategik ham iqtisodiy va siyosiy jihatdan XVI asrlardan boshlaboq qiziqtirib kelgan. Shu boisdan Rossiya xukmdor doiralari ko'rilayotgan davrda ham O'rta Osiyoga jumladan, Xiva va Qo'qon xonliklariga o'zlarining ko'plab elchi va savdogarlarining hamda sayyohlar o'z xukumatlari tomonidan oldilariga qo'ygan missiyalarini bajarish barobarida, o'z sayohatlari davomida ko'rgan kechirganlari hamda xalq vakillari bilan olib borgan suhbatlari jarayonida eshitganlari asosida o'ziga xos esdaliklar va xotiranomalar yozib qoldirganlarki ushbu manbalarni tanqidiy ruhda o'rganish biz tarixchilarga xonliklar davri tarixini yanada teranroq, chuqurroq tadqiq qilish imkonini beradi.

Ushbu esdaliklarda har ikkala davlat ya'ni Xiva va Qo'qon xonliklaridan ko'rilayotgan davrdagi davlat boshqaruvi, xukmronlik qilgan sulolalar, davlat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, shaharlari, chegaralari, qo'shinning tuzilishi, qurollanishi, savdo-sotiq aloqalari, bozorlari, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, etnografiyasi, toponomikasiga oid qimmatli ma'ulumotlar mavjuddir.

Biz ushbu bitiruv magistrlik dissertatsiya ishini yozishda Rossiyadan ko'rilayotgan davrda Xiva va Qo'qon xonliklariga tashrif buyuradigan elchi va sayyohlarning esdaliklaridan hamda o'sha davrlarda, keyingi bosqichlarda

Rossiyalik tarixchilarning har ikkala xonlik tarixiga doir yozib qoldirgan asarlaridan keng foydalandik. Bular bilan asosiy boblarda batafsil to'xtalamiz.

Shuningdek, mavzuni yoritishda sovetlar davrida mavzuga oid yaratilgan asar hamda ilmiy maqolalardan<sup>2</sup> ham tanqidiy ruhda foydalanishga harakat qildik.

Magistrlik dissertatsiya ishida mustaqillik yillarida yaratilgan mavzuning u yoki bu jihatlariga oid asarlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalardan<sup>3</sup> ham o'rinli foydalanildiki, ushbu materiallar masalani yanada kengroq, teranroq ochib berishga xizmat qildi.

**Ishning maqsad va vazifalari:** magistrlik dissertatsiyaning maqsadi- mustaqillik va milliy g'oya asosida, o'tmish tariximizni o'rganishda muhim manbalar qatoriga kiruvchi rus va yevropa sayyohlarining asar va esdaliklari asosida XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyoda xususan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda madaniy hayotda yuz bergan o'zgarishlarni xolisona ochib berishdan iborat. Shuningdek, XVI-XIX asrlarda yurtimizga tashrif buyurgan sayyoh va elchilarning asar va esdaliklarini qiyosiy jihatdan taqqoslash va ularga tanqidiy nuqtai-nazardan yondashib, ularni qay maqsadda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan, o'z asar va esdaliklarini qanday maqsadda bitganlariga ham to'xtalib o'tishdan iborat.

Tadqiqot obyekti: XVI-XIX asrlarda yurtimizga tashrif buyurgan rus va yevropalik sayyoh va elchilarning asarlari, esdaliklari hamda o'z hukumatlariga yozgan axborotlarida O'rta Osiyoda ko'rilayotgan davrdagi yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi yuz bergan o'zgarishlarni tadqiq etishga bag'ishlanadi.

Tadqiqot uslubi va uslublari: tadqiqot doirasidagi asosiy ilmiy konsepsiya mavzuga tarixiy haqiqat asosida yondashish bo'lib, unda ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy jarayonlar tarixiy va qiyosiy tahlil hamda xolislik, ilmiylik,

---

<sup>2</sup> Йўлдашев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Тошкент, 1959; Неъматов Т. Хива ва Россия муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг 20-50 йиллари) Тошкент, 1959; Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией XVI-XVIII вв. Тошкент, 1967; Ҳожиёв З. Ўрта Осиё билан Россия ўртасидаги муносабатларда Тошкент шаҳри аҳамиятининг ошиши. Тошкент, 1968 ва бошқалар.

<sup>3</sup> Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. –Тошкент, Фан. 1996; Хоразм тарихи. 1-жилд. Муаллифлар жамоаси. Маъсул муҳаррир. М. Матниёзов. –Урганч, 1997; Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси 4-9 жилдлар. Тошкент, 2000; Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. –Тошкент, Янги аср авлоди. 2006; Худойкулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тошкент, 2009; Шерипов У.А. Хива хонлиги тарихи (1511-1920 йй). Урганч, 2009; Бобаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Тошкент-Токио, Янги нашр. 2010; Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. Иккинчи китоб. Тошкент, Шарқ. 2010 ва бошқалар.

statistik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tanqidiy yondashuv, nazariy-uslubiy tamoyillarga tayangan holda tadqiq qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotda jahon tarixi va tarixshunosligida qo'llanilayotgan metodologiya va uslublar, O'zbekiston olimlari tomonidan ilgari surilayotgan nazariy fikr va mulohazalar hamda Prezident I.A.Karimovning yurtimiz tarixini haqqoniy yoritish to'g'risida bildirgan fikr-mulohazalari dissertatsiyaning nazariy metodologik asosini tashkil etadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi:** Dissertatsiyasida XVI-XIX asrlarda tashrif buyurgan rus va yevropa sayyohlari va elchilarining O'rta Osiyoga qanday maqsadda tashrif buyurgani masalalariga oydinlik kiritiladi. Shuningdek, ularning O'rta Osiyo bo'ylab xususan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari hamda ularning davlat tizimi, shaharlari, xo'jaligi, aholisining mashg'ulotlari va turmush tarsi xususida yozgan ma'lumotlari qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi mavzuni birlamchi manbalar, ya'ni rus yevropa sayyoh va elchilarining o'z ko'rgan kechirganlari hamda bevosita voqealar rivojida qatnashgan muarrixlar yozgan xaritalarni ilk marotaba muomalaga kiritilayotgani bilan ham izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu:** tadqiqot qo'lyozma manbalar, yurtimizga tashrif buyurgan rus va yevropalik sayyoh va elchilarning esdaliklari va asarlarida XVI-XIX asrlardagi Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixiga oid ma'lumotlarning muomalaga kiritilishi, O'rta Osiyoning ko'rilayotgan davr tarixiga oid sohalarni yangi ma'lumotlar bilan boyitishi bilan e'tiborga molik.

Tadqiqot materiallaridan O'rta Osiyoning xonliklar davri tarixini o'rganishda, shuningdek, O'zbekiston tarixi hamda o'lkashunoslik, muzeyshunoslik fanlaridan o'quv-uslubiy qo'llanmalar va ma'ruzalar tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

**Dissertatsiya tuzilishi va tarkibi:** dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan tashkil topadi.

**Xulosa va takliflarning qisqacha umulashtirilgan xulosasi:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha o'rganilgan manbalarni tahlili shunday xulosani beradiki, XVI-XIX asrlardagi o'zbek xonliklari tarixiga doir rus va yevropa manbalari orginal xarakterga ega bo'lib, ishonarli, haqqoniy manbalar qatoriga kiradi va XVI-XIX asrlar O'rta Osiyo tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

## **I Bob. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi yevropa sayyohlari hamda rus elchi, muarrixlari asarlarida.**

### **1.1. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi yevropa sayyohlari asarlarida.**

Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng Ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotganligi sababli, O'rta Osiyo jahon xo'jaligi savdosidan chetga tushib qoldi. Lekin bundan qat'iy nazar Vatanimizni Yevropa mamlakatlari bilan savdo diplomatik aloqalari batamom to'xtab qolmadi. XVI asrdan boshlab O'rta Osiyoning Yevropa mamlakatlari jumladan Angliya va Rossiya bilan o'zaro savdo va elchilik aloqalari tobora kuchayib bordi (To'g'ri bu yirik davlatlarning O'rta Osiyo xonliklariga qiziqishining boshqa tamonlari ham bor edi.). Xususan, Qozon va Astraxan xonliklari Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng bunday aloqalar rus davlati bilan yanada jonlanib ketdi. O'rta Osiyoga muntazam ravishda rus elchilari, savdogarlari va sayyohlari tashrif buyurar edilar. Rus elchilari o'z hukumatlarining talabiga muvofiq, O'rta Osiyo xonliklarining ichki ahvoli va xalqaro aloqalari, axolisi, xo'jaligi, xarbiy salohiyati xususida imkon qadar batafsilroq ma'lumotlar berishga xarakat qilar edilar. Bora-bora yurtimizga Rossiyadan kelayotgan odamlar doirasi kengayib bordi. Ularning qatoriga injenerlar, vrachlar, olimlar va boshqalar qo'shilib bordilar. Natijada rus mualliflarining O'rta Osiyo xususida to'plangan materiallarining ko'lemi kengaydi. O'rta Osiyo xonliklari axolisiga doir ma'lumotlarni bu erga tashrif buyurgan yevropalik mualliflar xam yiqqanlar. Ular orasida ayniqsa ingliz sayyoxi Antonii Jenkinson qamda vengar olimi va sayyoxi Xerman Vamberi shuningdek ingliz zobiti Aleksandr Byorns, A. Middendorf, Yujen Skayler, Genri Lansdellar yozib qoldirgan ma'lumotlar e'tiborga sazovordir.

XVI asrning o'rtalarida O'rta Osiyoga tashrif buyurgan birinchi Yevropalik ingliz sayyoxi Antoni Jenkinson edi. Jenkinson 1555 yili Moskvada tashkil etilgan «Moskva savdo kompaniyasi»da xizmat qilgan va O'rta Osiyodan Xitoy va Xindistonga olib boradigan yo'llarni aniqlash maqsadida rus podshosining maxsus guvohnomasi bilan 1558 yilda Buxoroga yuboriladi. Elchi Antonii Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II (1534-1598yy.) tamonidan qabul qilinadi. Antonii Jenkinson Rossiyaning Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari xususan hindiston bilan o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyati katta ekanligini aniqlaydi. Darhaqiqat bu davrda Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi Osiyoning qudratli davlatlaridan biri edi. Rossiyada bu davlatga nisbatan “Velikaya Buxariya” (Buyuk Buxoro) iborasi bejizga qo'llanilmagan edi.

Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini “Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558 yilgi sayohat” nomli esdaliklarida bayon etgan.

Antoni Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o`rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo`lga qo`yildi. Elchining ushbu xotiralari 1987-yilda to`la xajmda nashr qilingan.

Vengir (Madiyar) olimi hamda sayyohi Xerman Vamberi 1863 yilda yurtimizga tashrif buyurib, yurtimizning ko`plab shaharlarida bo`lib, o`zining tashrifi davomida yiqqan materiallari asosida «O`rta Osiyo ocherklari» (“Buxoro yoxud Mavorounnaxr tarixi”) kitobi Xiva xonligi va Buxoro amirligining XIX asr ikkinchi yarmidagi axvoli xususida nihoyatda boy ma'lumotlar beradi. Jumladan, ushbu asar yurtimizda o`zbek tilida 1990 yil Toshkentda G`ofur G`ulom nashriyotida nashr etildi. Asarda yurtimizda kechgan o`sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar Buxoro va Xiva davlatchiligi tarixiga oid ko`plab faktik materiallar keltirilganki, ushbu dalillar o`zining aniqligi, ishonchliligi bilan boshqa manbalardan farq qiladi. Ayniqsa, asarda Xiva xonligida Abulg`ozi Bahodirxonning (1603-1664y) hukmronlik davri va uning Xiva tarixshunosligida tutgan o`rni masalalari keng ochib beriladi. Shuningdek, sayyoh o`z sayohati davomida O`rta Osiyo shaharlaridagi hunarmandchilik va uning taraqqiyotiga oid ham qimmatli ma'lumotlar to`plagan. U o`z esdaliklarida Samarqand va Buxoro qog`ozlari o`zining silliqligi va sifati bilan chet mamlakatlarida shuhrat topganligini qayd etadi.

1831-1832 yillarda yurtimizga tashrif buyurgan Aleksandr Byornsning “Buxoroga sayoxat” nomli asarida ham yurtimiz tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Aleksandr Byorns Buxoro xonligiga tashrif buyurib o`zini arman savdogari sifatida tanishtiradi. Uning tashrifidan maqsadi O`rta Osiyo bozorini o`rganish edi. Tarixdan ma'lumki, bu davrda Angliyaning “Ost - Indiya” kompaniyasi O`rta Osiyoda monopol xukmronlik o`rnatish uchun intilgan. Kompaniyaning maqsadi oltinga, paxtaga boy bo`lgan va muhim strategik ahamiyatga ega bo`lgan O`rta Osiyoda kelajakda o`z xukmronligini o`rnatish bo`lgan. Aleksandr Byornsga mahalliy xukmdorlarning Angliya bilan hamkorlik qilishga ko`ndirish hamda ayni mahalda ushbu davlatlarning siyosiy holatini o`rganish vazifasi yuklatilgandi. U o`z tashrifi davomida to`plagan materiallari asosida “Buxoroga sayoxat” nomli esdaliklarini yozib qoldiradi. Ushbu esadliklar Buxoro amirligining hududi, xalqi, qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik sohasi, siyosiy tuzilishi, ichki va tashqi savdosi, qo`shini va uning tuzilishi, amirlikning

qo`shni Xiva qamda Qo`qon xonliklari bilan o`zaro munosabatlari, xalqlarning urf odatlari haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manba sanaladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yurtimizga tashrif buyurgan yevropalik sayyohlardan yana biri A. Middendorfdir. A. Middendorf o`z esdaliklarida “O`rta Osiyolik mexnatsevar kishi, chidamliligi, ishga bo`lgan mehri, o`z kuchini sidqidildan sarflashi va mehnatda toblanganligi, ayni mahalda aql-zakovati bilan ajoyib ibrat namunasidir” deb ma'lumotlar qoldirgan.

1873 yil mart-noyabr oylarida Turkistonga tashrif buyurgan AQShning Rossiyadagi elchisi Yujen Skaylarning o`z hukumatiga yuborgan ma'lumotlari ham biz uchun qimmatli manba sanaladi. (bu haqda Dmitriyev. Depesha E Skaylera i problemo` Sredneaziatskoy politiki sarizma 70-x gg. XIX v. Materialo` po istorii, istoriografii i arxeologii. Sb. nauch. Tr. №517.-T.:1976). Elchi Turkistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo`qon, Andijon, Namangan kabi ko`plab shaharlarida bo`lib, yurtimiz hayoti, tabiati, qishloq xo`jaligi hamda hunarmandchiligiga oid ko`plab ma'lumotlar to`plab o`z hukumatiga yuborib turgan. Uning ma'lumotlaridan yurtimizdagi hunarmandchilik taraqqiyotiga oid ko`plab ma'lumotlarni olish mumkin. Jumladan, u keltirgan ma'lumotda Qo`qon xonligiga qarashli Charq qishlog`ida qog`oz korxonasi, asosan, suv kuchidan foydalanishga moslashtirilgan edi. Shuning uchun ham uni “qog`oz objuvozi” deb atashgan. Bu ishxonada, asosan, eski latta va paxtalar objuvoz orqali tozalanib, turli qog`ozlar tayyorlanar edi deb ma'lumot beradi.

Turkistonga 1885 yilda tashrif buyurgan Genri Lansdelning xotiralari qam manbashunoslik fani uchun qimmatli sanaladi. Uning xotiralari ko`proq Turkistondagi konchilik soqasi qaqida ma'lumotlar beradi. Uning qayd etishicha maqalliy axoli konchilik bilan shuquullanib, ko`pgina menerallarni aniqlagan va ulardan unumli foydalana olgan. O`sha davrda Chotqol, Yuqori Chirchiq, Talas, Ili va Zarafshon qumlaridan oltin ajratib olinganini Genri Lansdel o`z esdaliklarida yozib qoldiradi.

Xullas, O`rta Osiyoga kelib ketgan Ovropalik elchilar va sayyoxlar xotiralari va xisobotlari o`lkamiz tarixini o`rganishda muxim manba bo`lib xizmat qiladi. Ularga Buxoro, Xiva va qo`qon xonliklarining davlat tuzimi, shaxarlari, xo`jaligi, axolining mashqulotlari va turmush tarzi xususida boy ma'lumotlar bor. Shu bilan birga mazkur xotira va xisobotlar mualliflari ba'zi xollarda bir yoqlamalik va sub'ektivizm singari nuqsonlarga yo`l qo`yishlarini xam ta'kidlab o`tish zarur.

Buyuk juqrofik kashfiyotlardan so`ng Ipak yo`li o`z ahamiyatini yo`qotganligi sababli, O`rta Osiyo jaxon xo`jaligi savdosidan chetga tushib qoldi. Lekin bundan qat'i nazar Vatanimizni Ovrupo mamlakatlari bilan savdo diplomatik aloqalari batamom to`xtab qolmadi. XVI asrdan boshlab O`rta Osiyoning Ovropa mamlakatlari jumladan Angliya va Rossiya bilan o`zaro savdo va elchilik aloqalari tobora kuchayib bordi (To`qri bu yirik davlatlarning O`rta Osiyo xonliklariga qiziqishining boshqa tamonlari qam bor edi.). Xususan, qozon va Astraxan xonliklari Rossiya tomonidan bosib olingandan so`ng bunday aloqalar rus davlati bilan yanada jonlanib ketdi. O`rta Osiyoga muntazam ravishda rus elchilari, savdogarlari va sayyoxlari tashrif buyurar edilar. Rus elchilari o`z xukumatlarining talabiga muvofiq, O`rta Osiyo xonliklarining ichki axvoli va xalqaro aloqalari, axolisi, xo`jaligi, xarbiy salohiyati xususida imkon qadar batafsilroq ma'lumotlar berishga xarakat qilar edilar. Bora-bora yurtimizga Rossiyadan kelayotgan odamlar doirasi kengayib bordi. Ularning qatoriga injenerlar, vrachlar, olimlar va boshqalar qo`shilib bordilar. Natijada rus mualliflarining O`rta Osiyo xususida to`plangan materiallarining ko`lami kengaydi. O`rta Osiyo xonliklari axolisiga doir ma'lumotlarni bu erga tashrif buyurgan ovropalik mualliflar xam yiqqanlar. Ular orasida ayniqsa ingliz sayyoxi Antonii Jenkinson qamda vengar olimi va sayyoxi Xerman Vamberi shuningdek ingliz zobiti Aleksandr Byorns, A. Middendorf, Yujen Skayler, Genri Lansdellar yozib qoldirgan ma'lumotlar e'tiborga sazovordir.

XVI asrning o`rtalarida O`rta Osiyoga tashrif buyurgan birinchi Evropalik ingliz sayyoxi Antonii Jenkinson edi. Jenkinson 1555 yili Moskvada tashkil etilgan «Moskva savdo kompaniyasi»da xizmat qilgan va O`rta Osiyodan Xitoy va Xindistonga olib boradigan yo`llarni aniqlash maqsadida rus podshosining maxsus guvoqnomasi bilan 1558 yilda Buxoroga yuboriladi. Elchi Antonii Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II (1534-1598yy.) tamonidan qabul qilinadi. Antonii Jenkinson Rossiyaning Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari xususan qindiston bilan o`zaro savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyati katta ekanligini aniqlaydi. Darhaqiqat bu davrda Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi Osiyoning qudratli davlatlaridan biri edi. Rossiyada bu davlatga nisbatan “Velikaya Buxariya” (Buyuk Buxoro) iborasi bejizga qo`llanilmagan edi. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini “Rossiyadagi Moskva shaqridan Baqtriyadagi Buxoro shaqrigacha 1558 yilgi sayoqat” nomli esdaliklarida bayon etgan.

Antonii Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o`rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo`lga qo`yildi. Elchining ushbu xotiralari 1987-yilda to`la xajmda nashr qilingan.

Vengir (Madiyar) olimi qamda sayyoqi Xerman Vamberi 1863 yilda yurtimizga tashrif buyurib, yurtimizning ko'plab shaqarlarida bo'lib, o'zining tashrifi davomida yiqqan materiallari asosida «O'rta Osiyo ocherklari» ("Buxoro yoqud Mavorounnaxr tarixi") kitobi Xiva xonligi va Buxoro amirligining XIX asr ikkinchi yarmidagi axvoli xususida nixoyatda boy ma'lumotlar beradi. Jumladan, ushbu asar yurtimizda o'zbek tilida 1990 yil Toshkentda qofur qulom nashriyotida nashr etildi. Asarda yurtimizda kechgan o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar Buxoro va Xiva davlatchiligi tarixiga oid ko'plab faktik materiallar keltirilganki, ushbu dalillar o'zining aniqligi, ishonchliligi bilan boshqa manbalardan farq qiladi. Ayniqsa asarda Xiva xonligida Abulqozi Baxodirxonning (1603-1664yy) xukmronlik davri va uning Xiva tarixshunosligida tutgan o'rni masalalari keng ochib beriladi. Shuningdek, sayyoq o'z sayoqati davomida O'rta Osiyo shaqarlaridagi qunarmandchilik va uning taraqqiyotiga oid qam qimmatli ma'lumotlar to'plagan. U o'z esdaliklarida Samarqand va Buxoro qoqozlari o'zining silliqiligi va sifati bilan chet mamlakatlarida shuqrat topganligini qayd etadi.

1831-1832 yillarda yurtimizga tashrif buyurgan Aleksandr Byornsning "Buxoroga sayoxat" nomli asarida qam yurtimiz tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Aleksandr Byorns Buxoro xonligiga tashrif buyurib o'zini arman savdogari sifatida tanishtiradi. Uning tashrifidan maqsad O'rta Osiyo bozorini o'rganish edi. Tarixdan ma'lumki, bu davrda Angliyaning "Ost - Ind" kompaniyasi O'rta Osiyoda manopol xukmronlik o'rnatish uchun intilgan. Kompaniyaning maqsadi oltinga, paxtaga boy bo'lgan va muxim strategik aqamiyatga ega bo'lgan O'rta Osiyoda kelajakda o'z xukmronligini o'rnatish bo'lgan. Aleksandr Byornsga maqalliy xukmdorlarning Angliya bilan qamkorlik qilishga oqdirish qamda ayni maqalda ushbu davlatlarning siyosiy qolatini o'rganish vazifasi yuklatilgandi. U o'z tashrifi davomida to'plagan materiallari asosida "Buxoroga sayoxat" nomli esdaliklarini yozib qoldiradi. Ushbu esadliklar Buxoro amirligining xududi, xalqi, qishloq xo'jaligi, qunarmandchilik soqasi, siyosiy tuzilishi, ichki va tashqi savdosi, qo'shini va uning tuzilishi, amirlikning qo'shni Xiva qamda qo'qon xonliklari bilan o'zaro munosabatlari, xalqlarning urf odatlari qaqida ma'lumot beruvchi qimmatli manba sanaladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yurtimizga tashrif buyurgan ovropalik sayyoqlardan yana biri A. Middendorfdir. A. Middendorf o'z esdaliklarida "O'rta Osiyolik meqnatsevar kishi, chidamliligi, ishga bo'lgan meqri, o'z kuchini sidqidildan sarflashi va meqnatga toblanganligi, ayni maqalda aql-zakovati bilan ajoyib ibrat namunasidir" deb ma'lumotlar qoldirgan.

1873 yil mart-noyabr oylarida Turkistonga tashrif buyurgan AqShning Rossiyadagi elchisi Yujen Skaylarning o'z xukumatiga yuborgan ma'lumotlari qam biz uchun qimmatli manba sanaladi. (bu qaqda Dmitriev. Depesha E Skaylera i problemo` Sredneaziatskoy politiki sarizma 70-x gg. XIX v. Materialo` po istorii, istoriografii i arxeologii. Sb. nauch. Tr. №517.-T.:1976). Elchi Turkistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, qo`qon, Andijon, Namangan kabi ko`plab shaqarlarida bo`lib, yurtimiz qayoti, tabiati, qishloq xo`jaligi qamda qunarmandchiligiga oid ko`plab ma'lumotlar to`plab o`z xukumatiga yuborib turgan. Uning ma'lumotlaridan yurtimizdagi qunarmandchilik taraqqiyotiga oid ko`plab ma'lumotlarni olish mumkin. Jumladan, u keltirgan ma'lumotda qo`qon xonligiga qarashli Charq qishloqida qoqoz korxonasi, asosan, suv kuchidan foydalanishga moslashtirilgan edi. Shuning uchun qam uni "qoqoz objuvozi" deb atashgan. Bu ishxonada, asosan, eski latta va paxtalar objuvoz orqali tozalanib, turli qoqozlar tayyorlanar edi deb ma'lumot berardi.

Turkistonga 1885 yilda tashrif buyurgan Genri Lansdelning xotiralari qam manbashunoslik fani uchun qimmatl sanaladi. Uning xotiralari ko`proq Turkistondagi konchilik soqasi qaqida ma'lumotlar beradi. Uning qayd etishicha maqalliy axoli konchilik bilan shuqullanib, ko`pgina menerallarni aniqlagan va ulardan unumli foydalana olgan. O`sha davrda Chotqol, Yuqori Chirchiq, Talas, Ili va Zarafshon qumlaridan oltin ajratib olinganini Genri Lansdel o`z esdaliklarida yozib qoldiradi.

Xullas, O`rta Osiyoga kelib ketgan Ovropalik elchilar va sayyoxlar xotiralari va xisobotlari o`lkamiz tarixini o`rganishda muxim manba bo`lib xizmat qiladi. Ularga Buxoro, Xiva va qo`qon xonliklarining davlat tuzimi, shaxarlari, xo`jaligi, axolining mashqulotlari va turmush tarzi xususida boy ma'lumotlar bor. Shu bilan birga mazkur xotira va xisobotlar mualliflari ba'zi xollarda bir yoqlamalik va sub'ektivizm singari nuqsonlarga yo`l qo`yishlarini xam ta'kidlab o`tish zarur.

1.2. Rus elchi va muarrixlari asarlarida O`rta Osiyo xalqlarining qadimgi va o`rta asrlar davri tarixi.

Vatanimiz boy o'tmishi tarixini o'rganishda yurtimizga tashrif buyurgan Arab, Xitoy va Rossiya elchilari va sayyohlarining esdaliklari ham muhim manba hisoblanadi. Ularning xotiranoma va asarlarida tariximizning u yoki bu davriga oid ma'lumotlar chuqur va atroflicha bayon etiladi. SHu bois esdaliklar ham muhim tarixiy manba hisoblanadi.

SHuni e'tiborga olib, ushbu Bitiruv Malakaviy ishimizda biz asosan Rossiya sayyohlari va elchilarining esdaliklariga atroflicha to'xtalib o'tishga qaror qildik.

O'rta Osiyo Rossiya va uning sarmoyador guruhlarini har jihatdan: harbiy strategik, ya'ni uning Hindiston va Xitoyga yaqinligi, zaminning boyligi va xalqning soddadil hamda mehnatsevarligi bilan ko'p vaqtlardan beri qiziqtirib kelgan. O'rta Osiyo bilan qiziqish, uni Rossiyaning mustamlakasiga aylantirish yo'lidagi harakat podshoh Mixail Feodorovich Romanov (1613-1645 yy) davridan boshlandi va ikki yuz qirq besh yildan keyin, 1865 yillarga kelib Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklarini bo'ysindirish bilan yakunlandi.

Rossiya xukumati o'zining bu siyosatini amalga oshirish uchun O'rta Osiyoni yaxshi bilgan, keng ma'lumotli diplomatlari va harbiylaridan foydalangan. Ular savdo-sotiq va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun, aslida esa mamlakatdagi harbiy-siyosiy vaziyatni o'rganish uchun yuborilardi. SHuningdek, ularni yana Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklarining qo'shni davlatlar: Hindiston, Eron, Turkiya va Xitoy bilan qanday munosabatda ekanligini aniqlash va O'rta Osiyo shaharlariga olib boradigan yaqin va qulay yo'llarni o'rganib, xaritasini tuzish maqsadida yuborilar edi.

Biz ushbu Bitiruv Malakaviy ishimizda 1620 yildan to rus armiyasining O'rta Osiyoga bostirib kirib, mustamlakaga aylantirgunga qadar kechgan 200 yil mobaynida mamlakatimizga xususan Xiva va Qo'qon xonliklariga Rossiyadan kelib ketgan sayyohlar, elchilar va harbiy mutaxasislarning faoliyati va ular yozib qoldirgan esdaliklar hamda asarlarda bu ikki mustaqil davlat tarixi haqida yozilgan faktik materiallarga to'xtalib o'tamiz.

Jumladan, biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyo Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklaridan iborat uchta o'zbek xonligi bor edi. Bu xonliklar o'lkaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida muxim o'rinni egallagan edi. O'zbek xonliklarining tarixi o'sha davrlardan boshlab rus va G'arbiy Evropa tadqiqotchilarining diqqat-e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb eta bordi. Natijada o'zbek xonliklari to'g'risida bir qancha asarlar yozildi. Endilikda u asarlardan, asosan, qimmatli materiallar, manbalar tariqasida foydalanilmoqda.

O'zbek xonliklari tarixiga bag'ishlab yozilgan o'sha davrdagi asarlarning aksariyati rus elchi va sayyohlarining bergan ma'lumotlari asosida yozilgan. Biz bu o'rinda ushbu Bitiruv malakaviy ishimizda XVI-XIX asrlardagi Xiva va Qo'qon xonligi tarixiga doir rus elchi va sayyohlari hamda tarixchilari tomonidan yozilgan esdaliklar, asarlarni tarixiy manba sifatida ko'rib chiqmoqchimiz. Bu o'rinda F. Nazarovning 1813-1814 yillarda Qo'qon xonligida elchi sifatida yozgan kitobini ko'rsatib o'tish mumkin.<sup>4</sup> Xiva xonligida elchi bo'lgan N.N. Muravyovning sayohatnomasi ham alohida ahamiyatga egadir. Bunda Xiva xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli, uning chet davlatlar va ayniqsa Rossiya bilan munosabatlari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.<sup>5</sup> SHuningdek, XIX asrning 20-30 yillardagi Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Potaninning maqolasi qimmatlidir.<sup>6</sup>

Rus elchilarining asarlari orasida ayniqsa 1842 yilda Xivada elchi bo'lib turgan G.Danilevskiyning kitobi alohida o'rin tutadi. G.Danilevskiyning asarida Xiva xonligining chegarasi, xalqi, hunarmandchilik sanoati va siyosiy tuzilishi, xususan uning qurolli kuchlari, umuman iqtisodiy va siyosiy axvoli, uning ichki hamda tashqi savdosi haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

---

<sup>4</sup> Записки о некоторых народах и землях средней части Азии Филиппа Назарова. СПб, 1821.

<sup>5</sup> Н.Н. Муравьев. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг., Ч. 1-2., М., 1822.

<sup>6</sup> Патанин Н. Записки о Какандском ханстве хоренжего Потанина (1830). Вестник Русского географического общества, Т. VI, 2. 18, 1856; Показание Сибирского казака Максимова о Кокандском владении. Вестник Русского географического общества, часть XVIII, 1860, Кн.3.

Ko‘rilayotgan davrda o‘zbek xonliklari tarixini o‘rganishda sharqshunos, akademik V.V. Velyaminov-Zerkov asarlari alohida ahamiyatga egadir.<sup>7</sup>

Mualliflar o‘z asarlarida Qo‘qon xonligining tashkil topishi, xonlikdagi mansab va lavozimlar, xonlikning qurolli kuchlari, ichki va tashqi savdosi, shu jumladan, Rossiya bilan bo‘lgan savdosi, xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro urushlari haqida yozadi. Ayniqsa uning Qo‘qon xonligining Muhammadalixon xukmronligidan to Xudoyorxon davriga qadar bo‘lgan tarixiga bag‘ishlangan asari ushbu davr tarixini yoritishda qimmatli manba sanaladi.

Qo‘qon xonligining tarixiga doir asarlar orasida V.Nalivkinning asari diqqatga sazovordir. U Qo‘qon xonligi haqida XVIII asr boshlaridan to XIX asrning uchinchi choragi oxirigacha bo‘lgan davrni yoritdi. Muallif ko‘proq xon avlodlarining taxt uchun kurashlari, ayniqsa Buxoro-Qo‘qon o‘rtasidagi Jizzax va O‘ratepa uchun olib borilgan azaliy urushlar haqida muhim ma’lumotlar berdi.<sup>8</sup>

N. Veselovskiy ham Xiva xonligi tarixini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Muallif xonlikning Rossiya tomonidan bosib olinishigacha bo‘lgan davrini yoritishga intilgan.<sup>9</sup> Muallif asarining eng qimmatli jihati shundaki unda xonlikning tashkil topishi, SHayboniy inoqlarining boshqaruvni qo‘lga olishi, Buxoro xonligi bilan olib borilgan o‘zaro kurash jarayonlari, Xivadagi XVI asr davomida ro‘y bergan taxt uchun kurash jarayonlari atroflicha yoritiladi.

N. I. Veselovskiy asarlarida asosan ko‘proq xonlikning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, uning ichki va tashqi savdosi haqidagi ma’lumotlardan tortib, ichki va tashqi faktorlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Muallif o‘z asarida qo‘ng‘irotlar sulolasining siyosiy maydonga kelishi, bu davrda xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida bo‘lgan o‘zgarishlar haqida fikr yuritadi.

---

<sup>7</sup> В.В.Вельяминов-Зерков. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммад –Али до Худоев-хана, СПб, 1856, Сведения о Кокандском ханстве. Вестник Русского географического общества, ч. XVIII, 1856, кн V.

<sup>8</sup> В.Наливкин, Краткая история Кокандского ханства, Казань, 1886.

<sup>9</sup> Н.И.Веселовский. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего, СПб, 1877.

O'zbek xonliklarining hunarmandchilik sohasini o'rganishda G.R.Golovin, A.D.Grebenik, N. Burdikov, N.I.Gabbin, P.I. Pashino asarlari muhim ahamiyatga egadir. XIX asr o'rtalarida Osiyo, shu jumladan, O'rta Osiyoda asosan sanoat uncha taraqqiy etmagani bois bozorni asosan hunarmandchilik mahsulotlari to'ldirgani haqida ko'plab faktik ma'lumotlar beriladi.

YUqoridagi muarrixlar asarlari orqali O'rta Osiyo davlatlarida ko'plab hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lib, ular maxalliy xususiyatlariga ko'ra turli hunarmandchilik sohalariga ixtisoslashganligi to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin. Masalan, A.D.Grebnik bergan ma'lumotda qayd etilishicha Marg'ilonda atlas to'qish, do'ppichilik, Rishtonda kulolchilik, Buxoroda zargarlik, SHaxrixonda pichoqchilik, do'ppichilik, duradgorlik, CHustda ham do'ppichilik, pichoqchilik, Qo'qonda temirchilik, duradgorlik, zargarlik, Samarqandda zargarlik, Xivada me'morchilik, ganchkorlik rivojlangan. Xiva va Qo'qon xonligida bu darda kulolchilik, temirchilik, misgarlik, zardo'zlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik sohaları ham keng tarqalgan. Xonliklarda temir mahsulotlariga ehtiyoj katta bo'lgani bois, metallga ishlov beruvchi mahalliy temirchilik sohasi rivojlangan. Temirchilar tomonidan ketmon, o'roq, chalg'i va boshqalar tayyorlangan.<sup>10</sup>

SHuningdek, xonliklar davri xususan Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda 1813-1814 yillarda yurtimizga tashrif buyurgan rus etnografi Filipp Nazarov esdaliklari ham muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z esdaliklarida Qo'qon xonligi xududi, chegeralari, qishloqlari va shaharlari haqida batafsil to'xtalib o'tgan. Filipp Nazarov o'z esdaliklarida aholining mashg'uloti hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, poliz mahsulotlari etishtirilishi va chorvachilik haqida ham to'xtalib o'tgan. Savdo-sotiq aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. SHuningdek, u xonlikning yirik shaharlari ham bo'lib, shao'arlarning tuzilishi, axolining

---

<sup>10</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустанлакачилиги даврида. Тошкент, Шарқ. 2000. Б. 71.

turmush tarzi, xonlik qo'shinining umumiy axvoli haqida o'z ko'rganlari asosida ma'lumotlar yozib qoldiradi.<sup>11</sup>

SHu bois ham muarrixlar Filipp Nazarov esdaliklarini Qo'qon xonligining XIX asr birinchi choragidagi axvoli haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manbalar sirasiga kiritishadi.

XIX asr o'rtalarida Osiyo, shu jumladan, O'rta Osiyo bozorlarini egallashda ingliz mustamlakachilari bilan chor samoderjaviyasi o'rtasidagi raqobatli o'rganishda M.A. Terentev, A.P. Subbotin, F. Marten asarlari qimmatli manbadir.

YUqoridagi muarrixlar asarlarida XIX asrning birinchi yarmida Angliya va Rossiya davlatlari o'rtasida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari xududlari uchun raqobatchilik kuchayib keskinlashib ketgani qayd etiladi. Raqobatchilikning kuchayishiga quyidagilar sabab qilib ko'rsatiladi.

-Angliya va Rossiyaning O'rta Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari;

-o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun O'rta Osiyo bozorlarini egallash istagi;

-O'rta Osiyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari.

Bu omillar dunyodagi ikki yirik mustamlakachi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib keladi.

Hindistonda mustahkam o'rtnashib olgan ingliz mustamlakachilari o'zlar tuzgan Ost-Indiya (SHarqiy Hindiston) kompaniyasi orqali O'rta Osiyo tomon siljishga urindilar. Ularning maqsadi Rossiyaning o'zbek xonliklaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda xonliklarni o'z ta'sir doirasiga olishdan iborat edi. Angliya xukmron doiralari xonliklarning ichki va tashqi ahvolini, ularni bog'lab turgan yo'llarni aniqlash, xonlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida maxsus ekspeditsiyalar

---

<sup>11</sup> Назаров Ф. Записка о некоторых народах и землях средней част Азии. Текст подготовил В.А. Рамодин. Примечания В.А. Рамодина и В.А. Урванова. М., 1968. -С. 7-12

yubora boshlaydi. Ekspeditsiyalar zimmasiga, ayni paytda, maxalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi ham yuklatilar edi. SHu maqsadda Angliya xukumati xonliklarga U Murkfort, Aleksandr Byorns, CH Stoddart, A. Konnoli, Richard SHekspir, mayor I. Volf, J. Abbot kabi elchilarni yubordi. Bu elchiliklar O'rta Osiyoda ingliz missiyasining kuchayishiga, ingliz savdosining rivojlanishiga olib keldi. SHuningdek, inglizlar xind savdogarlaridan ham foydalana boshlaydi. Ular xind savdogarlariga xonliklar bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishga katta yordam ko'rsatadi. Xususan, xind savdogarlariga qarz hamda ingliz mollaridan berib turildi. Bu mollar O'rta Osiyoda Rossiya mollari narxidan orzonga sotilar edi. YUqorida qayd etilgan ingliz elchilari (ayg'oqchilari) Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklariga kelib harbiy, siyosiy, iqtisodiy masalalarda ma'lumotlar to'plab, o'z rahbarlariga etkazardi. Inglizlarning O'rta Osiyodagi xarakatlaridan tashvishga tushgan Rossiya O'rta Osiyo xonliklariga bosqinchilik yurishlarini tezlashtirilishini yuqoridagi muarrixlar ayrim joylarda voqealar tafsilotini o'z nuqtai nazaridan yoritib berdilar shu bois tadqiqotchilar ushbu manbalarga sinchkovlik bilan yondoshib tanqidiy ruhda foydalanmog'i lozim.

Venger sharqshunosi A. Vamberi XIX asrning 60-70 yillarida O'rta Osiyoga kelib, xonliklar tarixiga doir ko'p materiallar to'plagan va ilmiy asar yaratgan.<sup>12</sup> Ushbu asar ham xonliklarning xududi, xalqi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik sohasi, siyosiy tuzilishi, ichki va tashqi savdosi, o'zaro munosabatlari, xalqlarning urf odatlari haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manba sanaladi. Uning esdaliklari o'zbek tilida ham chop etilgan.

Bundan tashqari, Xiva bilan Rossiyaning XVIII-XIX asrlardagi o'zaro aloqalari yana bir sharqshunos olim S.V.Jukovskiyning asari<sup>13</sup>da beriladi. Jukovskiyning asarida keyingi 300 yilda Buxoro va Xivaga yuborilgan rus davlati elchilari va xonliklardan rus davlatiga yuborilgan elchilar haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Asar yana shunisi bilan ham qimmatliki unda asosan elchilar

---

<sup>12</sup> Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Тошкент, Гофур Фулом нашриёти. 1990.

<sup>13</sup> Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехлетие, Пг., 1915.

oldiga o'z xukumatlari tomonidan qo'yilgan masalalar keng va atroflicha ochib beriladi. SHu o'rinda yana N.G.Zalesov va I.Zaxarinning o'zbek xonliklari bilan rus davlati o'rtasidagi diplomatik munosabatlar haqidagi maqolalarini ham qimmatli manbalar qatorida ko'rsatib o'tish lozim.

Muarrixlar o'z maqolalari orqali o'zbek xonliklariga XVIII-XIX asrlarda tashrif buyurgan ayrim Rossiya davlati elchilarining o'lkada yuritgan diplomatik missiyalari xususida fikr yuritadilar.

S.N. Zikov, P.P.Ivanov va M. Ivaninning asarlarida 1839-1840 yillarda Xiva bilan Rossiya munosabatlari yoritilgan. Ularda qayd etilishicha, bu davrda Xiva-Rossiya munosabatlari keskinlashib ketadi. Bunga sabab 1824 yilda Orenburg savdogarlari S.Sialkovskiy boshchiligidagi harbiy qism hamkorligida yo'lga chiqib Buxoroga bormoqchi bo'ladi. Biroq 1825 yilning yanvarida karvon Xiva qo'shini qarshiligiga uchraydi. Xiva qo'shini qo'mondoni karvonni Buxoroga emas Xivaga yuborilishini talab qildi. S. Sialkovskiy bu talabni rad etadi va orqaga qaytishga qaror qiladi. Xiva qo'shini Buxoroga olib boradigan savdo yo'lini berkitib qo'yadi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni buzib yuboradi.

Xiva-Rossiya munosabatlari keskinlashgan bir sharoitda Muhammad Rahimxon I vafot etadi. Taxtga o'g'li Olloqulixon o'tiradi. U Xiva-Rossiya munosabatlaridagi keskinlikni yumshatishga urinadi.

Biroq Rossiya Xiva bilan munosabatni harbiy yo'l bilan tartibga keltirishga urinadi. Shu maqsadda 1839 yilda V. Perovskiy harbiy ekspeditsiyasi tashkil etiladi.

Uning ixtiyorida 4 ming piyoda askar, 12 ta to'p va yuk ortilgan o'n ming tuya bor edi. Biroq Usyurtning qattiq sovug'i, oziq-ovqat va em-xashakning etishmasligi oqibatida ekspeditsiya talofat ko'radi. Oqibatda V.Perovskiy orqaga qaytishga majbur bo'ladi. U 1840 yilning iyun oyidagina Orenburgga qaytib kela

oladi.<sup>14</sup> Ushbular haqida ko‘proq biz yuqorida qayd etgan rus tarixchilari o‘z asarlari orqali ma’lumot qoldirganlar.

Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng ham rus olimlari o‘lka tarixini o‘rganish borasida ancha ishlarni qildilar. Mustamlaka sharoitida Turkiston o‘lkasini tarixini o‘rganish va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish og‘ir kechar edi. Turkiston o‘lkasi mustamlaka davlat ma’muriyati ixtiyorida bo‘lganligi sababli ilmiy jamiyatlar faoliyatiga befarq qaralar edi. Turkiston o‘lkasini tarixini har tomonlama o‘rganishda tadqiqotchi olimlarning xizmati katta bo‘ldi. Ular Rossiyaning yuksak saviyali, mehnatsevar, taraqqiyparvar kishilari edi. Rossiya fani va madaniyatining bu ilg‘or vakillari o‘zbek, tojik va qoraqalpog‘ xalqlari bilan birgalikda og‘ir kechayotgan hayotni engillashtirish, ular orasida zamonaviy bilimlarni yoyish hamda xalqlar orasida do‘stlik tuyg‘ularini kamol toptirishga harakat qildilar. Bu olimlar o‘lkani ilmiy jihatdan o‘rganish ishlariga mustahkam poydevor qo‘ydilar shu sababli ularning nomi O‘zbekiston tarixi sahifalarida saqlanib qoldi.

Likoshin Nil Sergeevich (1860-1922yy) turkolog, tarjimon, O‘rta Osiyo haqida yozilgan 700dan ortiq ilmiy-o‘lkashunoslik sohasidagi ishlar va “Turkistonda yarim umr” asari muallifi edi. U O‘rta Osiyo tarixchisi Abu Bakr Muhammad Zafar an-Narshaxiyning (899-959 yy) Buxoro tarixidan hikoya qiluvchi “Tarixiy Narshaxiy” asarini rus tiliga tarjima qilgan.<sup>15</sup>

Ilmiy-o‘lkashunoslik sohasi asoschilardan biri Maev Nikolay Aleksandrovich hisoblanadi. Uning O‘rta Osiyodagi faoliyati 1869 yildan boshlangan bo‘lib, asosan o‘lkamiz tarixi va madaniyatiga qiziqar edi. 1870 yilda tashkil etilgan o‘lka ma’muriyatining rasmiy nashri bo‘lgan birinchi O‘rta Osiyo gazetasi “Turkestanskiy vedomosti”ning ilk sonidan boshlab 1892 yilgacha muxarriri bo‘ldi. Uning tashabbusi va xarakatlari bilan bu gazeta o‘lkashunoslik

---

<sup>14</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тошкент, Шарқ. 2000. Б. 102.

<sup>15</sup> Хидоятов Г.А., Костетский В.А. Ўзбекистон тарихи (XIX аср иккинчи ярми XX аср бошлари). Тошкент. “Ўзбекистон”, 2006. Б.142.

mavzuiga katta ahamiyat berdi. Uning sahifalarida maxalliy tarixchilar, tadqiqotchilar, sharqshunoslar o'z maqolalarini e'lon qildilar. Bu an'ana gazetada uzoq yillar davom etdi. O'rta Osiyodagi birinchi muzey, ya'ni bugungi tabiat muzeyi va tarix muzeylarning asosi bo'lib xizmat qilgan-Turkiston muzeyining paydo bo'lishi ushbu gazeta nomi bilan bog'liq. U shuningdek, Toshkentdagi umumiy kutubxona tashkil etilishi va kutubxona ishlarining yo'lga qo'yilishiga katta hissa qo'shdi. Yillar o'tishi bilan bu kichik kutubxona Alisher Navoiy nomidagi "O'zbekiston milliy kutubxonasi"ga aylandi.<sup>16</sup>

O'rta Osiyo tarixi bilan shug'ullangan yana bir rus olimi Vaselovskiy Nikolay Ivanovichdir (1848-1918 yy). U sharqshunos, arxeolog-O'rta Osiyo xududida birinchi bo'lib arxeologik qazishmalar olib borgan mutaxassis olim hisoblanadi. 1885 yil qadimiy Samarqandning Afrosiyob xarobalarini qazish vaqtida qadimiy buyumlar, odamlarning va hayvonlarning bosh qismi tasvirlangan sopol parchalari, sopol va g'ishtdan qurilgan devor qoldiqlari, quduqlar, hovuzlar, suv quvurlari kabi inshootlar topildi. Afrosiyobdagi qazishmalar 1895 yilda ham davom ettirildi. Samarqandning tarixiy arxitektura yodgorliklarini ilmiy asosda ta'rif berish bilan ham N Veselovskiy nomi bilan bog'liq. U 1895 yilda Bibixonim masjidi va Go'ri Amir maqbarasi rasmi va chizmasini tayyorlagan olim va rassomlar ekspeditsiyasiga boshchilik qilgan. 1905 yilda ushbu ekspeditsiya materiallari asosida Go'ri Amir maqbarasiga bag'ishlangan rangli albom tayyorlandi. N. I. Veselovskiy Samarqanddagi "Xo'ja Ahror yodgorligi", "Bibixonim masjidi", "Yana Ossuariylar haqida", "Samarqandda ramazon", "Buxoroda Qurbon xayiti" va boshqa ko'plab asarlar muallifidir.<sup>17</sup>

O'rta Osiyo tarixi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan yana bir rus turkshunos olimi Nalivkin Vladimir Petrovichdir. U 1852-1918 yillarda yashagan. Kalugada tug'ilgan. 1873 yildan boshlab Turkistonda yashagan. U bir necha yil

---

<sup>16</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 417.

<sup>17</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 461-462.

Farg‘ona viloyatining Nanay qishlog‘ida yashab, o‘zbek, tojik, arab tillarini o‘rgangan. V.P. Nalivkin etnografiyaga doir ishlar Turkiston tarixi, islomshunoslik, o‘zbek va fors tillarini o‘qitish bo‘yicha qo‘llanma, ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha lug‘at, “Turkiston o‘qituvchilar seminariyasi uchun xrestomatiya”, “O‘zbek tilini amaliy o‘rganish uchun qo‘llanma”, “Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi” asarlarini yozib qoldirgan.<sup>18</sup>

Tarixchi olimlar orasida akademik Bartold Vasiliy Vladimirovich (1869-1930 yy) alohida o‘rin tutadi. Uning mukammal ilmiy asarlari to‘plami to‘qqiz tomdan iborat. Ular orasida “Mo‘g‘ullar xujumi davrida Turkiston”, “1365 yil Samarqandda xalq xarakati”, “Musulmonlik madaniyati”, “Turkistonni sug‘orish tarixiga oid”, “Ulug‘bek va uning davri”, “Turkiston madaniy hayoti tarixi” va boshqa asarlari bor.

Bartold Vasiliy Vladimirovich O‘rta Osiyoga birinchi marta 1893 yilda kelgan. Turkiston universiteti ochilishida faol ishtirok etgan va tarix-filologiya fakultetida ma‘ruzalar o‘qigan. “Mo‘g‘ullar hujumi davrida Turkiston” asari O‘rta Osiyoning o‘rta asrlar tarixi uchun ishonchli manba bo‘lgan va hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ilmiy asarlardan biri hisoblanadi.<sup>19</sup>

Vyatkin Vasiliy Lavrentovich (1869-1932 yy)- taniqli sharqshunos va arxeologlardan biri bo‘lib, Samarqandda yashagan va ishlagan. Mahalliy tarix ishqibozlari bilan birgalikda uzoq vaqt Ulug‘bek rasadxonasini topish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. 1908 yilda rasadxona binosi qoldiqlarini va unga tegishli asbob-uskunalarning bir qismini topishga muvaffaq bo‘ldi.

---

<sup>18</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 248.

<sup>19</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 641-642.

U “Shohizinda”, “Cho‘ponota”, “Evropalik donishmand”, “Afrosiyob qo‘rg‘oni” asarlari rus va o‘zbek tillarini o‘rganish bo‘yicha qator darsliklar muallifi.<sup>20</sup>

Yana bir sharqshunos va turkolog rus olimi Mallitskiy Nikolay Gurevich (1873-1947 yy)dir. U 1895 yildan boshlab Toshkentda yashagan. U Toshkent tarixining mohir bilimdoni bo‘lib, unga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy asarlar, shuningdek, “so‘nggi yuz yillikdagi Toshkent tarixidan bir necha sahifalar”, “XVIII asr Toshkent tarixidan sahifalar”, “Qo‘qon xukmronligi ostidagi Toshkent tarixiga doir”, “Toshkent shahri. Bir qancha raqamlar”, “Toshkent. Tarixiy ocherk”, “Toshkent maxallalari” asarlari muallifidir.<sup>21</sup>

Semenov Aleksandr Aleksandrovich (1873-1958 yy) mashhur sharqshunoslardan biri. U Beruniy, Ibn Sino ijodi ilmiy merosi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan va ular asosida “O‘rta Osiyo xududida mavjud bo‘lgan yozuv”, “O‘rta Osiyo Davlat universiteti kutubxonasidagi fors, arab va turk qo‘lyozmalar bayoni”, “O‘zbek mumtoz musiqasi tarixiga doir” asarlarini yozgan. Nodir ilmiy asar hisoblangan “Turkiston to‘plami”ning 48 tomligini tuzishda ham bu olimning xizmati beqiyosdir.<sup>22</sup>

Darhaqiqat, Turkiston xalqlari tarixini o‘rganishda rus muarrixlari tomonidan yaratilgan “Turkestanskiy sbornik”-“Turkiston to‘plami” katta ahamiyat kasb etadi. To‘plam mustamlaka Turkiston tarixining o‘ziga xos yilnomasidir. To‘plam o‘zida gazeta, jurnal maqolalarini, xabarlarini, shohidlarning esdaliklarini, mustamlakachi ma’muriyatning rasmiy xujjatlari va materiallarini mahalliy, milliy jamoat tashkilotlari, muassasalari haqidagi materiallarni jamlagan. “Turkestanskiy sbornik” 549 jilddan iborat.<sup>23</sup> Unda

---

<sup>20</sup> Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи. Тошкент, Фан. 1996. Б. 121; Шамсутдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи. Андижон. 2011. Б. 158-159.

<sup>21</sup> Хидоятлов Г.А., Костетский В.А. Ўзбекистон тарихи (XIX аср иккинчи ярми XX аср бошлари). Тошкент. “Ўзбекистон”, 2006. Б.143-144.

<sup>22</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 142.

<sup>23</sup> Шамсутдинов Р., Мамажонов А., Матбобоев Б., Бозоров Қ., Жумабоев И. Қўхна ванақирон Андижон. Тошкент, Шарқ. 2010. Б. 43.

mustamlaka Turkiston tarixi, iqtisodiyoti, botanikasi, arxeologiyasi, biologiyasi, turmush madaniyati haqidagi katta miqdordagi materiallar jamlangan.

To'plamda shuningdek, yurtimizga tashrif buyurgan rus savdogarlari, sayyohlari, elchilari shuningdek yurtimiz tarixi bilan shug'ullangan sharqshunos olimlarning asarlari, esdaliklari va maqolalari ham o'rin olgan. Ularda yurtimizning u yoki bu davrdagi tarixi, yurtimiz sarhadlarida xukmronlik qilgan sulolalar, yurtimizga bostirib kirgan ajnabiy bosqinchilar ularga qarshi kurashgan xalqimiz tarixi keng bayon etiladi.

Xullas, O'rta Osiyo tarixi jumladan Xiva va Qo'qon xonliklari tarixini o'rganishda Rossiyalik muarrixlarning asarlari, elchi va sayyohlarning esdalik va kundaliklari ham Vatanimiz tarixini o'rganishda qimmatli manbalar sirasiga kiradi.

## **II Bob. Xiva hamda Qo`qon xonliklari tarixiga doir Rossiyalik sayyoh va elchilarining esdaliklari.**

### **2.1. Xiva xonliklari tarixiga doir sayyoh va elchilarining esdaliklari.**

XVIII asrning ikkinchi yarmidan Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalari ancha rivojlandi. Biroq XIX asrning birinchi choragidan boshlab Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tobora keskinlasha boshladi.

XIX asrning 30-40 yillarida Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib ketdi, 1836 yilda esa aloqa uzilib qoldi.

1836 yil 3 avgustda Xiva xoni Orenburg-Buxoro yo'lida Buxoro amirligi bilan Rossiya o'rtasida qatnaydigan karvonlarning yo'lini to'sib qo'yishga harakat qildi. Bunga javoban Osiyo komiteti qaror chiqardi; shu qaror asosida Orenburg va Sibir yo'llarida, shuningdek, Astraxanda Xiva savdo karvonlarini vaqtincha tutib

qolinib, ularning mollari savdo omborlariga topshiriladigan bo'ldi. Shu tariqa 372 Xivalik savdogar Rossiya yerlarida vaqtincha ushlab qolindi.<sup>24</sup>

Rus davlati bu tadbir bilan Xiva xonligining siyosatiga ta'sir qilish, uning keyingi vaqtlarda Rossiyaga nisbatan tutgan siyosatini o'zgartirish, rus savdo karvonlarining Xivaliklar tomonidan talanishi natijasida yetkazilgan zararni to'latish, Xivadagi rus asirlarini Rossiyada vaqtincha ushlab qolingan Xivalik savdogarlarga almashtirish, xonning dushmanlik xatti-harakatlarini to'xtatish yo'li bilan Rossi-Xiva xonligi munosabatlarini yaxshilashni ko'zda tutgan edi.

1839-1840 yillarda Xivaga yuborilgan general Perovski boshliq harbiy ekspeditsiyasi natijasiz tugadi. Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasida uzilib qolgan iqtisodiy va diplomatik munosabatlar 1840 yilda tiklandi. Rossiya endi xonlikni ochiq bosib olish harakati natija bermagach, o'zaro diplomatik yo'l bilan xonlikni to'liq o'rganmoqchi bo'ldi. 1840 yil 23 sentyabrda Olloqulixon Otaniyozxo'ja mufti boshchiligidagi diplomatik elchilarni alohida yorliq va sovg'alar bilan Orenburgga jo'natdi. U Rossiya bilan iqtisodiy va diplomatik aloqalarni tiklashga, rus davlatining hamma talablarini bajarishga tayyor ekanligini bildirdi. Xiva xoni tez orada Xivadagi rus asirlarini ozod qilish haqida farmon chiqardi.<sup>25</sup>

Podsho hukumatining Orenburgdagi xodimlari, general Perovski Xiva xonligi elchilarini yaxshi qabul qilishdi. Olloqulixonning rus asirlarini bo'shatish, Rossiya bilan iqtisodiy va diplomatik munosabatlarini tiklash yo'lidagi xatti-harakatlarini qo'llashdi. 1836 yilda Rossiya yerlarida ushlab qolingan Xivalik savdogarlar ozod qilindi va ularning mollari o'zlariga qaytarib berildi.<sup>26</sup>

1841 yilda Olloqulixon Eshniyoz Muhammad Niyoz boshchiligidagi elchilarini Rossiyaga jo'natdi. Ular 1841 yil 13 mayda Orenburg shahriga etib bordilar. Xon tomonidan rus podshosi nomiga yozilgan yorliqda inglizlarning sharq mamlakatlariga bosqinchilik harakatlarining kuchayib borayotganligi qayd

---

<sup>24</sup> Зиёев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь XVI-XIX асрлар. Т., 1968., Б.102.

<sup>25</sup> Халфин Н. А. Россия и ханства Средней Азии. М., 1974., стр – 74.

<sup>26</sup> Халфин Н. А. Россия и ханства Средней Азии. М., 1974., стр – 77

etildi. Inglizlarning Hirotni, soʻngra Marini bosib olishga zoʻr tayyorgarlik koʻrayotganliklari Xivani ham xavfga solib qoʻygan edi.

Olloqulixon bu xavf-xatardan qutilish uchun xonlikdagi ingliz josuslarini haydash choralarini koʻrishi bilan birga, inglizlar Xivaga hujum qilgan taqdirda Rossiyadan madad olish niyatida rus davlatiga elchilar yuborgan edi.

Xon yorligʻining ikkinchi qismida har ikkala davlat oʻrtasidagi savdo karvonlarining qatnovini kuchaytira borish choralarini belgilash va savdogarlardan bir xil miqdorda boj olish zarurligi koʻrsatilgan edi.

Shunday qilib, 1841 yildagi Xiva elchilarining asosiy maqsadi Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan boʻlib, bu sohada muhim qarorga kelingan edi. Xiva xonligining 1840-1841 yillardagi elchilariga javoban rus davlati ham Xivaga oʻz elchilarini yuborishga tayyorgarlik koʻrdi. Rus xukumati va xukmron doiralari ham har ikki tamon oʻrtasidagi munosabatlarni qayta tiklashdan manfaatdor edi.

1841 yilda Rossiyadan Xiva xonligiga kapitan Nikifirov va poruchik Aitov boshchiligida ikki topograf, urallik 12 kazakdan iborat elchilar yuborilgan edi.<sup>27</sup> Ular rus savdogarlariga Xiva xonligining hamma shahar va qishloqlarida erkin savdo qilish xuquqini berish, ularning mollari dahlsizligini taʼminlash, rus savdogarlari va ularning gumashtalari tomonidan keltirilgan mollardan faqat bir marta (kelgan vaqtda) boj olish, bu mollarning narxini rus amaldorlari ishtirokida belgilash: Xivaliklar tomonidan karvonlarning oʻzboshimchalik bilan ushlab qolinishiga va Sirdaryo boʻyidagi qoʻrgʻonlarning buzilishiga yoʻl qoʻymaslik, Osiyodan Rossiyaga boradigan karvonlarga toʻsquinlik qilinishiga barham berish, Xiva xonligida, Eron va Turkiyadagi kabi, rus karvonlaridan 3-5 protsent boj olish, xonlikdagi qullikni tugatish, rus asirlarini ozod qilib oʻz Vataniga qaytarish, Rossiya fuqorosi boʻlgan koʻchmanchi urugʻlarga oʻchakishmaslik kabi har ikkala davlat uchun ahamiyatli boʻlgan masalalarni hal etishlari kerak edi. Elchilar avgust

---

<sup>27</sup> Муҳаммаджонов А. Р. , Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.Т., «Фан» 1957., Б.104.

oyi boshida Xivaga etib keldilar. Olloqulixon 11-13 avgustda elchilar bilan suhbat o'tkazdi. Lekin Nikiforovning xon va saroy xodimlari borilgan suhbatlar paytida qo'pollik ko'rsatishi, xon va uning vazirlariga do'q-po'pisa qilishi, qonunga xilof ravishda suratga olish hodisalari Xonda norozilik o'yg'otdi. Olloqulixon tezlik bilan oliy kengash yig'ilishini chaqirdi. Oliy kengash Nikiforov tomonidan o'rta tashlangan masalalarga hech qanday javob bermasdan, Rossiyadan yangi elchilar yuborishni iltimos qilish haqida qaror qabul qildi.<sup>28</sup>

Olloqulixon odatdagicha katta sovg'alar, 200 tilla, to'n va otlar, yo'l xarajati uchun 14 ming so'm qag'oz pul berib elchilarni kuzatdi.

Shunday qilib, Nikiforov boshliq elchilar xonning yangi elchilari bilan birga qaytib ketishga majbur bo'ldilar. 1841 yil 27 oktyabrda Olloqulixon Niyoz Eshboy boshchiligida 16 kishidan iborat elchilarni Rosiyaga jo'natdi. Ular 1842 yil, 10 martda Peterburga etib bordilar. Elchilarni Nikolay I qabul qildi. Xivaga yangi elchilar yuborishga qaror qilindi.<sup>29</sup>

Xiva elchilari 1842 yilning mayida Peterburgdan Orenburgga kelib, bu erda Xivaga boradigan rus elchilari bilan birga safarga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Orenburg general gubernatori Obruchev podpolkovnik Danilevskiy boshchiligida elchilar tarkibini belgiladi. Ikki ofitser-topograf, aka-uka Zeleninlar, 25 qozoq, ularga qo'shilgan savdogarlar va xon vakillari bilan birga 1842 yil 1 avgustda Xivaga qarab yo'l oldilar. 17 sentyabrda xonning nufuzli kishilari 300 askar bilan birga elchilarni Xiva chegarasida kutib oldilar. 19 oktyabrda elchilar Xivaga etib bordilar.<sup>30</sup>

Olloqulixon betoblighi sababli Xiva xonligi Rossiya akti-loyihasini oliy kengashning noyabr – dekabr oylaridagi yig'ilishlarida muhokoma qilishda bevosita qatnasha olindi. Uning ukasi Muhammad Rahimquli va vazirlar rus elchilari bilan muzokaralar olib bordilar. Muzokaralar davomida Rahimquli Eron

---

<sup>28</sup> Садиков А. С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. Т., 1972. стр 71-72

<sup>29</sup> Садиков А. С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. Т., 1972. стр 73-74

<sup>30</sup> Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь XVI-XIX асрлар. Т., 1968., 104 бет.

asirlarini ozod qilish va Xivada rus konsulligini tashkil etish to'g'risidagi takliflarni rad qildi. 1842 yil 25 dekabrda Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi akt loyihasi ikki nusxada, rus va o'zbek tillarida tayyor bo'ldi. Bu akt 27 dekabrda oliy kengash yig'ilishida xon va rus davlatining vakili podpolkovnik Danilevskiy tomonidan imzolandi. Aktda xon tomonidan olingan majburiyatlar to'qqiz moddadan, rus davlati zimmasiga olgan majburiyatlar to'rt moddadan iborat qilib belgilandi.<sup>31</sup>

Bundan keyin Rossiyaga qarshi hech qanday oshkora va maxfiy harakat qilmaslik, Kaspiy dengizida va cho'llarda ruslarni asir olishga va talashga yo'l qo'ymaslik, agar Xiva xonligi qo'l ostidagi urug'lar tomonidan bunday xollar ro'y bersa, darhol aybdorlarni ushlab javobgarlikka tortish va talab olingan mollarni egalari qaytarish, rus asirlarini ozod etish, Rossiya fuqarolarining shaxsiy hayotini va ularning mulklarini himoya qilish, vafot etgan rossiyalik fuqarolarning molu-mulkini o'z merosxo'rlariga topshirish uchun chegara komissiyasining boshlig'iga eltib berish, Rossiyadan qochib keluvchilar va qo'zg'olonchilarning Xiva xonligidan boshpana topishlariga yo'l qo'ymaslik, shunday hollar ro'y bergan taqdirda ularni darhol ushlab olib chegara boshlig'iga topshirish, turli mollar bilan Xivaga keladigan rus savdogarlaridan yilda bir marta mol narxi hisobidan 5 foiz boj olish, Rossiya savdogarlariga qarashli mol bilan Sirdaryo orqali Buxoroga yoki Osiyodagi boshqa davlatlarga o'tadigan karvonlardan soliq olmaslik, Osiyo mamlakatlarining Rossiya bilan savdo munosabatlariga sira to'sqinlik qilmasdan, faqat qonuniy bojni olish va Rossiya imperiyasi bilan barcha masalalarda hamma vaqt qo'shnichilik asosida do'stona munosabatda bo'lish moddalari xon majburiyatida qayd etildi.

Xiva qaroqchilari tomonidan talangan karvonlar mollarning qiymatini to'latish haqidagi da'vodan voz kechish, Xiva hokimlari tomonidan shu davrgacha qilingan g'ayri qonuniy qarshilik xarakatlarini yoddan chiqarish, Rossiyaga

---

<sup>31</sup> Садиқов А. С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. Т., 1972. стр 75

boruvchi xivalik fuqarolarning qonuniy to'la xuquqqa ega bo'lishlarini va ularning xavfsizligini ta'minlash, Xiva savdogarlarini Rossiya yerlariga keladigan boshqa osiyolik savdogarlarga berilgan huquq va imtiyozlardan foydalandirish majburiyatini rus davlati o'z zimmasiga oldi.

Bu sulh shartnomasi har ikkala davlat uchun iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, O'rta Osiyodagi boshqa xonliklarga namuna bo'ldi. Xiva xonligi va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning yo'lga qo'yilishi ingliz mustamlakachilariga katta zarba berdi. Biroq Rossiya hukumatining bundan keyingi rejalari xonliklarga hali qorong'u edi.

1842 yil 31 dekabrda Danilevskiy boshchiligidagi elchilar hamda oliy kengash tomonidan saylangan Muhammad Amin Avazberdi boshchiligidagi 14 kishidan iborat elchilar Rossiyaga jo'nab ketdilar va 1843 yil 13 mayda Peterburga etib bordilar. Ular yaxshi kutib olindi.<sup>32</sup> Elchilar texnologiya instituti va uning ustaxonalarini, botanika bog'ini, xalq kutubxonasi va shu kabi madaniy joylarni borib ko'rdilar.

Xiva elchilari rus davlatidan xon nomiga yozilgan yorliq va sovg'alar bilan qaytdilar. Bu yorliqda xonning Danilevskiy bilan tuzgan shartnomasi tabriklanib, uning har ikkala davlat o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi yana bir karra qayd etilgan. Danilevskiyning Xivaga diplomatik elchilar boshlig'i sifatida borib kelishi x

haqidagi hisobotini eshitgan harbiy ministrlar ham o'zlari chiqargan qarorda uning erishgan yutuqlarini alohida qayd etib, unga tashakkur bildirgan edilar.

Danilevskiy boshliq elchilar Xiva xonligi bilan shartnoma tuzish sohasida muhim ishlarni bajarish bilan birga, xonlikning ko'pgina joylarini suratga olishda, uning o'sha davrdagi iqtisodiy va siyosiy xolatini yoritishda muhim ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'ldilar. Danilevskiy ana shu ma'lumotlar asosida «Opisanie Xivinskogo xanstva» nomli qimmatli asar yozdi.

---

<sup>32</sup> Халфин Н. А. Россия и ханства Средней Азии. М., 1974., стр – 137

Bu asar XIX asr o'rtalaridagi Xiva xonligi tarixini o'rganishda eng muhim bir manbadir. 1844 yilga kelib, yo'l qaroqchilari harakatlarining kuchayishi orqasida Xiva xonligi-Rossiya aktining ba'zi moddolari buzildi. 1846 yilda xonlikdan Rossiyaga yana elchilar yuborilib, ikkala davlat o'rtasida tuzilgan shartnomalarni har tomonlama mustahkamlash uchun yangi harakat boshlandi.<sup>33</sup>

1846 yil noyabrida Xivaning yangi xoni Muhammad Amin (1845-1855) Shukurullo va Qilichboy boshchiligida 10 kishidan iborat diplomatik elchilarni Orenburgga jo'natdi. Xon 1842 yilgi Xiva xonligi Rossiya akti asosida iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni davom ettirishni ma'lum qilishi bilan birga, har ikkala davlat o'rtasidagi aloqalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslikdan, uni mustahkamlashga da'vat etdi.<sup>34</sup>

Podsho Rossiyasi Muhammad Aminxonning akasi Rahmonqulixonning Rossiyaga nisbatan tutgan siyosatini davom ettirish haqidagi istaklarini zo'r mamnuniyat bilan qayd etdi va bu siyosatning har ikkala qo'shni davlat xalqlari uchun foyda keltirishini ta'kidladilar. Biroq, keyinroq bu tuzilgan aktlar, o'zaro teng elchilik aloqalari, iqtisodiy-siyosiy kelishuvlar Rossiyaning bosqinchilik siyosati oqibatida barbod bo'ldi. Xiva xonligining Rossiya protektoratiga aylanib qolishiga olib keldi.

Mitrolit Xrisanfning esdaliklari ham O'rta Osiyo xalqlarining XVIII asrdagi tarixiga oid qimmatli manba sanaladi. Dastlab, Xrisanfning o'zi haqida qisqacha ma'lumot bersak. Xrisanf asli grek, venetsiyalik aslzoda dvoryanlardan, Afina yaqinida joylashgan Yangi Rator cherkovining mitroliti bo'lib xizmat qilgan. Haqiqiy ismi sharifi Kontarigi. 1724 yili muqaddas patriarx Samuel tomonidan Istanbul atrofida joylashgan Hiroti nisan cherkoviga mitrolit etib tayinlangan. Podshoning tazyiqi oqibatida 1784 yili Istanbulga ketib qoldi. Ko'p vaqt o'tmay, Xrisanf Livon ordeniga qarashli cherkovlar bilan tanishish maqsadida Shom-

---

<sup>33</sup> Муҳаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.Т., «Фан» 1957., 108-109 бетлар.

<sup>34</sup> Муҳаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.Т., «Фан» 1957., 111 бет.

Suriyaga, u yerdan Xalab-Alennoga bordi. O'sha yerda ingliz savdogarlari bilan tanishib qoladi va ular bilan birga Frot-Efrat daryosi orqali Fors qo'ltig'iga bordi va u yerda kemaga tushib, Maskat orqali Hindistonning Surat bandargohiga kelib tushdi. So'ng Hindiston, Kashmir, Qobul, Balx va Samarqand orqali Buxoroga keladi. Xrisanf O'rta Osiyoning bir qancha shaharlarida bo'ladi, bir yil Xivada turadi.

Xrisanf shundan so'ng 1792 yili Ashtarxonga boradi va bir fursat o'sha erda istiqomat qiladi. Keng ma'lumotli va kuzatuvchan bu odam tez orada Astraxanda ko'plarning diqqatini o'ziga tortadi. Astraxan episkopi u haqidagi ma'lumotni Muqaddas Sinodga axborot tarzida yuboradi. So'ng Xrisanf Moskvaga chaqirtiriladi. Muqaddas Sinod uni har taraflama tekshirib ko'rib va keng ma'lumotli odam ekaligiga ishonch xosil qilgandan keyin, Xrisanfni Kavkaz o'lkasiga, uni batafsil o'rganish uchun yuboradi.

So'ng 1796 yilning boshida, Ryazan, Taimbov va Kavkaz o'lkalarining o'sha paytdagi general-gubernatori graf Gudvich podshoxi oliy hazratlarining amri bilan Xrisanfni Peterburgga, Nevskiy monastriga metrolit Gavrix huzuriga jo'natib yuboradi.

Mitrolit Xrisanfning birdan poytaxtga chaqirilishi uni yaxshi bilgan sharqshunos V.V.Grigorevning fikricha, Rossiyaning yaqin orada Eronga bostirib kirish rejalari bilan bog'liq bo'lsa kerak. Rus harbiy ekspeditsiyasining rahbari Valerian Zubovga sayyohning Eron va O'rta Osiyo haqidagi keng bilimi kerak bo'lib qolgan. Oradan bir yil o'tgach, 1797 yilda Xrisanf muqaddas Sinodning farmoni bilan Ekatrinoslav eparxiyasiga xizmatga jo'natildi. 1798 yilning 20 yanvarida mitrolit Xrisanf Feodosiyaga jo'nab ketdi. Uning keyingi hayoti va faoliyati haqida boshqa ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

Mitrolit Xrisanfning O'rta Osiyoga qilgan sayohati kundaligi bir paytlar rus harbiy ekspeditsiyasiga boshchilik qilgan graf Valerian Zubov qo'lida bo'lgan. Kundalik, ba'zi shahar va viloyatlar o'rtasidagi masofa, aholisining umumiy soni

haqidagi noaniqliklarni hisobga olmaganda, katta qimmatga ega. Unda xonliklarning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, xalqning turmush sharoiti, e'tiqodi haqida, shuningdek, O'rta Osiyoda istiqomat qilib turgan rus va eronlik asirlarning ahvoli haqidagi qisqa, lekin o'ta muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Xrisanfning O'rta Osiyo xonliklariga qilgan sayohati yozilgan kundaligi orqali biz ko'proq Buxoro va Xiva davlatlarida kechgan ijtimoiy jarayonlar, ikki davlat o'rtasidagi o'zaro kurash, to'qnashuvlar haqida ko'pdan-ko'p ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Shuningdek, uning kundaligi orqali xalq orasida islom dinining ta'siri, xalq orasida ulamolarning nufuzi nihoyatda kuchli ekanligi haqida ko'plab faktik materiallarni uchratish mumkin.

Kundalikda shuningdek xonliklarning o'zidagi ichki nizolar, markaziy hokimiyatning zaifligi, qo'shinning tuzilishi va qurollanishi haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Xrisanf yana O'rta Osiyo xonliklarining viloyatlari, bekliklar va noibliklar, ularga olib boriladiga yo'llar haqida ham ma'lumotlar to'plagan. Shular bois ham sayyohning kundaligi o'sha davr tarixini tadqiq qilishda, tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Xiva xonligining XVIII asr oxiridagi tarixiga doir rus manbalari orasida Blankennagel esdaliklari ham muhim o'rin tutadi.

1793-1794 yillarda Orenburgdan Xivaga oftolmolg vrach Blankennagel taklif etilgan. U xonning ko'zi ojiz bo'lib qolgan amakisini davolagan.<sup>35</sup> U yozib qoldirgan esdalik ma'lumotlar juda qimmatli edi.

Blankennagelning Xiva shahrida bir yildan ortiq vaqt turishi va xonning amakisini davolashi barobarida o'zi ko'rgan bilgan voqealarini esdalik sifatida yozib borgan. U o'z esdaliklarida Xiva xonligidagi saroy mulozimlari, ularning vazifalari, uyushtiriladigan ziyofatlar, elchilarni qabul qilish marosimlari, ov va ishkorlar haqida to'xtalib o'tgan. Blankennagel yana o'z xotiranomasida Xiva

---

<sup>35</sup> Усмонов Қ., Жўраев У., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи. Тошкент. Ўқитувчи, 2006. –Б.107-108.

xonligining xududi, yirik shaharlari, xalqi va uning mashgʻuloti, xalqning feʼl-atvori, tabiati va qiyofasi haqida qimmatli maʼlumotlar keltiradi.

Blankennagel oʻz esdaliklarida Xivadagi davlat lavozimlaridan inoq, qushbegi, mehtar, devonbegi, shayhulislom, qozikalon, eshoni rais, mirzaboshi, mirshab, maxram, katta beklar (viloyat va katta shaharlar xokimlari), kichik beklar va xon maslahatchilari kabi turli lavozimlarga alohida toʻxtalib oʻtadi.

Nikolay Muravev (1794-1866) maxalliy xarbiy mutaxassis, 1812-1814 yillari Rossiyaning Eron va Turkiyaga qarshi olib borgan urushlarida ishtirok etgan, 1816-1828 yillari Kavkaz armiyasida xizmat qilgan. 1819-1820 yillari rus armiyasining Kavkazdagi bosh qoʻmondoni general Yermolovning topshirigʻi bilan Boku-Kaspiy dengizi-Chelekan oroli-Qoraqum orqali Xivaga borgan.

Nikolay Muravev kuzatuvchan odam boʻlgan. Mazkur safari haqida yozib qoldirgan asarida (“Puteshestvie v Turkmeniyu i Xivu gvardeyskogo generalnogo shtaba kapitana Nikolaya Muravyova” CH.1-11;M., 1822) Xiva xonligi haqida muxim harbiy, iqtisodiy, tarixiy va etnografik maʼlumotlar toʻplagan.

Asarda Xiva xonligining xududi, yirik shaharlari, xalqi va uning mashgʻuloti va mudofaa saloxiyati (harbiy qudrati) haqida diqqatga sazavor maʼlumotlar keltiriladi. Jumladan, u oʻz asarida Muhammad Raximxon I ning oʻzbeklar va turkmanlardan tuzilgan qoʻshinga tayanib yirik zadagonlar qarshiligini sindirish uchun shiddatli kurash olib borgan, bu kurashda oʻz raqiblarini birin-ketin boʻysindirgani haqida qimmatli maʼlumotlar beradi.

Muhammad Raximxon I boʻysindirilgan qabilalar zadogonlarining qabila orasidagi mavqeyi nihoyatda qudratli boʻlganligini hisobga olib, ularga u yer-mulk va turli imtiyozlar inom etgan. Bu omil xonlikda siyosiy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qilishi kerak edi.

Muhammad Raximxon I davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirildi. Ayni paytda mamlakatda nisbiy barqarorlik ta'minlandi. Uning xududlari yanada kengaydi. Buni elchi o'z asarida atroflicha yozib boradi.

Nikolay Muravevning esdaliklarida o'zbeklarning fe'l-atvori, tabiati va qiyofasi haqida ham e'tiborga loyiq ma'lumotlar keltirilgan. Unda, shunday ma'lumotlar keltiriladi: "Ozbeklar, umuman aqlli va yoqimli, hazil-mutoyibani yaxshi ko'radigan, biron ishga jazm qilgudek bo'lsa, qarorida qa'tiy, to'g'ri so'z, yolg'onni va egrilikni yomon ko'radigan, ruhi tetik, xushbichim va jismonan kuchli xalq....

Xarbiy ishlarida horib-charchamaydilar, qo'rqmas va jasur kishilardir..."<sup>36</sup> deb ta'rif beradi.

N.I. Muravyov o'z xotiralarida yana Xiva xonligining qadimiy obidalarini, davlat boshqaruv tizimi, hunarmandchilik va savdo-sotiq aloqalari to'g'risida ham batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Shuning uchun ham bu esdaliklar kitobi fransuz va nemis tillariga ham tarjima qilingan edi. Muallif o'z asarida Xiva xonligining poytaxtini shunday tasvirlaydi: "Xiva shahri keng maydonda bog'-rog'lar bilan o'ralgan. Atrofi esa devor bilan o'ralgan hamda Amudaryodan suv quvuri o'tkazilgan. Xiva axolisi o'zining mashaqqatli mehnati bilan cho'li biyoboni xosildor o'lkaga aylantirgan. Atrof hammasi ekinzor maydon. Bug'doyzor, sholipoya, uzumzor va shirin-shakar bog'lar tashkillangan. Chorvachilik ham rivojlangan."<sup>37</sup>

Keltirilgan faktik ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki elchi Nikolay Muravyov esdaliklari Xiva xonligining XIX asr boshlaridagi tarixini o'rganishda muhim manba sanaladi.

N.I. Muravyov elchiligiga biz yuqorida qayd etib o'tganimizdek Rossiya hukumati quyidagi vazifalarni yuklagan edi: Turkmanlar yerini, Xiva xonligining

---

<sup>36</sup> Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв. (Писменные памятники). – Тошкент: Фан, 1985. –С.183.

<sup>37</sup> Тарихий манбашунослик. Тузувчилар: Мадраимов А., Фузайлова Г. Тошкент. Фан, 2006. –Б. 108.

turkmanlar bilan munosabatini hamda savdo yo‘li ochilishi (Xiva-Turkmanlar yeri – Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘i Boku-Astraxan) istiqbollarini o‘rganish edi.

Shu boisdan ham biz yuqorida qayd etganimizdek ekspeditsiya dastlab turkmanlarning yovmut qabilasi joylashgan xududda bo‘ladi. Yovmutlarning Rossiya fuqaroligiga o‘tish istaklarini o‘rgandi. SHundan so‘nggina Xiva xonligida bo‘ldi. Ular Xiva xoni Muhammad Raximxon I qabuliga kirishga ham muvofiq bo‘ladi. Biroq, Xiva xoni savdo yo‘lining o‘zlashtirilishiga rozi bo‘lmaydi va O‘rta Osiyoning boshqa xonliklari bilan munosabatlarida Rossiya harbiy yordamiga tayanish mumkinligi haqidagi taklifni ham rad etadi.<sup>38</sup>

Chunki Muhammad Rahimxon Rossiyaning yovmut qabilasini o‘z fuqaroligiga qabul qilish istagi tagida aslida qanday maqsad yotishini anglab yetgan edi. Bundan tashqari, Rossiya hukumatining savdo karvonlarining xavfsizligini ta‘minlash bahonasida chegarada mustahkam istehkomlar qurish haqidagi rejalari Xiva hukmron doiralarini cho‘chitib ham qo‘ygan edi.

Dmitriy Gladishev va Ivan Muravinlarning Xiva xonligi haqidagi xotiralari ham xonlik tarixini o‘rganishga doir muhim manbalar sirasiga kiradi.

Sirdaryoning quyi oqimidagi shahar va qishloqlar, Orol dengizining xolatini o‘rganish uchun 1740 yili Rossiya davlat arbobi va tarixchi olim V.N.Tatishchevning tashabbusi bilan Xivaga poruchik D. Gladishev va kontradmiral, yer o‘lchovchi I. Muravinlar yuborilgan.<sup>39</sup>

Orskda olgan ko‘rsatmaga binoan, ular 1717 yili Pyotr I zamonida Rossiya tobeligiga o‘tgan Kichik Juz xoni Abulxayrxon (1645-1748 yy) bilan uchrashishi zarur edi. Lekin, bu paytda Abulxay Orolida edi.<sup>40</sup> Mamlakatni esa Eron podshosi Nodirshoh bosib olgan edi. Shuning uchun Gladishev bilan Muravin Abulxayrxonning inisi Nurali va tog‘asi Niyoz bilan birga Orolga jo‘nab ketdilar

---

<sup>38</sup> Усмонов Қ., Жўраев У., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи. (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми) Тошкент. Ўқитувчи, 2006. –Б.96.

<sup>39</sup> Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари (2003 йил 25 апрель) Тошкент. Университет. 2003. Б.135.

<sup>40</sup> О‘sha asarda. Б. 136.

va xon huzuriga etib bordilar. Ertasi kuni Xivaga bordilar. O'sha vaqtda Abulxayr xon deb e'lon qilingan edi. Gladishev bilan Muravin Shavotda 9 noyabr kuni Nodirshox huzurida bo'lganlar va unga Abulxayrxon bilan Xiva Rossiyaning tabaqalari ekanligini aytib, Xivaga mehru shavqat qilinishini so'raganlar. Zobitlarning so'zlariga qaraganda, ularning iltimoslari ijobat topgan. Lekin, ular Abulxayrxon bilan uchrasha olmaganlar. Shunday bo'lsa-da, Abulxayr shohdan cho'chib 12 noyabrda rus zobitlari bilan birga Orolga qochib ketdi. Bu erda ko'p tortushuvlardan keyin Nurali xon deb e'lon qilindi. Abulxayr Gladishev bilan Muravinni olib, Odam ota arig'i bo'yidagi eski o'rdasiga qaytdi. Gladishev va Muravin 1741 yilning aprel oyida u yerdan Orskka qaytib keldilar. Ularning mazkur sayohati paytida to'plagan ma'lumotlari "Gladishev-Muravin. Poezdki iz Orskka v Gladishev va Muravin to'plagan ma'lumotlarning ahamiyati shundaki, ularda Orol dengizining sohillari, Xorazmning Xiva, Shoxtemir, Xo'jayli, Xonqa va Shavot shaxarlari haqida, shuningdek, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va turkman aholisi haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu elchilar bergan ma'lumotlar ichida yana Eron shohi Nodirshohning 1740 yili Buxoro va Xiva xonliklarini bosib olishi, bu davlatlarning vaqtincha Eronga qaram bo'lishi haqidagi faktlar ham biz tarixchilar uchun muhimdir. Elchilar Nodirshohning 1740 yil Xivaga o'z odamini xokim etib tayinlab, Eronga qaytishi, Xivada Eron boshqaruv tizimining o'rnatilishi haqida ma'lumot beradi. Aholiga "moli omon" solig'i solinadi. Ana shundan so'ng Xiva xonligida porakandalik boshlandi deb yozadilar.

Rossiya hukumati uchun Orol dengizining iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyati katta edi. Shuning uchun ham Orol flotiliyasining boshlig'i kontr-admiral A.I. Butakov (1816-1869 yy) ga 1848 yili Orol o'rganish va uni tavsiflash vazifasi yuklatiladi.

A.I. Butakovning kuzatishlari uning "Kundaliklari"da (to'la nomi "Древные записки плаvaniya po Aralskomu moryu v 1848-1849 gg", podgotovka k pechatu E.K. Betgera. –Toshkent, 1953) bayon etilgan. Uning yozishicha, "Orol dengizi

tinch dengizlardan bo‘lmay, ayniqsa shamol turgan paytda panox topish qiyin”. “Uning G‘arbiy sohilini suratga tushirishni Qumsuat qo‘ltig‘idan boshladik. Qumsuatdan boshlab menga dengiz chuqurlasha boshlagandek tuyuldi...”<sup>41</sup>

Butakov o‘shanda Orol dengizini va uni bandargoh qurish mumkin bo‘lgan yerlarini qarichma-qarich o‘lchab chiqdi. Umuman, kontr-admiral Butakovning kuzatishlari, Rossiya xukumatiga kelajakda dengizda harbiy va savdo floti qurish mumkinligini ko‘rsatdi. Bu reja podsho Rossiyasiga Sirdaryo va Amudaryoda ham kemalar qatnovini yo‘lga qo‘yishga va bu bilan Qoshg‘ar va Hindistonga suv yo‘lini ochib berish imkonini berar edi.

Xiva-Rossiya munosabatlarida muhim jihat shunda edi-ki, o‘zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdor edi.

Xiva savdogarlari uchun Rossiyaga boradigan savdo yo‘llari xavfsiz edi. Shuningdek, Xiva xonligida Rossiya zavod va fabrikalarida ishlab chiqariladigan tovar, tayyor iste’mol mollariga ehtiyoj baland edi. Ayni paytda Rossiya Xiva xonligiga o‘z tovarlarini sotadigan bozor deb qarardi. Rossiya tovarlari Evropaning ilg‘or davlatlarida ishlab chiqarilayotgan tayyor iste’mol tovarlariga raqobat qila olmayotgan bir davrda bu juda muxim edi. Ikkinchidan, Xiva xonligi, Rossiya sanoati uchun zarur homashyo mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib beruvchi o‘lka ham hisoblanardi.

Biroq har ikki davlat o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarining qaror topishiga to‘sqinlik qilgan omillar ham mavjud bo‘lgan. Bular: savdo karvonlariga xujum qilish xavfini mavjudligi, har ikki taraf tomonidan Kichik juz qozoqlarini va qaroqalpoqlarni o‘z fuqarolari deb hisoblashardi; shuningdek, har ikki tomonning o‘zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasida uzoq vaqt bir to‘htamga kela olmaganliklari bilan bog‘liq edi.

---

<sup>41</sup> Древние записки плавания по Аральскому морю в 1848-1849 гг –Ташкент, 1953. –С. 13-14.

1841 yilda Rossiyadan Xiva xonligiga kapitan Nikifirov va poruchik Aitov boshchiligida ikki topograf, urallik 12 kazakdan iborat elchilar guruhi kelgan. Elchilik missiyasi oldiga quyidagi vazifalar yuklangandi:

Xiva xonligidan rus savdogarlariga Xivaning hamma shahar va qishloqlarida erkin savdo qilish huquqini berish, ularning mollari dahlsizligini ta'minlash, rus savdogarlari va ularning gumashtalari tomonidan keltirilgan mollardan faqat bir marta (kelgan vaqtda) boj olish, bu mollarning narxini rus amaldorlari ishtirokida belgilash: xivaliklar tomonidan karvonlarning o'zboshimchalik bilan ushlab qolinishiga va Sirdaryo bo'yidagi qo'rg'onlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, Osiyodan Rossiyaga boradigan karvonlarga to'sqinlik qilinishiga barham berish, Xiva xonligida, Eron va Turkiyadagi kabi, rus karvonlaridan 3-5 foiz boj olish, xonlikdagi rus asirlarini qul qilishni tugatish, rus asirlarini ozod qilib o'z vataniga qaytarish, Rossiya fuqarosi bo'lgan ko'chmanchi urug'larga o'chakishmaslik kabi masalalarni hal etishlari kerak edi.<sup>42</sup>

Elchilar 1841 yil avgust oyi boshlarida Xivaga etib keladilar. Xiva xoni Olloqulixon 11-13 avgustda elchilar bilan suhbat o'tkazadi. Biroq Nikiforovning xon va saroy xodimlari bilan olib borilgan suhbatlar paytida qo'pollik ko'rsatishi, xon va uning vazirlariga do'q-po'pisa qilishi, qonunga hilof ravishda suratga olish hodisalari xonda norozilik uyg'otdi.

Olloqulixon tezlik bilan oliy kengash yig'ilishini chaqiradi. Oliy kengash Nikiforov tomonidan o'rta tashlangan masalalarga hech qanday javob bermasdan, Rossiyadan yangi elchilar yuborishni so'rash haqida qaror qabul qiladi.

Shundan so'ng Rossiya hukumati Xiva xonligi bilan munosabatlariga aniqlik kiritish maqsadida G. Danilevskiy boshchiligida elchilik missiyasini yuboradi.

Elchilar 1842 yili noyabr oyida Xiva xonligiga etib keladilar. Ular Xiva xoni Olloqulixon bilan muzokoralarni boshlab yuboradilar. Elchilik missiyasiga

---

<sup>42</sup> Шарипов У.А. Хива хонлиги тарихи (1511-1920 йй). Урганч, 2009. –Б.94.

asosan Xiva-Rossiya munosabatlariga oydinlik kiritish, savdo karvonlarining hamda qozoq qabilalarining talanishiga yo‘l qo‘ymaslik, rus asirlarini ozod qilish, Rossiya fuqarolarining shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta‘minlashni Xiva xonligi ma‘muriyatga yuklash masalalari qo‘yilgan edi.<sup>43</sup>

Muzokoralar davom etayotgan kunlarda Olloqulixon vafot etadi. Taxtni uning o‘g‘li Muhammad Rahimqulixon egallaydi. Muzokaralar yakunida 1842 yilning 27 dekabrda Xiva-Rossiya o‘rtasida “Majburiyatlar akti” deb ataluvchi shartnoma imzolandi.

Aktda Xiva xonligining Rossiya bilan tinchlik, mustahkam do‘stlik munosabatlarida bo‘lishi e‘lon qilindi. Bundan tashqari, Aktda Xiva xoniga: Xivaning Rossiyaga nisbatan dushmanlik harakatlaridan voz kechishi, savdo karvonlarining hamda qozoq qabilalarining talanishiga yo‘l qo‘ymaslik, rus asirlarini saqlamaslik, Rossiya fuqarolarining shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta‘minlash kabi majburiyatlar yuklandi.

Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalariga ham katta e‘tibor berildi. Chunonchi, boj to‘lovlari Rossiya tovarlari qiymatining 5% miqdorida oshmasligi belgilab qo‘yildi.<sup>44</sup> Biroq, “Majburiyatlar akti” qog‘ozda qolib ketdi. O‘zaro munosabatlar keskinlashib bordi. Rossiya hukmron doiralarining maqsadi butunlay boshqa edi. Ular asosan xonlikni bosib olib, o‘ziga qaram bir o‘lkaga aylantirishni rejalashtirgan edi.

Danilevskiy boshliq elchilar Xiva xonligi bilan shartnoma tuzish sohasida muhim ishlarni bajarish bilan birga xonlikning ko‘pgina joylarini surat oladi. Uning o‘sha davrdagi iqtisodiy va siyosiy ahvolini yoritishda muhim ma‘lumotlar to‘plashga muvaffaq bo‘ladi. Shular asosida G.I.Danilevskiy “Opisanie Xivinskogo xanstva (ZIR BGO. Kn V. 1851)” deb nomlangan asar yozadi. Bu

---

<sup>43</sup> Неъматов Т. Хива ва Россия муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг 20-50 йиллари). Тошкент. 1959. – Б.79.

<sup>44</sup> Неъматов Т. Хива ва Россия муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг 20-50 йиллари). Тошкент. 1959. – Б.89.

kitob XIX asr o'rtalaridagi Xiva xonligi tarixini o'rganishda eng muhim manbalardan biridir.

1842 yilda Xiva Rossiya o'rtasida "Majburiyatlar akti" shartnomasining imzolanishiga erishgan elchi G.I.Danilevskiy yana o'zi bilan Xivaga kelgan tabiatshunos olim R. Baziner bilan birgalikda "Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdo-sotig'i va sanoati" nomli asar ham yozib qoldirganlar.

Esdaliklarda qayd etilishicha "...Xonlik poytaxti Xiva shahrida 4 ming axoli yashagan. Aholining katta qismi o'zbeklardan iborat bo'lgan. Undan keyingi o'rinlarni turkmanlar, qoraqalpoqlar va qozoqlar egallashgan. O'zbeklar, asosan, qo'ng'iro't, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq kabi qabilalariga mansub bo'lgan.

Ularning har biri, asosan, o'zlariga ajratilgan yerlarda joylashgan. Har biri alohida-alohida kanallarga ega bo'lishgan. Har bir qabila o'zlariga qarashli sug'orish inshootlarini tiklash va ta'mirlash ishlariga qatnashgan. Har bir qabilaning kanali ham shu qabila nomi bilan atalgan,"<sup>45</sup> deb ma'lumot beriladi.

Ushbu esdalik ham Xiva xonligi hayotini eslatishga va tadqiq etishga doir qimmatli manbalar sirasiga kiradi. Esdalikda xonlikdagi davlat boshqaruviga doir ham qimmatli ma'lumot beriladi. Unda qayd etilishicha, xonlik mutloq monarxiya bo'lib, oliy xukmdor-xon davlat boshlig'i edi. Ma'muriy jihatdan xonlik xududi 15 ta viloyatga (Pitnak, Xozorasp, Xonqa, Urganch, Qo'shko'prik, G'azovat, Qiyot, Shoxabbos, Toshxovuz, Ambar-Manoq, Gurlan, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Chumakoy va Qo'ng'iro't) va 2 ta noiblikka (Beshariq va Qiyot-Qo'ng'iro't), shuningdek, xonning bevosita o'ziga bo'ysindirilgan tumanlarga bo'lingan edi<sup>46</sup>, deb yoziladi.

---

<sup>45</sup> Хоразм тарихи. 1-жилд. Муаллифлар жамоаси. Маъсул мухаррир. М.Матниёзов. –Урганч.1997.-Б.171.

<sup>46</sup> O'sha asarda.

1858 yilda Xiva va Buxoroga yuborilgan diplomatik misiya rahbari N. Ignatev yozib qoldirgan esdaliklar ham Xiva tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Taniqli sharqshunos olim N. Vasilevskiyning "O'zbeklar Xorazmda", "Inoqlar hukmronligi" va "Qo'ng'irotlar sulolasi" asarlari Xiva xonligining XVI asr va undan keyingi asrlar tarixiga bag'ishlangan.

Bundan tashqari, Xiva bilan Rossiyaning XVIII-XIX asrlardagi o'zaro aloqalari yana bir sharqshunos olim S. Jukovskiyning "Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi" asarida o'z ifodasini topgan. Ushbu asarlar orqali biz xonlikning aholisi, shaharlari, davlat tuzumi va boshqaruv tizimi, yer egaligi, soliq va majburiyatlari, shaharlar hayotining umumiy manzarasi, hunarmandchilik, qo'shinning tuzilishi, umuman olganda xonlikning ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin.

Xullas, ko'rinib turibdiki, biz yuqorida qayd etgan rus sayyoh, savdogar va elchilarining Xiva xonligi tarixi, etnografiyasi, aholining turish-turmushi, qo'shini, davlat lavozimlari, boshqaruv shakliga oid yozib qoldirgan esdalik hamda asarlari o'sha davr tarixini o'rganishda birlamchi manbalar hisoblanadi. Ushbu esdalik va asarlar xonlik tarixini to'ldirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

## 2.2. Rossiyalik elchi va savdogarlarning esdaliklarida Qo‘qon xonligi.

Minglar urug‘idan bo‘lgan yirik zodagon Shohruhbiy Chodak ho‘jalari yordamida Farg‘ona vodiysida Buxoro amirligidan mustaqil bo‘lgan mavqeni egallab, 1709 yilda Qo‘qon xonligiga asos soladi.

Ayrim adabiyotlarda Qo‘qon xonligining hukmdorlari mahalliy yuqori tabaqa vakillari, ruhoniylar va mashhur xo‘ja Ahror Valiy avlodlaridan deb hisoblaydilar.

O‘zbek tarixchisi Haydarbek Bobobekovning ta’kidlashicha barcha musulmon tarixchilari va ayrim rus mualliflari Qo‘qon xonlari sulolasini Oltin Beshik bilan, u orqali Bobur bilan bog‘laydilar. Oltin beshik haqidagi rivoyat shundan iboratki, 1512 yilda Bobur Samarqandda Farg‘ona orqali Qobulga qarab qochib ketadi. Qochish paytida Boburning xotinlaridan biri o‘g‘il tug‘adi. Qochoqlarni o‘rab olgan qo‘rqinch ularni yangi tug‘ilgan bolani qarovsiz tashlab ketishga majbur qiladi. Uni qimmatbaho ziynat buyumlari qo‘yilgan beshikka yotqizib, sodiq xizmatkorlaridan biriga qoldiradilar. U Boburga yangi tug‘ilgan bolaning taqdiri haqida xabar berishi kerak edi. Bu vaqtda mazkur joyda o‘zbek avlod-ajdodlaridan bir jamiyatni tashkil qilgan qirq qipchoq, qirg‘iz va ming ko‘chmanchi urug‘larining ovullari bor edi. Xuddi ana shular bolani topib oladilar, unga Oltin beshik deb nom qo‘yadlar. Bola ming urug‘i ovuliga joylashtiriladi.

Voyaga etganda xalq unga har bir urug‘dan (qirq qipchoq, qirg‘iz va ming) bittadan qizga uylanishiga imkon beradi. Ming urug‘idan bo‘lgan katta xotini unga yolg‘iz o‘g‘il tug‘ib beradi. Unga Tangriyor deb ism qo‘yadilar, boshqacha qilib Xudoyor yoki Iliq Sulton deb atay boshlaydilar.<sup>1</sup>

Qo‘qon xonlarining nasabnomalarini Oltin Beshik rivoyati bilan bog‘liqligi Niyozmuhammadning «Tarixi Shohruhiya», Mirzo Olim Mushrifning «Ansabu salovatin va tavorixul havoqin», Muhammad Solih Toshkandiyning «Tarixi jadidai Toshkand», Fozilbek Otabek o‘g‘lining «Mukammali tarixi Farg‘ona», V. Nalivkinning XIX asr 80-yillari o‘rtalarida Qozonda chop etilgan «Qo‘qon

---

<sup>1</sup> Бобобеков Хайдарбек. Қўқон тарихи. «Фан», Тошкент. 1996, Б. 20-21.

xonligining qisqacha tarixi» («Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva»), Ibratning «Farg‘ona tarixi», Mulla Aminbek Xudoyorxon o‘g‘lining «Turkiston viloyatining gazeti»da 1894 yil sonlarida o‘zbek va rus tillarida e‘lon qilingan «Farg‘ona viloyati xonlarining hususidagi voqealar» nomli asarlarida, adabiyotshunos, professor Sharif Yusupovning maqolalarida<sup>47</sup> va boshqa ko‘plab manbalarda o‘z ifodasini topgan. Prof. Sharif Yusupov Qo‘qon xonlari nasabnomasi tuziladigan bo‘lsa, ularning beistisno hammasi, jumladan, so‘nggi xon Sayid Muhammad Xudoyorxon va uning avlodlari ham Bobur Sultonga, u orqali esa sohibqiron Amir Temurga borib bog‘lanadi<sup>48</sup> degan xulosaga keldi.

Amir Temur va uning o‘g‘li Mironshohdan boshlangan sulola Qo‘qon xoni Xudoyorxongacha davom etib kelgan. SH. Yusupov shunday xulosa qiladi: «Qo‘qon xonligining so‘nggi hukmdori Sayid Muhammad Xudoyorxon sohibqiron Amir Temurning yigirma uchinchi avlodi, xonning ikkinchi o‘g‘li Sayid Muhammad Aminbek yigirma to‘rtinchi hamda Muhammad Aminbekning o‘g‘li Sayid Islombek sohibqironning yigirma beshinchi avlodi bo‘lib chiqadi».<sup>49</sup>

Temurshunos, Boburshunos fransuz olimi O‘zbekistonning xalqlar do‘stligi ordeni bilan taqdirlangan professor Lyusen Keren o‘zining «Shahzoda Islombek» maqolasida Qo‘qon xonlari Temuriy Mironshoxga borib taqaladi, degan g‘oyani ilgari surgan. Bu ishni o‘zbek olimi SH.Yusupov davom ettirib Islombekning hayoti, taqdiri haqida tadqiqot ish olib bormoqda. Uning «Jamiyat va boshqaruv» jurnalining 2002 yil 1-sonida e‘lon qilgan maqolasi bu boradagi dastlabki tadqiqot natijalaridir.

Ushbulardan kelib chiqib Qo‘qon xonligining hukmdorlari mahalliy yuqori tabaqa vakillari, ruhoniylar va mashhur Xo‘ja Ahror Vali avlodlaridan bo‘lgan degan fikr bizningcha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ko‘rinadi. Etnik tarkibi jihatidan xilma-xil bo‘lib, Xo‘ja Ahror va O‘ratepalik yuzlar qabilasi bilan qarindoshlik

---

<sup>47</sup> Шариф Юсупов. Буни умр дерлар,, «Жамият ва бошқарув» 2002, 1-сон, 18-25-бетлар.

<sup>48</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XIV-XX аср бошлари) Иккинчи китоб Т., «Шарк» 2003 й. Б.93

<sup>49</sup> O‘sha asarda B.94.

aloqalarini bog‘lab, o‘z mavqeini mustahkamlab olgan minglar xonlikda asosiy kuch edi. Undan tashqari xonlikda tojiklar va qirg‘izlar ham katta mavqega ega edilar. Xon qo‘shinlarida ular katta kuch bo‘lganlar. 92 o‘zbek qabilalaridan biri deb o‘zlarini hisoblovchi qipchoqlarning o‘rni ham Qo‘qon xonligida ancha katta bo‘lgan. Ular xonlikning Shahrihon, Baliqchi hududlari, Qoradaryo bilan Norin daryosi oralig‘idagi yerlarda yashaganlar. Qirg‘izlar esa asosan Farg‘ona atrofidagi tog‘larda va Ketmontepa, Oloy singari tog‘ havzalarida ko‘chib yurib chorvachilik bilan shug‘ullanganlar.

Xiva xonligi va Buxoro amirligidagi singari Qo‘qon xonligida ham davlatni boshqarishda ruhoniylarning o‘rni va ta’siri katta bo‘lgan. Jumladan, ruhoniy Hazrati Sohib, Naqshbandiylar jamoasining xalifasi sifatida 1844-1969 yillar mobaynida amalda davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ayrim masalalarni hal qilishda asosiy rol o‘ynagan. Xatto Xudoyorxonning o‘zi ham u vafot etgach dafn marosimida oldingi safda borgan. Xo‘ja Kalon 1852-1863 yillarda Andijonda hokim lavozimini ado etdi. Odatda xonlikda adolat yuritish ishlarida ruhoniylar vakillari qozilar bo‘lib xizmat qiladilar.

Qo‘qon xonligida yuqori hukmron tabaqaning ijtimoiy va etnik jihatdan xilma-xil bo‘lishligi turli guruhlar o‘rtasida muttasil davom etadigan hokimiyat talash kurashining asosiy to‘ntarilishi oqibatida o‘ldirilganlar, o‘nlab shahzodalar, amaldor va sarkardalar saroy to‘ntarishining qurboni bo‘lib qatl etilganlar. Bunday qarama-qarshi turishliklar va o‘zaro kurashlar Qo‘qon xonligini oxir oqibatda inqirozga uchratib, Chor Rossiyasi mustamlakasiga aylanishiga sabab bo‘lgan bosh omillardandir.

Qo‘qon xonligi Shohruhbiyning o‘g‘li Muhammad Abdu-rahimbiy hukmronligi (1721-1733) davrida o‘z hududlarini kengaytira bordi. U Xo‘jand, Andijon, Samarqand, Jizzax va boshqa erlarni egallab oldi. Shohruhbiyning ikkinchi o‘g‘li Abdulkarimbiy (1733-1747-y) davrida tarixchi Abdulkarim Buxoriyning yozganiga ko‘ra xonlik hududidagi Qo‘qon, Andijon, Namangan va Marg‘ilon shaharlarida savdo va hunarmandchilik taraqqiy etadi. U markaziy

davlatni mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlar o'zboshimchaligiga chek qo'yishga qaratilgan siyosat olib bordi. Shundan keyin to 1770 yilga qadar navbat bilan Abdurahmon, Erdonaxon, Bobobek, Erdonaxon va Sulaymonbek Qo'qon xonligi taxtini boshqardilar. Faqat Norbo'tabiy (1770-1800) yurgizgan qattiq qo'l siyosat tufayli ma'lum darajada bek va biylarning o'zboshimchaligiga chek qo'yildi. Chust, Namangan va Xo'jand beklari qarshiligi qattiq qo'llik bilan bostirildi. Norbo'tabek davrida ko'pgina tarixchilar o'zlarining qo'lyozma asarlarida xalq farovon yashanganligi, narh-navo arzon bo'lganligini ta'kidlaydilar. Biroq Norbo'tabiy vafot etgach zodagonlarning hokimiyat va davlat talash kurashlari yangi kuch bilan avj oldi. Qo'qon taxtini egallagan uning o'g'li Olimxon (1800-1810) o'zboshimcha beklarga nisbatan qattiq qo'l siyosat yurgizish va ularning qarshiligini kuch bilan bostirishga majbur bo'ldi. Olimxon Qo'qon xonlari orasida birinchi bo'lib, xonlik unvonini qabul qildi. Undan boshlab taxt egalariga odatdagidek «biy» emas, balki «xon» unvoni beriladigan bo'ldi. U harbiy islohotlar o'tkazdi va o'z davlatining qudratini oshirdi.

Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan. XVIII asrning uchinchi choragida Toshkentda mustaqil davlat yuzaga kelib, u bilan Qo'qon o'rtasida to'qnashuvlar yuz berdi. SHu munosabat bilan Toshkentning ahvoliga to'xtalish zaruriyati tug'ildi. XVIII asrning 80-yillarida bu shaharda hokimiyat uchun kurashlarning fojeali oqibatlari yaqqol ko'zga tashlandi. Qonli urushlardan va notinchlikdan nihoyatda toliqqan xalq kuchli hokimiyatga juda muhtoj bo'lib qolgan edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent to'rt dahaga: Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzorga bo'lingan bo'lib, har bir dahaga o'zicha mustaqil davlat edi. 1784 yilda shahar aholisining yordamiga tayanib Yunusho'ja hokimiyatni qo'lga olgach, shahar mudofaa istehkomlarini mustahkamlash masalasiga asosiy diqqat e'tiborni qaratdi. 1800 yilgi ma'lumotlarga qaraganda Toshkent yirik shahar bo'lgan, devor quyi qismining qalinligi, 1,8 metr, ustki qismi 0,9 metr atrofida bo'lib, aylanma uzunligi 18 chaqirimdan ortiq, shahar devorining balandligi esa, 7,9 metrga teng bo'lgan. Shaharning 12 ta darvozasi

bo'lgan. Ularning 12 ta oltin kaliti bo'lib, hozir milliy bankda saqlanmoqda. Shaharda o'sha paytda 10 mingta xonadon, 80 ming aholi yashagan.<sup>1</sup>

Yunusxo'ja tarixiy yozma manbalarga qaraganda 6 ming kishilik qo'shin tuzgan. Uning askarlari asosan pilta miltiq, qilich, nayza, qalqon va to'plar bilan qurollangan edilar. Qo'shin tarkibi asosan turli shaharlardan kelgan musofirlar va asirlardan iborat bo'lib, «qora-qazon» deb atalgan.

Yunusxo'ja davlatni boshqarishni ham tartibga soldi. U yakka hokim tarzida ish yuritdi. Rus tog' injenerlari (aslida Rossiyaning Markaziy Osiyodagi ayg'oqchilari) A.S.Beznosikov va T.S.Burnashevlarning qaydnomalarida quyidagilarni o'qiymiz: «Toshkent hukmdori (Yunusxo'ja) o'z fuqarolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega. Ammo u o'z atrofidagi eng yaxshi amaldorlar bilan maslahatlashgan holda hokimiyatni boshqaradi. Bu kengashda Yunusxo'jaga eng sodiq va ishonchli xo'jalar qatnashadi. Shaharni Boshchi xo'ja mansabidagi amaldorlar boshqarib, u tartirb-intizom va obodonchilikka doir masalalari bilan shug'ullanadi. Boshchi xo'ja aybdorlarni jazolash huquqiga ega. Ammo kimki uning hukmidan norozi bo'lsa, bevosita Yunusxo'jaga murojaat qila oladi. Boshchi xo'ja aholiga Yunusxo'janing ko'rsatmasi asosida soliqlar soladi. U hukmdor yo'qligida viloyatni boshqarish huquqiga egadir».<sup>1</sup> Hukumat amaldorlariga maosh berilmagan. Boshchi ho'ja Yunusxo'jadan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Ular faoliyati Yunusxo'ja nazorati ostida bo'lgan. Toshkent davlatining tartibiga ko'ra har bir jondan bir oy daromadiga qarab 5 tangadan 10 tangagacha, yerdan olinadigan hosilning 40 dan bir qismi undirib olingan. Qoraqazonlar har qanday soliqdan ozod qilinganlar.

Yunusxo'ja hukmronligi davrida Toshkentda hayot ilgarigiga qaraganda nisbatan yaxshilangan, dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq izga tushgan. Bu davrga kelib Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Xo'jand, Chimkent, Turkiston, Samarqand, Andijon va boshqa turonzamin shaharlari,

---

<sup>1</sup> Норкулов, Н, Жўраев У. Ўзбекистон тарихи. (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми)

<sup>1</sup> «Шарқ юлдузи», 1992 йил, 12-сон, 133-бет.

Hindiston, Xitoy, Qashqar, Tibet, Rossiya va boshqa bir qator xorijiy mamlakatlar bilan tijorat-savdo aloqalari o'rnatgan.

Yunusxo'ja Toshkent davlati hududlarini ancha kengaytirdi. U 1794 yilda Chimkent va Sayramni, Chirchiq daryosining chap qirg'og'ini va Qurama mavzeini egalladi. Ayni paytda Parkent, Namdanog', Adanak, To'ytepa, Qoraucha, Ohangaron daryosi qirg'og'idagi Matin va Qahronqal'a, Chordara, Niyozbek, Durmancha va Turbat kabi hududlar ham Toshkent davlati tarkibida bo'lgan.

90-yillarning o'rtalariga kelib toshkentliklarning savdo-hunarmandchilik faoliyati shu darajada rivojlanib ketdiki, ular Qozog'iston va G'arbiy Sibir bozorlarida etakchilik mavqeini egallab oldilar. Ular Petropavlovsk, Ust-Kamenagorok va Sibirning boshqa yerlarida ham faoliyat ko'rsata boshladilar. Ish shu darajaga borib etdiki, Sibir va Rossiyaning boshqa chekka o'lkalarida rus savdogarlarining o'rnini bilinmas edi. Ular savdo karvonlarining qaroqchilar tomonidan yo'llarda talanishini hisobga olib, Turkiston va Qashqarga juda kamdan-kam kelganlar. SHu boisdan rus hokimiyati bu yurtlarda savdoni olib borishda, asosan Toshkentlik tijoratchilardan vositachi sifatida foydalanganlar, ularga imtiyozlar berib Sibirda doimiy yashashlari uchun sharoitlar yaratib berganlar. Natijada Sibirda Toshkentliklarning qator mahallalari vujudga kelgan.

Yunusxo'ja Rossiyada tog' sanoati yaxshi rivojlanganligini yaxshi bilardi. Shu bois u Rossiya yordamida Toshkentda tabiiy boyliklardan foydalanishga qattiq kirishdi. Yunusxo'janing bundan ko'zlagan bosh maqsadi qo'shinni zamonaviy qurol bilan qurollantirish va davlat xazinasini mustahkamlashdan iborat edi. Buni biz Toshkent hokimining 1794 yilda savdo karvoni orqali Sibir yo'nalishi mahalliy hokimiyatiga maxsus xat bilan murojaat qilib, o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish va tog' konlari bo'yicha mutaxassislarini Toshkentga yuborishni so'raganliklarida ochiqdan oydin ko'ramiz: «Ayni zamonda,-deyiladi mazkur xatda,-biz tomondan Qozoqlarning Katta Juz va Toshkent viloyati bo'ysundirildi. Endilikda ular bir bosh va bir tan bo'lib, do'stlarimizning do'sti, dushmanlarimizning dushmani bo'lib qoldilar. Biz hozirgi qulay vaziyatdan

foydalanib, Karvonboshi Muhammadxo‘ja va Azizxo‘ja orqali muhrlangan xatimizni yubormoqdamiz. O‘z navbatida sizlar ham o‘z savdogarlaringizni Toshkentga yuboringlar»<sup>1</sup>. Omskka etib kelgan toshkentlik vakillar rus ma‘muriyatiga Yunusxo‘janing og‘zaki so‘rovini ham etkazadilar. Unda Toshkent atrofida oltin koni topilgani va tog‘ koni bo‘yicha yaxshi mutaxassis yuborishi bayon etilgandi. Rus hukumati Yunusxo‘janing xatiga javob yozishni Sibir yo‘nalishi boshlig‘i general-mayor Shtardmandga topshiradi. U esa o‘z navbatida Toshkentga A.S.Beznosikov va tog‘ koni bo‘yicha injener T.S. Burnashev boshchiligida elchilarni yuborishga qaror qiladi. Elchilar Omskdan Trotsik qal‘asiga keladilar. Bu erda ularga 80 tuyadan iborat tatar savdogarlarining karvoni qo‘shiladi. Karvon 1795 yilning 25 yanvarida Buxoroga etib keladi. Chunki karvonga Toshkentga Buxoro orqali borish buyurilgan edi. Rus elchilari bilan dastlabki suhbatni Buxoro amirining ko‘rsatmasiga asosan to‘pchiboshi va yasovullar olib boradilar.<sup>50</sup> Rus elchilari general-gubernator Shtarmand tomonidan Buxoro amiri Shohruhmurodxonga, Toshkent hokimi Yunusxo‘jaga, Xo‘jand begi Xudoyorbekka va Turkiston shahri atrofidagi qozoq sultoni Bukeyga xat bilan murojaat qilinganini aytadilar. Bu xabardan so‘ng rus elchilariga nisbatan amir saroyida munosabat og‘ir kechdi. Chunki amirlikning hukmdor doiralari Sibir yo‘nalishi boshlig‘i Shtarmand nomidan Buxoro amirligiga yuborilgan xatni mensimaslik ma‘nsida qabul qilinadi. Odatda rus elchilari rus imperatori nomidan maxsus yorliq bilan kelar edilar. Rus elchilarini Buxoro amiri qabul qilmaydi, ularni qushbegi qabul qiladi. Rus elchilariga Toshkentga borishga ruhsat etilmaydi, sabab tariqasida olis yo‘lda rus elchilarining hayoti xavf ostida qolishi mumkinligi qayd etiladi. Rus elchilarining kelganligi haqidagi habarni savdogarlar orqali eshitgan Yunusxo‘ja maxsus odamdan xat jo‘natib rus savdo karvonini o‘tkazib yuborishni so‘raydi. Ammo elchilarga ruhsat berilmaydi, ular Orenburg orqali qaytib ketadilar.

---

<sup>1</sup> «Шарк юлдузи», 1992, 12-сон, 134-бет.

<sup>50</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев. Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари) иккинчи китоб. Т., «Шарк» 2003 йил. Б. 98.

Sibir general-gubernatori Shtarmand 1796 yilda ikkinchi marta Toshkentga rus elchilari D.Telyatnikov va A.S.Beznosikovni jo‘natadi. Ular O‘rta juz qozoq yerlari bo‘ylab 27 avgustda Toshkentga etib keladilar. Elchilar Toshkentda yaxshi kutib olinadilar. Biroq ular 1797 yilning 1 iyunida Yunusxo‘janing Mullajon Oxun va mingboshi Ashirmat Botir singari elchilari bilan birga o‘z vatanlariga qaytadilar. Rus elchilari Toshkent atrofidagi tog‘larda oltin topa olmaganlari, lekin temir jinslari borligining texnikaning yo‘qligi tufayli ularni ishga solinmaganligini qayd etadilar.

Toshkentlik elchilar Omskka kelgach, Shtarmandga Petrogradga borish, shaxsan rus imperatori bilan uchrashajaklarini ma’lum qiladilar. Shtarmand rus hukumatidan bunga ruxsat olgach Yunusxo‘ja elchilari Omsk, Ekaterinburg, Perm, Qozon, Moskva orqali Peterburgga borishadi va Toshkent hokimining nomasini imperatorga taqdim etadilar. Maktubda Yunusxo‘ja rus elchilari Toshkentda o‘z vazifalarini bajargani va o‘zining javob elchilarini yuborganligini ma’lum qiladi. Yunusxo‘ja rus imperatoridan tog‘ konlari bo‘yicha bilimdon mutaxassislar yuborishini iltimos qiladi. Toshkentlik elchilar Yunusxo‘ja topshirig‘iga binoan rus hukumati vakillari bilan savdo-sotiq masalalari va siyosiy sohaga oid ba’zi bir muammolar to‘g‘risida ham muzokaralar olib borganlar.

Tarixiy yozma manbalarning xabar berishicha Yunusxo‘janing iltimosiga muvofiq Rossiya hukumati M.Pospelov va T.Burnashev singari tog‘ konlari injenerlarini Toshkentga yuborgan va ular bu yerda bir qator qidiruv ishlarini olib borganlar, ammo oltin yoki boshqa qimmatbaho jinslar topa olmaganlar.

Toshkent hokimi Yunusxo‘ja nima sababdan ushbu masalada Rossiya hukumatiga yordam so‘rab murojaat qildi?, degan qonuniy savol tug‘iladi. Tog‘ konlarini ishga solish harakati Yunusxo‘ja boshliq mustaqil Toshkent davlatining Qo‘qon xonligi bilan Buxoro amirligining, ya’ni ikki o‘t orasiga tushib qolganligi bilan izohlanadi. Toshkent masalasida Qo‘qon va Buxoro o‘zaro raqobatlashayotgan edi. Buni yaxshi tushungan Yunusxo‘ja o‘z qo‘shinini qurol-yarog‘ bilan ta’minlash va mustahkamlashni asosiy vazifa deb biladi. Buning

uchun metalga bo'lgan ehtiyojni sezgan Toshkent hokimi o'z tog'-kon sanoatini yo'lga qo'yishni rejalagan edi. Ammo bu reja amalga oshmadi. Masalani salbiy tomoni shundaki, Toshkent hokimi Janubdagi o'ziga yon qo'shni va qardosh davlatlar Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi xavfidan shubhalandi-yu, Shimoldagi yanada dahshatliroq ajdar komiga yem bo'lish xavfiga yetarli darajada baho berolmadi. Natijada elchi-injener qiyofasida Toshkentga tashrif buyurgan ayg'oqchilar Toshkent va uning atrof-joylari to'g'risida g'oyatda zarur ma'lumotlarni qo'lga kiritdilar. Bu ma'lumotlar o'lkamiz taqdiri uchun g'oyatda achinarli oqibatlar keltirgani ma'lum.

Yunusxo'janing tashqi siyosatida Qo'qon xonligi alohida o'rin egallaydi. XVIII asrning 80-yillarida Qo'qon xoni Norbo'tabiy o'z davlati hududlarini kengaytira borib, Xo'jand, O'ratepa va Jizzaxni o'ziga qaratish uchun urush harakatlarini olib bordi. Albatta, Toshkent Qo'qonga qarshi kuchlar tomonida bo'ldi. Natijada 1794 yilda Qo'qon xoni Norbo'tabiy Toshkentni bosib olish niyatida urush harakatlarini boshlab yubordi. Biroq Chirchiq daryosi bo'yidagi jangda Yunusxo'ja qo'shinlari unga qashshatgich zarba beradilar. Sirdaryoning o'ng qig'og'idagi yerlar Toshkentga qo'shib olinadi. 1799 yilda qo'qon qo'shinlari Toshkentga yana hujum uyushtirdi va Chirchiq daryosidan o'tdi. Qorasuv arig'i bo'yida har ikkala tomon o'rtasida qattiq jang bo'ldi. Bu jangda Yunusxo'ja yana o'z raqibini mag'lubiyatga uchratdi va Qo'qon lashkarboshisi Xonxo'jani, 70 nafar nufuzli harbiylar va askarlarni asir qilib oldi.

Yunusxo'ja Qo'qon xonligi ustidan ikki marta g'alaba qonzonganligiga mahliyo bo'lib, endi uning o'zi harbiy tashabbus ko'rsatib Qo'qonga qarshi yurish qilishga zo'r tayyorgarlikni boshlab yubordi.

Bu paytda Qo'qon taxtiga Norbo'tabiyning o'g'li Olimxon kelgan edi. U O'ratepa, Jizzax va Xo'jandni Buxoro amirligidan tortib olib xonlik hududlarini ancha kengaytirgan edi. Shu boisdan mahalliy ulamolar Yunusxo'jaga Qo'qonga qarshi harakat qilmaslikni maslahat berdilar. Ammo Yunusxo'jaga bu maslahat kor qilmadi. U 1800 yilda 7-8 ming kishilik qo'shin bilan yo'lga chiqadi va Qo'qonga

yaqin bo'lgan «Pungon» degan joyga keladi. Bundan xabar topgan Qo'qon xoni Olimxon Yunusxo'jaga nopisandlik bildirib «o'zidan past kishi bilan teng kelish» ni or bilib unga qarshi («G'urum») «Xaramsaaroy» mavzeyining hokimi So'fi Alixo'ja Mirasad boshchiligida qo'shin jo'natdi. Bu jangda Yunusxo'ja askarlari talofatga uchrab yengiladi.

Shundan so'ng Qurama mavzei Qo'qon xonligi qo'li ostiga o'tadi. Yunusxo'ja biroz vaqt o'tgach dardga chalinib vafot etadi. Uning o'rniga Sultonxo'ja taxtga o'tiradi. Yunusxo'ja vafotidan xabar topgan Olimxon ukasi Umarxon boshchiligida Toshkentga qo'shin jo'natadi. Toshkent va uning atrofidagi yerlar 1805 yilda Qo'qon xonligi tomonidan bosib olinadi. 1809 yilga qadar Chimkent, Sayram, Turkiston hududlari ham harbiy kuch vositasi bilan Qo'qon xonligiga qo'shib olindi. Olimxonning markazlashgan davlatni barpo etish yo'lidagi qattiq qo'l siyosati, ba'zi bir bek va biylarning noroziliklariga sabab bo'ldi. Ular xonga qarshi fitna uyushtirdilar. Olimxon o'ldi deb mish-mish tarqatishdi va ukasi Umarxonni Qo'qon xoni deb e'lon qilishdi. Olimxon bundan xabar topib Qo'qonga shoshildi. Ammo yo'lda otib o'ldirildi.

Toshkentning qo'lga kiritilishi Qo'qon xonligining kuch-qudratini va salohiyatini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Chunki u mintaqaning eng yirik shahari edi. Undan boshlab taxt egalariga odatdagidek «biy» emas, balki «xon» unvoni beriladigan bo'ldi. Ayrim mahalliy manbalarga ko'ra, Olimxon nihoyatda qattiqqo'l va shavqatsiz kishi hisoblangan. «bu Olimxonning laqabi,- deyiladi manbada,-Zolimxon edi. U o'z amakisi Hojibekni qatl qilib ko'p zulmlar chiqargan ediki, buni g'azabindan va zulmindan zolimxon ismi mashhur edi...».<sup>1</sup>

Umarxon xonlik qilgan davr (1810-1822) da Qo'qon xonligi hududlari yanada kengaytirildi. Bu Turkiston shahri va qozoq dashtlarining kattagina qismini egallab oldi. Toshkent, Buxoro va Xivadan Orenburgga boradigan karvon yo'llari tutashgan joyda Oq-machit (hozirgi Qizil O'rda), Cho'loq va so'zak qal'alari

---

<sup>1</sup> Ибрат. «Фарғона тарихи» 287-бет.

qurildi. Shunday qilib Qo‘qon xonligi sekin astalik bilan va hududlarini kengaytirib ijtimoiy jihatdan yuksalib bordi.

XVIII asrda Qo‘qon xonligi tashkil topgandan so‘ng rus elchi va savdogarlari bu xonlik ham ma‘lumotlar yig‘ishga katta e‘tibor bera boshladilar. Jumladan, savdogar Shubay Arslonovning Toshkent shahridagi axboroti (1741 yil), 1800 yilda Toshkent xokimi Yunusxo‘janing iltimosiga ko‘ra Toshkentga kelgan injenerlar Burnashev va Pospelovlarning xotiralari, Filipp Nazarovning 1813-1814 yillarda Qo‘qonga qilgan safari haqidagi hisobotlari shular jumlasidandir.

1829-1830 yillarda Rossiyadan Qo‘qon xonligiga Nikolay Potanin boshchiligida elchilar keladi. N. Potanin Rossiya xukumatidan maxsus topshiriq bilan Qo‘qon xonligiga yuborilgan. U Qozoq dashtlaridagi kazak otryadlaridan birining komandiri bo‘lgan. Unga podsho Rossiyasi xukumati tomonidan Sankt-Peterburgga borgan Qo‘qon xonligi elchilarini kuzatish vabosib o‘tilgan yo‘llarning topografik xaritasini topshirig‘i berilgach 1829 yil 13 mayda Semipalatinskdan Qo‘qon elchilarini kuzatib yo‘lga chiqqan. Mirzacho‘l, CHimkent, Toshkent, Xo‘janddan o‘tib 8 dekabrda Qo‘qonga etib kelgan.<sup>51</sup> Elchi o‘z sayohatlari natijasida “Qo‘qon xonligiga oi yozishmalar”<sup>52</sup> asarini yozgan. N.Potanin o‘z asarida Qo‘qon xonligidagi ma‘muriy boshqaruv tizimi, saroy unvonlari, harbiy va diniy mansablar, shaharlar hayoti va bazorlar, xonlikning Buxoro amirligi bilan o‘zaro munosabatlari haqida qiziqarli ma‘lumotlar keltirilgan. N.Pataninning yozishicha, bu paytda Qo‘qonda 15000 erkak kishi, jumladan 4000 askar va 100 ta masjid, Toshkentda 10000 erkak kishi, jumladan 3000 askar (600 tasi qo‘qonlik) bo‘lgan.<sup>53</sup> Nikolay Potaninning ushbu asari Rossiyada uch marta (1831,1856, 1916 yillarda) nashr qilingan. Asardan parchalar 1990 yil Toshkentda ham nashr etilgan.

---

<sup>51</sup> История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников в учёных (20-80 годы XIX в). (Составитель Б.В.Лунин). Ташкент, 1969. –С.71.

<sup>52</sup> Потанин Н. Записки о Кокандском ханстве хорунжего Патанина (1830). Вестник РГО. Т.ч.18.СПб, 1856.

<sup>53</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2004. –Б. 158-159.

X.Potanin o'z edaliklarida qayd etishicha uni Qo'qonda izzat-ikrom bilan kutib olishgan. Uning ko'rsatishicha, Qo'qonda chet mamlakat elchilari bilan shug'ullanuvchi maxsus mansabdor kishi bo'lgan. Bu mansab shig'ovul nomi bilan yuritilgan. Potanin bilan bo'lgan munozara va qabul marosimlari o'sha shig'ovul tomonidan uyushtirilgan edi. Bu mansabning ta'sis etilishi Qo'qon xonligiga chet mamlakatlardan tez-tez elchilar kelib turishi orqasida yuz bergan, albatta.

Xorunjiy Potanin shaxsan Madalixon tomonidan, elchilik marosimlariga to'liq rioya qilingan holda, qabul qilindi va qisqa suhbat o'tkazildi. Bu uchrashuvda Madalixonga rus imperatorining yorlig'i va sovg'alari topshirildi. Xorunjiy Potaninning qayd etishicha, sog'alar movut, parcha, chinni va xrustal buyumlar, oyna va miltiqdan iborat bo'lgan. Sovg'alarni 25 qo'qonlik ko'cha bo'ylab ketma-ket yurib, xon xuzuriga olib borganlar. Bularning har ikki tomonida rus askarlari qilichlarini yalang'ochlangan holda borganlar. Xorunjiy Potanin, ig'ovul va Qo'qon elchilari esa oldinda otda bo'lganlar. Xaloyiq vaziyatni zo'r qiziqish bilan tomashta qilgan.<sup>54</sup>

Qo'qon axolisi va xukmron doira vakillari rus harbiy otryadining intizomiga, harbiy mashqi va quroldan foydalana bilishiga g'oyatda qiziqqan va qoyil qolgan. Bu harbiy mashqdan Madalixon juda mamnun bo'lib, Xorunjiy Potanin va otryad a'zolarini turli sovg'alar bilan taqdirlagan.

Xorunjiy Potanin to'plagan materiallarda Qo'qon xonligining umumiy axvoli to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar mavjud. CHunonchi, unda Toshkent va Qo'qon shahrida bog'dorchilik, p Xorunjiy Potaninolizchilik va umuman, dehqonchilik bilan shug'ullanilgani, Qo'qonda ipakchilik va to'qimachilik juda yaxshi yo'lga qo'yilganligi ko'rsatib o'tilgan.<sup>55</sup> SHuningdek, Qo'qonning Rossiya, Xitoy, Qoshg'ar, Qozoq erlari, Buxoro va Xiva xonligi bilan savdo-sotiq qilayotganligi uqtirib o'tilgan. Bu hol Qo'qon xonligi ichki va tashqi savdosining

---

<sup>54</sup> Зиёев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь. (XVI-XIX асрлар) Тошкент, Фан, 1962. –Б.174.

<sup>55</sup> Зиёев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь. (XVI-XIX асрлар) Тошкент, Фан, 1962. –Б.175.

ancha kuchayganligidan dolalat beradi. Elchining ta'kidlashicha savdoning o'sganligini oltin, kumush tangalarning mavjudligi ham isbotlaydi.<sup>56</sup> Ma'lumotda ko'rsatilishicha, Qo'qon bozorining oltita saroyi bo'lib, ikkitasida mahalliy, to'rttasida esa chet mamlakatlardan kelgan savdogarlar savdo qilganlar. Bu vaqtlarda Toshkentda beshta saroyli bozor bo'lgan. Bu erda ham chet el savdogarlari savdo-sotiq qilganlar.<sup>57</sup> Xullas, Xorunjiy Potanin m'lumotlari Qo'qon xonligida ichki va tashqi savdoning kuchayganligini ko'rsatadi.

Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlab asar bitgan rus muarrixlaridan yana biri Nalivkin Vladimir Petrovichdir. CHor Rossiyasi armiyasida Turkistonda xizmat qilgan. Xiva va Qo'qon xonligiga harbiy yurishlarda qatnashgan. Qisqa muddat Namanganda harbiy boshliqning yordamchisi bo'lib ishlagan. Erli aholining tili, turmushi va urf-odatlarini yaqindan o'rganish uchun Nanay qishlog'idan er sotib olib, oilasi bilan shu erda bir necha yil yashagan. O'zbek, tojik, arab tillarini puxta o'rgangan.<sup>58</sup> V.P. Nalivkin turmush o'rtog'i M.V. Nalivkina bilan birgalikda "Farg'onadagi o'troq aholi ayollarining turmushiga doir ocherklar" hamda "Qo'qon xonligining qisqacha tarixi" asarlarini yozishgan. Ushbu asarlarda XVIII-XIX asrlardagi Farg'ona vodiysidagi etnomadaniy jarayonlar, xalqning turmush tarixi va Qo'qon xonligining tarixini o'rganishda muxim manbalar sirasiga kiradi. Nalivkin Vladimir Petrovich yana etnografiyaga doir ishlar, Turkiston tarixi, islomshunoslik, o'zbek va fors tillarini o'qitish bo'yicha qo'llanma, ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha lug'at, "Turkiston o'qituvchilar seminriyasi uchun xrestomatiya", "O'zbek tilini amaliy o'rganish uchun qo'llanma" nomli asarlar ham yaratgan.

Filipp Nazarovning 1813-1814 yillarda Qo'qon xonligiga tashrifi davomida to'plagan ma'lumotlari asosida yozgan esdaliklari ham xonlik tarixi, undagi mavjud bekliklar va shaxarlar tarixini o'rganishda muxim manba sanaladi.

---

<sup>56</sup> Зиёев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь. (XVI-XIX асрлар) Тошкент, Фан, 1962. –Б.176.

<sup>57</sup> Зиёев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь. (XVI-XIX асрлар) Тошкент, Фан, 1962. –Б.176.

<sup>58</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2004. –Б. 248.

Dastavvalida Filipp Nazarovning hayot yo‘liga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Afsuski Filipp Nazarovning hayotiga oid ma’lumotlar juda kam, 1789 yili Omsk shahrida Osiyo bilim yurtini tugatib, 1804 yili Tobolsk guberniyasidagi Irtish chizig‘idagi CHarlakovsk chegera postiga tarjimon bo‘lib xizmatga kirgan. Undan keyin xizmat yuzasidan boshqa chegeradagi punktlarga ham borib ishlagan. Qo‘qon xonligiga kelishidan (1813-1814 ) oldin “Alohida Sibir polki”da tarjimon bo‘lib xizmat qilgan.<sup>59</sup>

1813 yili G‘arbiy Sibir general-gubernatori Glazemanning maxsus topshirig‘i bilan Peterburgdan yurtiga qaytish chog‘ida yo‘lda, Petropavlovsk (SHimoliy Qozog‘istonda) o‘ldirilgan Qo‘qon xonining elchisi bilan bog‘liq janjalni tinchitish uchun Qo‘qonga yuborildi. SHu bilan birga uning xotira yozuvlaridan ma’lum bo‘lishicha, unga Qo‘qonga Sibir orqali olib boriladigan yo‘llar, yo‘l ustidagi shahar va qishloqlar, xonlikning iqtisodiy va siyosiy axvoli, uning mudofaa salohiyatini kuzatish ham yuklatilgan.<sup>60</sup>

Filipp Nazarov o‘z missiyasini bajarish uchun Qo‘qonga sibirlik rus savdogarlari karvoniga qo‘shilib, 1813 yil 16 may kuni yo‘lga tushadi. Karvon Qozog‘iston cho‘llari va Janubiy Qozog‘istondagi Suzoq va CHimkent orqali Toshkentga, undan 1813 il oktyabr oyi boshlarida Qo‘qonga kirib keladi. U Qo‘qonda bir yil atrofida turadi va 1814 yilning avgust oyida Qo‘qon xoni Umarxon (1810-1822)ning elchisi bilan Petropovlovsk shaxriga qaytib ketdi.<sup>61</sup>

Filipp Nazarov bir yil mobaynida xonlik poytaxti Qo‘qondan tashqari, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, YAngiqo‘rg‘on va Xo‘jand shaharlarida bo‘ldi va bu shaharlar, ularning xalqi hamda mashg‘uloti haqida qimmatli ma’lumotlar to‘playdi.

---

<sup>59</sup> Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008. –Б.105.

<sup>60</sup> Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. М., 1968. С.43.

<sup>61</sup> Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. М., 1968. С.21.

Filipp Nazarovning esdaliklari “Filipp Nazarov: Zapiski o nekotoryx narodax i zemlyax Sredney Azii” nomi bilan ikki marta 1821 va 1968 yillari nashr etilgan.

Filipp Nazarovga Rossiya xukumati Qo‘qon va Sibir o‘rtasida savdo yo‘lini ochishni tashkillash vazifasini yuklagan edi. SHu bois ham elchi ko‘proq Qo‘qon xonligi va savdo yo‘llari haqida qimmatbaxo ma’lumotlar qoldirgan.

Bu ma’lumotlarda ko‘rsatilishicha, Qo‘qon xonligi SHarqiy Turkiston, Xitoy, Xiva va Buxoro xonliklari va SHarqiy Eron bilan savdo olib borgan. SHuningdek, Toshkent ham bir qator mamlakatlar bilan savdo olib borgan. Qo‘qon xonligi mazkur mamlakatlar bilan elchilik munosabatlarini ham o‘rnatgan. CHunonchi, F. Nazarov o‘sha jolarning elchilari bilan birgalikda xon xuzurida bo‘lgan.

Filipp Nazarov Qo‘qon xonligida bir yil davomida turgan vaqtda xonlikning ko‘plab yirik shaharlarida ham bo‘ladi hamda ushbu shaharlar axolisi, mashg‘ulotlari haqida qimmatli ma’lumotlar to‘playdi. Jumladan, u Andijonda ham bo‘ladi. Elchining qayd etishicha, Andijon-Qoshg‘ar bilan chegeradosh, atrofi qishloqlar bilan o‘ralgan, har qanday mevalarga mo‘l-ko‘l, axolisi ipak qurti boqib, shoyi va qag‘ozdan matolar to‘qish hamda g‘alla ekish bilan mashg‘uldir, savdo bilan ham shug‘ullanishadi. Andijondan to‘rt tomonga chiqish yo‘li bilan, shahar atrofi devorlar bilan o‘rab olingan, uning ichkarisida gubernator arki, saroy joylashgan, unda 10000 ga etib qo‘shin joylashgan. SHahar boshlig‘i o‘z qaromog‘idagi keltirilgan tovar mahsulotlaridan olingan boj tushumi, daromad hisobidan harbiylarni boqayotganini yozgan.<sup>62</sup>

Filipp Nazarov shuningdek ma’lumotlarni Toshkent, Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlari xususida ham to‘plagan ushbu ma’lumotlar o‘sha davrdagi xonlik shaharlari tarixi va etnografiyasi uchun nihoyatda qimmatli manba sanaladi.

XVI-XIX asrlarda Qo‘qon xonliklari bilan rus davlati o‘rtasidagi savdo munosabatlarini o‘rganishda P.Nebolsin asari qimmatli manba sanaladi. Muallif

---

<sup>62</sup> Бу ҳақда қаранг: Шамсутдинов Р. ва бошқалар. Қўхна ва навқирон Андижон. Тошкент, SHARQ. 2010.- Б.42.

XVI-XIX asrning ikkinchi choragida Rossiyadan xonliklarga va bu erdan Rossiyaga chiqarilgan mollar haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltirgan. Uning qayd etishicha o'zbek xonliklaridan Rossiyaga va boshqa mamlakatlarga paxta, kalava ip, cho'yan, gilam, jun, qorako'l, turli hayvon terilari chiqarilgan. Rossiyaga olib borilgan mollar orasida turli quruq mevalar ham alohida o'rin egallardi: shuningdek, firuza kabijavohirotlar chiqarilardi. O'rta Osiyo orqali Rossiyaga xitoy, hind va afg'on mollari yuborilar edi. P. Nebolsinning ma'lumotlariga qaraganda, birgina Kashmirdan har yili xonliklarga keltiriladigan 3000 ta guldor ro'moldan 2000 tasi Rossiyaga jo'natilardi. O'rta Osiyolik savdogarlar SHarqiy Hindistondan keltirilgan ingliz mollarini ham Orenburgga olib borib sotishardi.<sup>63</sup> Yana Rossiyaga paxta, yigirilgan ip, bo'z, chit, qalami olacha, beqasam, adras, atlas singari mollar yuborilar edi. SHuningdek qalami olacha va beqasam to'nlar, shoyi ro'mollar va boshqa tayyor kiyimlar ham chiqarilardi.

Xullas, Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Rossiyalik elchi, savdogar va sayyohlar F.Nazarov, A. Potanin, P. Nebolsin, V. Vilyaminov-Zernov, N. Petrovskiy va boshqalarning esdalik hamda asarlari muxim manba sanaladi. SHuningdek, xonlik tarixini o'rganishda SHarq qo'lyozmalari va bosma qo'llanmalar, xalq og'zaki ijodi, hikoyalar asosida yaratilgan rus muarrixlari V.Nalivkin, A.Kun asarlari ham mavjudki, ularda xonlikning XVIII-XIX asrlar birinchi yarmidagi tarixi bayon etiladi. SHubhasiz ushbu manbalar xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yoritishda tarixchilar uchun birlamchi manbalar bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>63</sup> Тарихий манбашунослик. Тузувчилар: Мадраимов А., Фузайлова Г. Тошкент. Фан, 2006. –Б. 121.

### **III bob. Buxoroga tashrif buyurgan Rossiyalik sayyoh, elchilar va ularning esdalik, xotirantomalari va asarlarida amirlik tarixining aks ettirilishi.**

#### **3.1. Buxoroga tashrif buyurgan Rossiyalik sayyoh, elchilar va ularning missiyalari hamda xotiralar.**

Umuman olganda, Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining xududiy o'rni, axolisi va tabiiy resurslari jixatidan muxim mavkeiga ega edi. XIX asrga kelganda, Buxoro amirligining xududi kariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etdi. Uning chegaralari Janubda Amudaryoning sug'd qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik SHarqda Pomir tog'laridan tortib, G'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan xududni ishg'ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaxarlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, xozirgi Tojikiston xududidagi Vaxsh, Kofirnixon, Pansh daryolari vodiysida joylashgan shaxar va qishloqlar, xozirgi Turkmaniston xududidagi Murg'ob daryosi voxasidagi erlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti SHarqda eng nufuzli shaxar sifatida e'tirof etilgan Buxoroi sharif edi. Yirik shaxarlardan: Samarqand, Karshi, SHaxrisabz, Kitob, Termiz, SHerobod, Xisor, Dushanbe, Kulob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va CHorjo'y shaxarlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xujand shaxarlari uchun Buxoro amirligi bilan Kukon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib,- bu shaxarlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.<sup>64</sup>

XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 millioncha axoli yashardi. Axoli amirlikning sersuv voxalarida yashab, jazirama issiq suvsizlik xukmronlik kiluvchi Qizilqum saxrolari va cho'llari kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo voxasida 500 ming,

---

<sup>64</sup> Р.Шамсутдинов, Ш.Каримов, Ў.Убайдуллаев Ватан тарихи. Иккинчи китоб... Т.Шарқ, 2003 йил

Surxandaryo voxasida 200 ming, SHarqiy Buxoroda 500 mingcha axoli yashardi. Amirlikning yirik shaharlari — Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 mingga yaqin aholi yashardi.

Axoli etnik jihatdan ko'pgina elatlardan iborat bo'lib, ularning ko'pgina kismi, kariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, Saroy, qo'ng'iroq, jabru, qorluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz kabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular, asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo voxalaridagi shaxar va qishloqlarda yashardi.

Buxoro amirligining Xisor, Dushanbe, SHarqiy Buxorodagi Vaxsh, Kofirnixon va Panj daryolari vodiylarida, asosan, tojiklar yashar edi.

Amirlikning janubiy va g'arbiy kismida turkmanlar, shimoliy-sharkiy tomonida qozoq va qirg'izlar yashardi. SHuningdek, amirlik xududida afg'onlar, eronlar, arablar, yaxudiylar, xindlar va boshqa etnik guruxlar xam mavjud edi.

Axolining aksariyat ko'pchiligi qishloqlarda istiqomat qilardi. Ular dexqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanardi. Sug'oriladigan erlarda paxta, bug'doy, guruch, juxori, bog' va poliz maxsulotlari etishtirilar edi. Uzum, olma, nok, shaftoli, o'rik, gilos, anjir, qovun, tarvuz etishtirilardi. Meva-chevalar quritilib shirinlik o'rnida ishlatilardi. CHorvachilikda qo'ychilik, qorako'l qo'ychiligi, xunarmandchilikda gilamdo'zlik, uymakorlik, zardo'zlik, tegirmonchilik, ko'nchilik, tukuvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikduzlik, moyjuvozlik, sovungarlik keng tarqalgan edi.

Amirlikning iqtisodiy xayotida qoloqlik, turg'unlik xollari mavjud edi, axolining turmushi past darajada edi. Erga egalik shakli ming yillar davomida o'zgarmay kelmoqda edi, axoliga solinadigan o'lpon va soliklar xaddan tashqari ko'p edi. Axolining sotib olish qobiliyatining pastligi xunarmandchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.

Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligi tarixiga doir ko'pgina e'tiborga loyiq ishlar qilindi. Bunga so'nggi vaqtlarda chop etilgan ko'plab tadqiqotlar va manbalar misol bo'la oladi.

SHu bilan birga yangi tariximizning turli muammolariga oid ayrim asarlarda birlamchi manbalardan foydalanmaslik, ularni chetlab o'tish natijasida sovetlar davrida e'lon qilingan tarixiy asarlardagi xatoliklarni takrorlash xollari yuz bermoqda. SHuning uchun ham qadimgi, o'rta asr tarixiy voqealari bilan bir qatorda, yangi tarix hodisalarini bayon etishda ham birlamchi manbalarga katta e'tibor berish lozim bo'ladi. Bu xildagi asosiy manbalarga suyangan xolda tarixni yoritish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Ma'lumki, XVI-XVIII asrlarda Turkiston sarhadlarida birin-ketin uchta mustaqil xonlik vujudga keladi. Har uchala davlat tarixini yoritishda o'sha davrda yashab ijod qilgan maxalliy tarixchilarning asarlari bilan bir qatorda rossiyalik hamda evropalik sayyoxlar, elchilar, muarrixlarning yozib qoldirgan esdaliklari, xotiranomalari asarlar ham ana shunday muhim birlamchi manbalar sirasiga kiradi.

Arab, Xitoy va Rossiya elchilari va sayyohlarining esdaliklarida ham O'rta Osiyo xalqlari tarixini chuqurroq va atroflicha o'rganishi uchun zarur daliliy ma'lumotlar ko'p. SHu bois xam rossiyalik elchilarning esdaliklari ham muxim tarixiy manba xisoblanadi. Ivan Danilovich Xoxlov kundaliklari Buxoro va Xiva xonliklarining tarixini o'rganishda muxim manba sanaladi.

Ivan Danilovich Xoxlov XVII asrda o'tgan iste'dodli rus diplomatidir. Uning hayoti va faoliyatini o'rgangan yirik rus sharqshunos olimi N. I. Veselovskiy (1848-1918yy) keltirgan ma'lumotlarga ko'ra<sup>65</sup>, Ivan Danilovich Xoxlov asli qozonlik bo'lib, aslzoda oilasida dunyoga kelgan. Uning haqidagi dastlabki ma'lumotlar XVI asrning 90 yillariga tegishlidir. I.D.Xoxlov o'sha vaqtda og'asi Vasiliy bilan birga, davlat xizmatida bo'lgan va Qozondagi o'qchilar diviziyasiga bosh bo'lib turgan. 1600 yili yurtiga qaytib ketayotgan Eron elchisi

---

<sup>65</sup> Веселовский Н.И. Иван Днилович Хохлов (русский посланник в Персии и Бухаре в XVII веке) ЖМНП ч. 273. – М. 1991 С.48-72.

Pirqulibekni Qozondan Saratovgacha (shaharga 1590 yil asos solingan) kuzatib qo‘ygan. Undan O‘rta Osiyo xonliklari va ulardagi vaziyat to‘g‘risida batafsil ma’lumot olgan. SHundan so‘ng elchidan eshitganlari haqida o‘z podshosiga ma’lumot bergan.

Ivan Danilovich Xoxlov 1620-1622 yillari podshoning farmoni bilan O‘rta Osiyoda, Buxoro va Xiva xonliklarida bo‘ldi. 1622 yil 12 dekabr kuni Rossiyaga qaytgandan keyin I.D.Xoxlov birmuncha vaqt Moskvada istiqomat qildi. 1623 yilning boshlarida unga Qozonga qaytishga ruxsat berildi hamda Voevoda Odoevskiyning xizmatida bo‘ldi. Uni 1624 yilning 8 dekabrda yana Moskvaga chaqirib oldilar va Buxoro va Xiva xonliklari haqidagi ma’lumotlarni tartibga solish haqida topshiriq beriladi.

I.D.Xoxlovning hayotiga oid so‘nggi ma’lumot 1629 yilga tegishli. O‘sha yili u Eron elchisi Muhammad Silibek va Eronning savdo karvonini Qazondan Moskvagacha va Moskvadan Qozongacha kuzatib qo‘ygan.

Ivan Danilovich Xoxlovdan O‘rta Osiyo xonliklari haqidagi ikki muxm xujjat; podshoning maxsus topshirig‘i va I.D.Xoxlovning Buxoro va Xiva xonliklarining axvoli haqida podshoga yozgan axboroti qolgan.

Birinchi xujjatda elchilik zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida so‘z boradi. Uning vazifasi, eng avvalo, xar ikki xonlik xukmdorlarini Rossiya bilan do‘stlashish, savdo va bordi-keldi aloqalarini o‘rnatishga ko‘ndirish, xonlarni Rossiya qudratli davlat ekanligi va uning boshqa nufuzli mamlakatlar bilan yaxshi munosabatda ekanligiga ishontirish, xonlikdagi rus asirlarini ozod qilish, har ikkala xonlik o‘rtasidagi mavjud munosabatlar, xonliklarning Eron, Turkiya va Gruziya bilan munosabatlari qanday ekanligini aniqlash, tabiiy boyliklari va harbiy qudratini aniqlashdan iborat bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, podsho Rossiyasi o‘sha vaqtlardan boshlab O‘rta Osiyo xonliklari haqida to‘liq ma’lumot olishga intilgan edi.

I.D.Xoxlovning Elchilar Mahkamasi (Posolskiy prikaz)ga yuborgan axboroti (Stateynyy spisok)ga qaraganda, u o'ziga yuklatilgan vazifalarning katta qismini bajargan. SHu bilan birga elchi Buxoro va Xiva xonliklari tarixiga doir ham qimmatli ma'lumotlar to'plab olgan.

Ivan Danilovich Xoxlov podsho topshirig'ini bajarib Buxoro xoni Imomqulixon bilan kelishib xonning ixtiyoridagi 23 rus asirini ozod qilgan. Boy-badavlat kishilar, amirlar va savdogarlar qo'lidagi asirlar xususida Imomqulixon elchiga "ularni qidirishga hozircha fursat yo'q, xizmatkori (Toshkent xokimi Tursunxon) isyonini bostirgandan so'ng imperator janobi oliylarining bu iltimosini bajaramiz va topganlarimizni o'zimiz yuboramiz",<sup>66</sup> deb va'da bergan.

Buxoro va Xiva xonliklarining o'sha davrdagi ichki axvoli haqida I.D.Xoxlov bergan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarsa bo'ladi. Elchining ma'lumotlari o'sha davrdagi ichki vaziyatni bilishda muhim manba sanaladi. I.D.Xoxlov ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, mamlakat o'zaro urushlar iskanjasida qolgan. Balx, Toshkent va Samarqand ustida turgan noiblar markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortib, o'zlarini mustaqil tutayotganliklari natijasid Buxoro xukumati kuchsizlanib qolgan. U o'sha davrda Xiva xonligidagi vaziyat ham yaxshi emasligi, ichki nizolar avj olgani ikki xonlik bir-biri bilan yaxshi munosabatda emasligini yozadi.

I.D.Xoxlovning guvoxlik berishicha, Xiva xonligi bilan Eron o'rtasidagi munosabatlar ham o'sha paytlarda yaxshi bo'lmagan. U masalan, yozadi: "Urganchliklar shox Abbos yaxshi munosabatda emaslar. (Xorazmda turgan) xonzoda Ilbars qizilboshlarga qarashli Obivarga xujum qilgan, obivarliklarning otlari va tuyalarini tortib olgan. SHuningdek, 100 odamni asir qilib haydab ketgan..."<sup>67</sup>

---

<sup>66</sup> Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая. – М.: Наука, 1987. Ст.171.

<sup>67</sup> Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв (Писменные памятники)-Ташкент: Фан, 1985. С.102.

Xullas, Ivan Danilovich Xoxlovning 1620-1622 yillarda Buxoro va Xiva xonliklarida bo‘lib xonliklarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tashqi aloqalariga doir to‘plagan ma’lumotlari bu ikki davlatning o‘sha davrdagi tarixini o‘rganishda muxim manba hisoblanadi.

SHarqda katta harbiy kuch yuborish va uni qurol kuchi vositasida egallash harakati Pyotr I (1689-1725) davridan boshlab kuchayib ketdi. Pyotr I Aleksandr Bekovich-CHerkasskiyni mukammal qurollangan 5000 askar bilan Xivaga, uni Rossiya xomiyligiga kiritish xususida xon bilan muzokaralar olib borish uchun yubordi. Aslida bu shunchalik elchilik emas, balki xonni chalg‘itib, Xiva xonligini kuch bilan bo‘ysundirishga qaratilgan harakat edi. Lekin imperator Pyotr I maqsadiga erisha olmadi. Bekovich-CHerkasskiy ekspeditsiyasi muvafaqiyatsizlikka uchradi. SHerg‘ozixon (1714-1728 yy) Rossiya podshosining asl niyatini o‘z vaqtida payqaydi va A Bekovich-CHerkasskiyning ekspeditsiyasini daf qiladi.

SHundan keyin Rossiya xukmdor doiralari Xiva va Buxoro xonliklarini bo‘ysindirish payti kelmaganligini, uni osonlikcha bo‘ysindirish mumkin emasligini, ularni hali ko‘p o‘rganish zarurligini angladi.

Rossiya elchilik maxkamasining ma’sul xodimi Flario Beneveni elchiligi shunday maqsad bilan O‘rta Osiyoga yuborildi. SHuni ham aytish kerakki, Buxoro va Xivada A Bekovich-CHerkasskiy voqeasidan keyin Pyotr I O‘rta Osiyoga katta qo‘shin yuboradi, degan xavf-xatar tug‘ilgan edi. SHuning uchun bo‘lsa kerak, Abdulfayzxon 1717 yili Rossiyaga elchi yuborib, u bilan do‘stona va savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatish istagini bildirdi. Abulfayzxonning Rossiyaga yuborilgan elchiligiga Qulibek boshchilik qiladi, 1717 yil yozida Buxoro xoni elchisi Qulibek Peterburgda boradi. Pyotr I bilan uchrashadi. SHvedlar ustidan qozonilgan g‘alaba munosabati bilan Pyotr I ga qutlov maktubini topshiradi. Abulfayzxon o‘z maktubida ayni paytda Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini so‘ragan edi. Bunga javoban Rossiya xukumati Florio Benevenini elchi qilib yubordi.

Florio Beneveni uchun tuzilgan va 1718 yil 13 iyul kun Pyotr I tarafidan tasdiqlangan qo‘llanmada elchiga quyidagi topshiriqlar berildi.

1. Florio Beneveni Buxoro xoni xuzuriga podsho xazratlarining elchisi sifatida boradi. SHu haqda uning qo‘liga podsho xazratlarining Buxoro xoni nomiga yozilgan maktubi topshirildi. Elchi Peterburgdan Moskvaga qaytib borishi hamono Astraxanga jo‘nab ketadi. Astraxandan Buxorogacha Abulfayzxonning uni Astraxanda kutib turgan elchisi bilan birga boradi.
2. Florio Beneveni Abulfayzxonning elchisiga yo‘lda o‘zini tanitmaydi. Yo‘lda, ayniqsa Buxoro xonligi xududlaridan o‘tayotganda, hamma erlarni xususan bandargoxlar, qa‘lalar va shaxarlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirib boradi.
3. Xon bilan uchrashganda uni Eron va boshqa davlatlarning elchilari qatorida zo‘r xurmat va extirom bilan qabul qilinishiga erishish. Podsho xazrati oliylari u bilan do‘stlik va savdo-sotiq aloqalarini ilgargidan ham ziyoda bo‘lishini istayotganini xonga ma’lum qilish.
4. Buxoroda bo‘lganida, qanday bo‘lmasin, Buxoro xonligi qa‘lalari, qo‘shini, otliq va piyoda askarlarining umumiy soni, ularning qurol-aslaxalari va qancha zambaragi borligini, qo‘shindagi umumiy axvol, qa‘lalarining qo‘riqlanishini bilib olsin.
5. Abulfayzxonning Eron shoxi va Xiva xonlari bilan munosabati qay darajada ekanligini aniqlash. Xiva xoniga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklif etilsin.
6. Buxoroda qanday tovarlar ishlab chiqariladi va ular qaerlarga olib borib sotiladi? Buxoroga dengiz yoki quruqlikdan qaysi yo‘l bilan borish mumkin? Buxoroda qaysi rus tovarlariga ehtiyoj katta? Rossiya bilan savdo-sotiqni kuchaytirish mumkinmi? Manashu masalalarni aniqlasin.
7. Amudaryoda oltin bormi? Buxoro xonini qo‘riqlash uchun necha yuz gvardiyachi, yoki qo‘shin yuborilsa, xon bunga rozi bo‘ladi? SHuni xam

aniqlasin.<sup>68</sup> Kabi topshiriqlar elchilar zimmasiga o'z podshosi tomonidan yuklatilgan edi.

Har ikkala elchilik Buxoro xonining Rossiyadan vataniga qaytib kelayotgan elchisi va Florio Beneveni 1721 yil 6 noyabrida Buxoroga etib keldilar. Florio Beneveni va uning hamroxlari Buxoroga 10 verst<sup>69</sup> qolganda yo'l ustida Buxoro to'pchiboshisi boshliq 50 kishidan iborat saroy mulozimlari kutib oldilar.

Rossiya elchisi Buxoroda uch yarim yil, 1721 yil 6 noyabridan to 1725 yil 8 apreliga qadar turdi va podshosining yuqoridagi topshiriqlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Ularni Sankt-Peterburgga ochiq va shiflangan xatlar orqali jo'natib turadi. Xukumatning barcha topshiriqlarini bajargan F Beneveni 1725 yil 8 aprelda Peterburgga qaytib ketadi.

F.Beneveni to'plagan ma'lumotlar Rossiya xukumati, uning tashqi siyosati uchun kelajakda qo'l kelib qoldi.

YUrtimizga tashrif buyurgan Vasiliy Aleksandrovich Daudov va Muhammad YUusuf Qosimovlar qoldirgan yozma ma'lumotlar ham Buxoro va Xiva xonliklari tarixini o'rganishda muhim manbalar sirasiga kiradi. Avval elchilar haqida qisqacha to'xtalsak.

Vasiliy Aleksandrovich Daudov asli fors (eronlik) bo'lib, 1653 yili Qozonda xristianlikni qabul qilgan, Rossiya davlatining xizmatiga kirgan ham stolnik va voevodo lavozimida xizmat qilgan.<sup>70</sup> Muhammad YUusuf Qosimov esa asli musulmon (tatar). U ham rus podshosining xizmatida bo'lgan. Avvalo shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, har ikkala elchi-V.A.Daudov va M.YU Qosimov Buxorogacha birga borishgan bo'lsalarda, elchilar mahkamasidan alohida alohida

---

<sup>68</sup> Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008. -Б.100

<sup>69</sup> Верст-масофа ўлчови, 1.6 кмга тенг бўлган.

<sup>70</sup> Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008. -Б.101.

topshiriq olganga o'xshaydilar, chunki V.A.Daudov va M.YU. Qosimovga borilgan yo'riqnoma (nakaz) bizgacha etib kelmagan. U 1800 yilgacha Rossiya tashqi ishlar maxkamasining arxivida saqlanar edi. 1806 yil o'tkazilgan tekshiruv paytida u turgan joyidan topilmagan. SHu sababdan V.A.Daudov va M.YU.Qosimovlar qanday vazifalarni ado etganliklarini aniq bilmaymiz. Buni V.A.Daudovning elchilik mahkamasidan olgan yo'riqnomasi (nakaz)dan taxminan bilib olish mumkin.

Ular quyidagilar:

1. Buxoro va Xiva xonliklarining Moskva xukumati bilan diplomatik aloqalarini rivojlantirishga xoxishi bormi-yo'qmi, shuni aniqlash;
2. Xonliklarda yashab turgan rus asirlarini ozod qilish;
3. Ikki davlat, Rossiya, Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasidagi savdo va elchilik karvonlarining xavfsizligini ta'minlash uchun Kaspiy dengizining kun chiqish tarafida, dengiz sohilidagi Saratosh tepaligida kemalar to'xtaydigan bandargox qurishga Xiva xonining roziligini olish;
4. Amudaryoning boshi va o'zani, daryo sohilida istiqomat qilib turgan xalqlar, ularning mashg'uloti va turmush tarzi haqida ma'lumot to'plash;
5. Buxorodan Hindistonga olib boradigan yo'llar, Xindiston xukumatining Rossiya bilan savdo va diplomatik aloqalarini o'rnatishga xoxishi bor-yo'qligini M.YU.Qosimovga berilgan topshiriqda aniqlash.<sup>71</sup>

Elchilik Buxoro va Xivada, yo'lga ketgan vaqtni qo'shib olganda, Buxoroda 1675 yilning 15 mayidan 1676 yil 2 oktyabrigacha bo'lgan. SHu davr mobaynida elchi V.A.Daudov Buxoro va Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy axvoliga, armiyasning kuch qudrati va xonliklarning o'zaro olaqalariga doir ko'plab ma'lumotlarni yig'gan. Vasiliy Aleksandrovich Daudov o'z podshosiga yozgan axborotida "Buxoro va Xiva xonligi o'rtasidagi aloqalarning yaxshi

---

<sup>71</sup> Мухаммаджонов А., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Тошкент, 1957. –Б. 101.

emasligi ular doimo bir-biri bilan urush xolatida ekanligi to'g'risida ma'lumot" beriladi.<sup>72</sup> Darxaqiqat bu davrda Xiva xonligi taxtida o'tirgan Anushaxon (1663-1687) doimiy ravishda Buxoro xonligini xonavayronlikka olib kelgan harbiy yurishlar uyushtirgani tarixdan ma'lum.

Muhammad YUsuf Qosimov elchiligiga kelsak, unga Buxorodan Hindistonga olib boradigan yo'llar va Xindiston podshosi Avrangzeb (1658-1707)ning Rossiya bilan diplomatik aloqalarni o'rnatishga moyili bormi-yo'qmi shularni bilish vazifasi topshirilgan edi. SHuning uchun ham, u Buxoroga kelganidan ko'p o'tmay, Hindistonga jo'nab ketadi. Elchi Muhammad YUsuf Qosimov faqat Qobulgacha bordi xolos. "SHoh Avrangzeb ulug' podshoh bilan do'stona aloqa o'rnatishni istamagani" uchun orqaga qaytishga majbur bo'ldi va 1677 yili Moskvaga qaytib boradi.

Aka-uka Pazuxinlar O'rta Osiyo xonliklarining umumiy axvoli, xonliklarga, Eron va Hindistonga Astraxan orqali olib boradigan karvon yo'li haqida keng ma'lumot jamlaganlar.

Aka-uka Pazuxinlar kelib chiqishi aslzoda (dvoryan) avlodi. Katta Pazuxin-Boris Andrevich Pazuxun 1667-1673 yillarda stolnik mansabida davlat xizmatida bo'lgan va inisi Semeon Ivanovich bilan birgalikda 1669-1671 yillarda Buxoro, Balx va Urganchga podsho Rossiyasi xukumati topshirig'iga binoan yuborilgan Rossiya elchilariga boshchilik qilgan. Oradan sakkiz yil o'tgach, 1679 yili Qrimga elchi qilib yuborilgan. Yo'lda isyonchi rus kazaklarining xujumiga duchor bo'lgan va olishuv paytida o'ldirilgan.

Aka-uka Pazuxinlar (elchilik tarkibida 10 kishi bo'lgan) Buxoroga YOyiq-qalmoq ulusi va Xiva orqali borganlar, qaytishda esa Eron-SHemaxa va Boku orqali qaytishgan.

---

<sup>72</sup> Муҳаммаджонов А., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Тошкент, 1957. –Б. 102.

Elchilar Buxoro va Xiva xonliklarida ikki yarim yil turganlar. Podsho Rossiyasi xukumati va elchilik mahkamasi tomonidan berilgan xujjatlardan ma'lum bo'lishicha aka-uka Pazuxinlar elchiligi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan;

1. Har ikki davlat: Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi do'stlik va savdo aloqalarini mustaxkamlash. Buni podsho Aleksey Mixaylovich (1645-1676)ning Buxoro xoni Abdulazizxon (1645-16811) nomiga yo'llagan maktubidan ham bilsa bo'ladi. Unda jumladan quyidagi fikrlar bitilgan "...Biz otabobolarimizning (ishlarini) o'zaro do'stlik va izzat-xurmatda bo'lish, bordi-keldi aloqalarini davom ettirish haqidagi ko'rsatmalarini esda tutib, Sizning savdogarlaringizga bizning mamlakatlarimizga, bizning savdogarlarimiz Sizning mamlakatlaringizga bemaol borib kelishlarini yaxshilaylik."

2. Buxoro, Balx va Xiva xonliklarida saqlanib turgan rus asirlarini ozod qilishga harakat qilish. Elchilik maxkamasi (Prsrlskiy prikaz) bergan yo'riqnoma (nakaz)da bunday deyiladi: "Buxoro, Balx va Urganchga qarashli erlarda saqlanayotgan rus asirlari (barcha choralar bilan) ozod qilinsin". SHuni ham aytish kerakki, elchilikka "Podshox oliy hazratlariga tegishli kishilarni, aslzoda (dvoryan va boyar)larning bolalarini qidirib topib ozod qilishga" alohida e'tibor berish topshirildi.

3. O'rta Osiyo xonliklarining ichki va xalqaro axvolini ulardan qaysilariga suyanish mumkinligini aniqlash. Xususan, elchilik mahkamasining yo'riqnomasida (Nakazida) mana bunday ko'rsatma bor: "(Xonliklardan) qaysinisi kuchliroq va ishonchliroq bo'lsa, o'shanisi bilan aloqa o'rnatish lozim. Boris va uning hamrohlari Buxoro, Balx va Urganchda bo'lganlarida ularning xonlari hozirgi paytda Turkiya sultoni, Eron shohlari va Gruziya bilan qanday munosabatda ekanligini, kimlar bilan aloqasi yo'qligini, shu kunlarda Xorazm taxtida kim o'tirganini har qanday yo'l bilan aniqlasinlar; Buxoro, Balx va Urganch xonlarining xazinasini boymi, askari kuchlimi, shularni ham aniqlasinlar".

Moskva xukumati aka-uka Pazixunlarga ham Buxorodan Hindistonga olib boradigan qulay yo'lni aniqlash vazifasini yuklagan edi. Ular bu vazifani bajarish uchun tarjimonlar Nikita Medvedov va Semyon Izmaylovlarni Balxga jo'natdilar. Ulardan faqat Nikita Medvedov Pazixunlar huzuriga qaytib keldi va Balxdan Hindiston poytaxti SHohjahonobodga olib boradigan yo'l haqida ma'lumot keltirdi. U bunday deb yozgan: "Hindistonga olib boradigan yo'l Balxdan aholi yashab turgan qishloqlar orqali o'tadi. Yo'lda hech qanday odobsizlik, talon-toroj va boj olish degan narsalar yo'q". Tarjimon SHohjaxonobod yo'l Xinjon, Parvon, Qobul, Peshavor orqali o'tishini aytgan. YAna u yozgan: "Xinjon bilan Parvon oralig'ida Xind tog'lari (Hindiqush) yotadi. To'g'ri yo'ldan, tog' orqali borganda masofa olti kunlik, tog'ni aylanib borilganda to'rt haftalik yo'l". Ikkinchi tarjimon Simyon Izmailov Qobulda qolgan edi.

Bundan ko'rinib turibdiki podsho xukumati o'sha davrlardanoq afsonaviy boyliklar makoni Hindistonga O'rta Osiyo orqali o'tishni maqsad qilib buning uchun elchilar orqali o'tishni maqsad qilib buning uchun elchilar orqali chuqur ma'lumot to'plagan edi.

Aka-uka Pazixunlar O'rta Osiyo xonliklaridagi mavjud harbiy-siyosiy axvol haqida ham muhim ma'lumotlarni to'plaganlar. Bu haqida ularga alohida ko'rsatma berilgan edi.

Elchilarning o'z xukumati nomiga yozgan axborotnomasida o'zbek xonliklari saroyida amalda bo'lgan qabul marosimlari haqida ham muxim ma'lumotlar beriladi. Unda, xususan, shunday xabar beriladi: "(Ark) dorvozasi oldida Boris va uning hamroxlari Malaybek (to'pchiboshi) kutib oldi. Boris va uning hamroxlari (to'pchiboshi olib kelgan) otlarga mindilar. Podsho qasriga etganda ularni otdan tushirdilar, chunki podshoh asriga otliq kirish man etilgan. Borisning o'ng tarafiga Buxoroning atoqli zotlari, xon avlodidan bo'lgan shahzoda va xonning yaqin mulozimlari, chap tarafda, katta amir (boyarik) xonning yaqin mulozimlari va boshqa lavozimdagi mansabdorlar, (umuman) 100 dan ortiq kishi joy oldilar... Abdulazizxonning o'ng tarafidan xojalar, ruxoniylar va ulamolar

o‘rin oldilar. Xonning oldiga uning qilichi, o‘q-yoyni va qalqon qo‘yilgan edi. Uning orqasida 12 nafar nayza va qilich ko‘targan uy xizmatkorlari turgan edi. Xonning old tarafida 200 dan ortiq yasavul (va qo‘riqchilar) tik turar edilar.....” Ko‘rinib turibdiki elchilar o‘z xukumatiga xonliklar saroyiga oid ma’lumotlarni ham batafsil jo‘natishga harakat qilganlar.

Umuman aka-uka Pazixunlar boshchiligidagi elchilar guruhi o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini to‘la ado etgan. SHu borada ularning o‘z xukumatiga yuborgan ma’lumotnomalari ya’ni axborotlari o‘sha davr tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar sirasiga aylandi.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish kerakki, xonliklar davri jumladan Buxoro davlati tarixiga oid juda ko‘p tarixiy va xilma-xil tarixiy manbalar mavjud. Ushbu manbalar orasida rus elchi va sayyohlarining asarlari hamda esdaliklari ham aloxida ahamiyatga ega. Ulardan kompleks ravishda va tanqidiy ruhda foydalanish bu davr tarixini teran o‘rganish imkoniyatini beradi.

### 3.2. Rossiya sayyoh va elchilarining esdaliklarida Buxoro amirligining ijtimoiy hayotining aks ettirilishi.

Buxoro amirligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi. Butun o'rta asrlarda mavjud bo'lganidek, amirlik davrida ham hunarmandlar o'yushmalari (kasaba, sexga ega bo'lganlar. Uyushmalarning tashkil topishi mahsulot ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatishga, mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bog'liq edi. Amirlikdagi hunarmandchilikning barcha sohalarida bunday uyushmalar mavjud bo'lib, uni saylab qo'yiladigan shaxs-ra'is yoki oqsoqol boshqargan. Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar narxini belgilashda, turli soliq va to'lovlar yig'imida, usta va shogird munosabatlarida, xo'jalik ishlarini yuritishda uyushma raisining xizmati katta bo'lgan.

Ilgarigi davrlarda bo'lganidek, amirlikning hunarmandchiligi sohasida to'qimachilik uning asosiy tarmog'i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak etarli darajada bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi. Amirlikda ayniqsa bo'z, chit, olacha ko'p miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hissor, Baljuvon, Dehnov, Samarqand, Buxoro, SHahrisabz va ularning atroflarida ipak matolar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Boshqa shahar va qishloqlarda ham ip yigirish, mato to'qish, tayyor kiyim tikish, gilam to'qish va boshqa to'qimachilik sohalari ancha rivojlangan. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroning zarbof tunlari, SHahrisabzning iroqi do'ppilari, Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolari amirlikdan tashqarida ham juda mashhur bo'lgan.

Amirlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – kulolchilik edi. Xo'jlik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilik amirlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy

etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, SHahrisab, Urgut, Dehnov, G'ijduvon kabilar bo'lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Amirlik kulolchiligida O'rta Osiyoning ko'pgina kulolchilik maktablariga xos bo'lgan manzaralar(turli gullar va o'simliklar tasviri), turli hayvonlar, qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo'llanilgan.

Amirlik iqtisodiyotining metallga ishlov berish sohasi ham yaxshi rivojlangan. SHahrisabz, Urgut, Nurota, Bosun, SHerobod kabi tog'li tumanlardan ma'danlar qazib olingan bo'lib, ulardagi konlardan foydalanish ba'zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi.

Bu davrda amirlikdagi metallga ishlov berish taraqqiy etgan quyidagi to'rtta asosiy tarmog'i-temirchilik, misgarlik, cho'yan quyish va rixtagarlikni alohida ko'rsatish mumkin. Temirchilik sohasida ustalar qishloq xo'jaligida va kundalik turmushda ishlatadigan mehnat qurollari, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Amirlikning ko'pgina shaharlarida Temirchi, Go'zari chilangaron kami chilnagar-temirchilarning maxsus mahalla go'zarlarining mavjudligi ushbu hunarmandchilik turining ancha taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Amirlikning asosan yirik shaharlarida misgarlik ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo'lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko'zacha, tog'oracha kabi ko'plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Buxoro amirligining metallga ishlov berish sanoatida degrezlik-chuyan quyishning alohida o'rni bor edi. Bu soha ustalari asosan shaharlardagi maxsus go'zarlarda yashaganlar. Ular cho'yandan qozon, chiroq, manqaldon kabi buyumlar yasaganlar. Bronzadan buyumlar yasash –rixtagarlik ham amirlikning ko'pgina shaharlarida taraqqiy etgan edi. Ushbu kasb sohiblari turli buyumlar va taqinchoqlar yasaganlar.

Undan tashqari amirlikda hunarmandchilikning boshqa ko'pgina turlari ham rivojlangan. Xususan Buxoro, Qarshi va SHahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar

tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metal va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar amirlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur bo'lgan. Ko'pchilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. CHarmon ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po'stin va nim po'stin, turli xil meshlar (sut, suv, qimiz va b. uchun) tayyorlangan.<sup>73</sup>

Amirlikning deyarli barcha hududlarida yog'och o'ymakorligi yaxshi rivojlangan. SHaharlarda mohir duradgorlar ko'p bo'lgan. Amirlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor ehtiyojlarini ta'inlabgina qolmasdan ko'p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Buxoro amirligi hukumdorlari va aholisi savdo-sotiq ishlariga katta e'tibor qaratishgan. Amirlikda hunarmandchilik va undagi ishlab chiqarishning tarqiy etishi doimiy savdo-sotiq munosabatlarining yanada kengayishiga asos bo'lgan edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining ko'pgina shaharlarida karvonsaroylar qurilishiga katta e'tibor qaratilib, bu holat savdo munosabatlari rivojini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan edi.

Amirlikning yirik shaharlari – Buxoro, Samarqand, Termiz, SHahrisab, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Dehnov, Nurota va boshqalar asosiy savdo markazlari edi. Manbalarga ko'ra, XIX asr boshlariga kelib yirik karvon yo'llari chorrahasida joylashgan Qarshi shahrining ahamiyati oshib ketadi. Ichki bozorlarda avvalo kundalik ehtiyoj mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar, paxta matolari, jun va ipak matolariga talab katta bo'lgan. Ichki savdoning taraqqiyotida yirik shaharlarning atroflardagi qishloqlar bilan iqtisodiy munosabatlari hamda shaharlararo savdo-sotiq aloqalarining rivojlanganligi muhim o'rin tutgan. CHunonchi, amirlikdagi bozorlar nafaqat shaharlar, balki ularning atrofidagi qishloqlar aholisining talablarini qondirishda ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Amirlikdagi barcha shaharlarda, yirik qishloqlarda ixtisoslashgan

---

<sup>73</sup> Б.Эшов. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Янги аср авлоди. Тошкент. 2012. Б.340.

bozorlarning mavjudligi ichki savdoning davlat iqtisodiyotidagi muhim ahamiyatidan dalolat beradi.

Ichki savdoning taraqqiy etishida amirlikda mavjud bo'lgan pul muomalasining o'rni katta edi. Xususan, mang'itlar hukmronligi davrida bu sohada birmuncha barqarorlik o'rnatilgan bo'lib, muomalada asosan uch turdagi-tillo, tanga(kumush) va pul(mis) mavjud edi. SHahar hamda qishloqlardagi savdo-sotiq va to'lovlarda asosan tanga va pul ishlatilgan.

Buxoro amirligida qo'shin davlatlar va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Tashqi savdo aloqalarida Xiva va Qo'qon xonlari, qozoq va turkman dashtlari, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Qashg'ar va ayniqsa Rossiya bilan bo'lgan savdo munosabatlari ayniqsa muhim o'rin tutgan edi.

Ko'chmanchi qozoqlar amirlik bozorlariga palaslar, namatlar, jun, teri, go'sht va sut mahsulotlari keltirgan bo'lsalar, dehqonlar va hunarmandlar qozoq dashtarini oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavotlar, kundalik ehtiyoj mollari, kiyim-kechaklar, paxta matoolari bilan ta'minlaganlar. Amirlikda turkman gilamlari va otlariga talab katta bo'lgan. Turkmanlar amirlik bozorlaridan boshqa mahsulotlar bilan birga ko'proq har xil matolar xarid qilganlar.

XVIII asr oxiri- XIX asr boshlaridan boshlab Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida Rossiyaning savdo shaharlari (asosan Orenburg va Astraxon) muhim o'rin tuta boshladi. Rossiyaga qishloq xo'jalik mahsulotlari – teri, qorako'l teri, jun, paxta, ipak tolalar, turli matolar olib chiqilgan. Rossiyadan esa turli fabrika mahsulotlari,cho'yan,mis, qo'rg'oshin keltrilgan.

Buxoro savdogarlari Balx va Badaxshonga savdo karvonlari bilan qatnab turganlar. Bu hududlarga amirlikdan qozonlar Buxoro matolari, Rossiyadan keltirilgan igna, oyna, qaychi kabilar olib kelingan hamda Buxoroga kumush, oltin olib qaytilgan.

Savdo karvonlari Qobul va Hindistonga ham borib savdo-sotiq ishlarini amalga oshirgan. Hindistondan qimmatbaho toshlar, dori-darmonlar, xushbo'y giyohlar, kashmir matolari keltirilgan. O'z navbatida hind savdogarlari Buxoro bozorlaridan Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar, mahalliy matolar, zarbof to'nlari, qorabayir otlarni xarid qilganlar. Amirlik savdogarlari Xitoy, SHarqiy Turkiston bilan ham savdo-sotiq aloqalari olib borgan. Xitoy bilan savdo aloqalari Qo'qon xonligi orqali olib borilgan bo'lib, Xitoyga paxta, qorako'l teri, turli xil hunarmandchilik mahsulotlari etkazib berilgan. O'z navbatida Xitoydan ko'plab ipak matolari va chinni buyumlar keltirilgan.

XIX asr boshlarida boshlangan va uning 40-50 yillaridan boshlab jiddiy ravishda kuchaygan Rossiya va Angliyaning O'rta Osiyo, jumladan, Buxoroga nisbatan qiziqishi, amirlik iqtisodiy hayotiga ularning kirib kelishi, o'z navbatida Buxoro amirligida ishlab chiqarish munosabatlarining jadal sur'atlar bilan o'sishi hamda ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib keldi. Mahalliy hunarmandlar, savdogarlar, umuman ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha tarmoq egalari ishlab chiqarishga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirdilar. Manbalar tili bilan aytganda, "O'rta Osiyo xom ashyosi va uning ba'zi bir mahsulotlariga talab kuchaya boshladi. Bundan rag'batlangan mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari imkoniyatlari boricha o'z jamoalarida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurishga harakat qildilar".<sup>74</sup>

Buning natijasi o'laroq, XIX asr o'rtalariga kelib, talabdan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishi tufayli buxorolik savdogarlar tashqi savdo aloqalarini kuchaytirdilar. Xususan, buxorolik savdogarlar Rossiyaga ko'proq paxta va ipak gazlama mahsulotlarini olib borib, Rossiyadan temir va mis keltira boshladilar. Hunarmandchilik mahsulotlari ko'plab Hindiston, Eron va Xitoyga chiqarilib, bu hududlardan asosan qimmatbaho metallar keltirilgan.

---

<sup>74</sup> Б.Эшов. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Янги аср авлоди. Тошкент. 2012. Б.341.

XVIII asrning ikkinchi choragidan boshlab O'rta Osiyo xonliklari jumladan Buxoro amirligi bilan Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalari ancha jonlanadi. Rossiyadan amirlik xududiga tashrif buyurgan sayyoh va elilar o'z diplomatik missiyalarini bajarish barobarida amirlik xududi, aholisi, geografik joylashuvi, iqtisodiy hamda siyosiy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlarni to'plab o'z esdalik yoki asarlarini yozishgan.

1841 yilda Rossiyadan xon injeneri, podpolkovnik Butenyov boshchiligidagi Buxoroga elchilar yuborildi. Elchilar sostavida ikki injener va ikki ustadan tashqari, sharqshunos N. Xalikov, tabiatshunos Leman, topograf Y. Akovlevlar bor edi. Elchilar orqali Rus xukumati amirga podsho nomidan yorliq, odatdagidek sovg'alar, uning vazirlariga Rossiya tashqi ishlar ministrligidan xatlar yuborildi. Butanyovga bir qancha masalalarda yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan edi. CHunonchi amirning iltimosiga ko'ra, er osti boyliklarini aniqlashga yordam berish, savdo aloqalari va diplomatik munosabatlarni yanada yaxshilash, Buxoro xonligi haqida, uning chegeralari, aholisi, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sanoati, ular etishtirayotgan mahsulotlar, siyosiy tuzilishi, qurolli kuchlari, boyliklari va daromadi haqida to'liq ma'lumot to'plash, maxalliy va Evropa sanoat mollaridan na'munalar, jumladan Qobul orqali Buxoroga keltiriladigan ingliz tovarlarining nusxalarini yig'ish va narxlarini bilish, maxalliy bozorlarda qanday mollar ko'plab talab qilinayotganligini, xususan uy-ro'zg'or va qishloq xo'jaligi uchun kerak bo'lgan asboblarni aniqlash, Buxoroda rus savdo konsulligini tashkil etish, inglizlarning tashqi siyosat sohasida SHarq va O'rta Osiyoga nisbatan qilayotgan xatti-xarakatlarini, ularning Afg'onistonga bostirib kirishlari Buxoroga qanday ta'sir etganligining, ingliz tovarlariga qarshi raqobat qilish yo'li bilan ularni O'rta Osiyo va butun SHarqdan siqib chiqarish choralarini belgilash, Amudaryoning chap qirg'og'idagi mustaqil o'zbek bekliklari bo'lgan Qunduz, Xulim, Xonobod, Andixoy va Mozori sharifni to'la-to'kis o'rganish, ular bilan iqtisodiy diplomatik munosabatlarni tiklash choralarini ko'rish, Afg'oniston va Hindiston tomonlarga o'tish yo'llarini aniqlash, xususan Buxoro-Xiva munosabatlarini yaxshilash

tadbirlarini qo'llash, jumladan Xivaning ilgarigi xoni tomonidan qilingan g'ayri qonuniy harakatlarini yoddan chiqarishga amirni ko'ndirishi zarur edi.

Butenyov boshchiligidagi elchilar oldida turgan eng muhim masalalardan yana biri Buxoro xonligi bilan Rossiya munosabatlarini yanada rivojlantirish maqsadida akt-shartnoma tuzish edi. SHartnoma loyihasida quyidagilar ko'rsatilgan edi: Rossiyaga, uning fuqarolariga oshkora va maxfiy ravishda qarshi chiqmaslik, Buxorodagi hamma rus asirlarini Rossiyaga qaytarib yuborish, bundan keyin rus asirlarini sotib olmaslik, Buxoroga qo'shni o'kalarda rus asirlarining borligi bilinib qolganda ularni qutqarish uchun barcha choralarni ko'rish va ozod qilingan asirlarni rus davlati hisobidan kerakli narsalar bilan ta'minlab, Rossiyaga jo'natish majburiyatini olish, Buxorodagi erkin rus qachoqlarini tezlik bilan to'plab, elchilarni kuzatib kelgan rus otryadi ixtiyoriga topshirish, agar bundan keyin rus qachoqlari paydo bo'lsa, ularni ushlab, rus davlati hisobidan Rossiyaga jo'natish, Buxoroga savdo-cotiq uchun kelayotgan rus savdogrlaridan olinadigan bojni mhalliy savdogarlardan olinadigan bojga baravarlalashtirish, rus savdo karvonlarini Buxoroga qarashli joylarda to'liq himoya qilish, ular qaroqchilar tomonidan talangan taqdirda mollarning qiymati miqdorida pul bilan tavon to'lash, agar rus savdogarlari Buxorodan tashqari erlarga, jumladan, Qunduz, Xulim, Qobul, Kashmir va boshqa joylarga o'tib savdo qilishni istasalar, ularga aslo qarshilik qilmaslik, ularni qo'llab boj olmasdan jo'natish, u erdan turli mollar bilan Buxoro orqali Rossiyaga qaytish vaqtlarida ham boj olmasdan Rossiyaga kuzatish, Buxoroda savdo-sotiq ishi bilan yurgan rus fuqarolarining va ularga qarashli mol-mulkning xavfsizligini ta'minlash, agar u vafot etsa, mulkini davlat g'imoyasiga olib, nasliga qaytarish uchun rus chegerachilariga etkazib berish, rus savdogarlariga Buxoro erlarida to'liq erkinlik berish shart qilib qo'yilgan edi.<sup>75</sup>

Agar amir yuqoridagi majburiyat shartlarini o'z zimmasiga oladigan bo'lsa, rus davlatining quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olish ko'rsatilgan edi:

---

<sup>75</sup> Холикова Р.Э. XIX аср иккинчи ярми XX аср бошларида Россия-Бухоро муносабатлар тарихи. Тошкент, 2005. –Б. 100-103.

Rossiya imperiyasi erlarida buxorolik fuqarolarning shaxsiy hayoti va mulklarining dahlsizligini ta'minlash, ularni Rossiyaning hamma erlarida savdo qilish imtiyozlaridan foydalandirish, Rossiya fuqaroligidagi qazoq va turkmanlar Buxoro karvonlarini talagan taqdirda ularning mollarini qidirib topish, Buxoro fuqarolarining Rossiya erlaridan o'tib Makkaga borishiga ruxsat etish, Buxoroga qarshi hech qachon urush harakatida bo'lmaslik (agar Buxoro amir tomonidan bunday xarakat bo'lmasa) va xakozo.<sup>76</sup>

Butenyov boshchiligidagi elchilar 1841 yil 20 mayda Orenburgdan Sirdaryogacha podpolkovnik Blaramberg qo'mondonligidagi urallik 400 kazak va 100 ta piyoda askar himoyasida yo'lga chiqdi va o'sha yili 5 avgustda Buxoroga etib keldi.

Elchilar Buxoroda yaxshi kutib olindi. Butenyov podsho yorlig'i va sovg'alarini Nasrulloxonga, tashqi ishlar ministri graf Nesselrad nomidan hamda Osiyo departamenti direktori tomonidan yozilgan xat va sovg'alarni amir vazifalariga topshirdi.

1841 yil 15 avgustda Butenyov boshchiligidagi elchilar amir va uning saroy xodimlari bilan yuqoridagi masalalari yuzasidan muzokaralar olib borganlar.

25 avgustdan boshlab kapitan Bogoslovskiy boshchiligidagi injener va mutaxassislar Samarqand atrofidagi Zarafshon tog'larida turli ma'danlarni qidirish ishlarini olib bordilar. Biroq amir tomonidan qidirish rahbar qilib tayinlangan yuzboshi Ramozonning Bogoslovskiy ekspeditsiyasiga ishonchsizlik bilan qaraganligi ishga to'sqinlik qiladi. Lekin, bnday xatti-xarakatlarga qaramasdan, ekspeditsiya muhim boyliklarni aniqladi.<sup>77</sup>

Tabiatshunos Leman esa Samarqand atrofidagi faunani o'rganib, ko'p o'simlik turlarining gerbariyini tuzdi, N. Xalinov amirlikning tarixi va iqtisodiy-siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar to'plashni davom ettirdi. Butenyov esa

---

<sup>76</sup> Холикова Р.Э. XIX аср иккинчи ярми XX аср бошларида Россия-Бухоро муносабатлар тарихи. Тошкент, 2005. –Б. 104.

<sup>77</sup> Муҳаммаджонов А. Россия ва Ўрта Осиё ўртасидаги карвон йўллари. Тошкент, 1959. –Б.131.

amir va saroy xodimlari bilan yuqorida ko'rsatilgan masalalarda muzokaralar olib bordi. SHu bilan birga, u, Angliya xukumatining rus podshosidan qilgan iltimosiga binoan, o'sha vaqtda Buxoroda yarim och holda saqlanayotgan ingliz elchilari Stoddart va Kanollini ozod qilib, Rossiya orqali o'z vataniga qaytarish haqida amirdan rozilik oldi. Ammo inglizlarning Afg'onistonga bostirib kirishlari, buning ustiga, Konollining Xiva-Qo'qonni Buxoroga qarshi qo'yishdagi xiyonatkorona xarakatlari amirni o'z qarorini bekor qilishga majbur etdi va Stoddart bilan Kanollini ozod qilish masalasi oqibatsiz qoldi. SHuningdek, Buxorodagi rus asirlari va qachoqlarini Rossiyaga qaytarish, rus savdogarlaridan molning qiymatiga qarab ikki yarim foiz boj olish, Buxoroda rus konsulligini, Orenburgda esa Buxoro konsulligini tashkil etish masalalari hal qilinmasdan, akt-shartnoma imzolanganuncha ochiq qoldiriladi.

Amir rus savdogarlaridan olinadigan bojni mahaliy savdogarlardan olinadigan bojga baravarlatirish haqidagi talabi Rossiya erlaridagi Buxoro savdogarlaridan olinadigan boj kamaytirilgandan so'ng qildirish mumkinligini uqtirib o'tdi. Elchilarning Buxoro bilan tuziladigan akt loyihasini imzolash va uni kuchga kiritish haqidagi talabiga javoban amir Nasrullo uni o'rganish zarurligini, unga avval rus podshosi imzo chekishi ma'qulroq ekanligini ta'kidladi.

Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasida imzolanishi kerak bo'lgan aktning Buxorodagi rus asir va qachoqlarini o'z vataniga qaytarish to'g'risidagi moddasi ham qabul qilinmadi.

Podpolkovnik Butenyov amir va saroy xodimlari bilan olib borgan muzokaralari paytida Buxoroga texnika sohasida ham yordam berishni ko'zda tutib, Rossiyadan har xil materiallar, kosib hunarmandlar, mashinalar va mashinistlar yuborishni va'da qiladi. U Buxorodan bir qancha yoshlarni Rossiyaga yuborib, ularga hunar o'rgatish masalasini ham qo'ydi. Ammo amir Nasrullo va saroy amaldorlari, ruxoniylari Butenyovning asil maqsadi nima ekanligini bilmagani bois bu taklifni qabul qilishmagan.

SHunday qilib, Butenyov boshchiligidagi elchilar yuqorida ko'rsatilgan masalalar yuzasidan amir va saroy xodimlari bilan bir qarorga kela olmasdan, 1842 yil aprel oyida qaytib ketadilar. Ayni paytda amir Nasrullo qoravulbegi Xudoyorbek va Qilichbiy boshchiligidagi 12 kishidan iborat elchilarni podsho va uning ministrarlari nomiga yozilgan yorliq hamda sovg'alar bilan Peterburgga jo'natdi. Lekin amir Butenyov taqdim etgan aktni imzolamaganligi sababli uning elchilarini Rossiya xukumati Orenburgdan qaytarib yuboradi.

N. Xanikov esa elchilar tarkibida yurib amirlikning tarixi va iqtisodiy-siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar to'plab 1843 yilda Buxoro xonligi to'g'riidagi muhim ilmiy asarini nashr qildirishga moyassar bo'ladi.<sup>78</sup> Ushbu asar keyinroq o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, qayta nashr etilgan.

Xanikov N. Buxoro amirligining ichki siyosatida mang'it xukmdorlarining asosiy maqsadi markaziy xokimiyatni mustahkamlash, xalq ommasini qattiq itoatda tutishdan iborat ekanligini qayd etadi. Ayni paytda mang'it xukmdorlari yirik zadagonlarning nufuzini kamaytirishga imkon beruvchi tayanch kuchlarni vujudga keltirish siyosatini yurgizgani haqida ma'lumot beradi. Uning qayd etishicha bu davrda amir saroyida xizmat qiluvchi 300ga yaqin yuqori amaldorlar lavozimi joriy etilgan bo'lib ularning soni saroy tashqarisida 30 mingdan ortiq bo'lganini qayd etib o'tadi.<sup>79</sup>

N Xanikov o'z asarida bu davrda amirlik qo'shini asosan otliq askarlardan iborat edi deb ma'lumot beradi. Otliq qo'shin navkrlar va qoracherikdan tuzilgandi. Qo'shinlar to'p, qilich, piltal miltiq, nayza va o'q-yoy bilan qurollangani haqida to'xtalib o'tiladi. SHuningdek, u Buxoro amiri Nasrullo muntazam piyoda askarlar qo'shinini tuzgani, to'pchilar qo'shinini ham tuzganini yozadi. Uning yozishicha amirning 40 ming kishilik muntazam armiyasi mavjudligini yozadi.<sup>80</sup>

---

<sup>78</sup> Хаников Н. О писание Бухарского ханства. СПб, 1843.

<sup>79</sup> Мадримов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008. -Б.105-106.

<sup>80</sup> Ўша жойда. -Б.107

N.Xanikov o'z asarida Buxoro amirligi xududi, chegaralari, qishloqlari va shaharlari haqida batafsil to'xtalib o'tgan. Xanikov o'z esdaliklarida aholining mashg'uloti hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, poliz mahsulotlarini etishtirilishi va chorvachiligi haqida ham to'xtalib o'tgan. SHuningdek, u amirlikning yirik shaharlarida jumladan Samarqandda ham bo'lib, shaharlarning tuzilishi, axolisining turmush tarzi, nufuzli urug'lar haqida o'z ko'rganlari asosida ma'lumotlar yozib qoldiradi. Uning yozishicha amirlar mang'it qabilasidan bo'lganliklari uchun bu qabilalarni o'zlarining asosiy siyosiy va ijtimoiy tayanchlariga aylantirgan edilar. Davlat muassasalari asosan ulardan tashkil etilganini qayd etib o'tiladi. Buxoro amirlari o'zbek qabilalari boshliqlarining o'z qabiladoshlariga ta'sirini juda yaxshi bilar edilar. Qabila boshliqlari bilan o'zaro til topa olish-bu mamlakat xavfsizligining asosiy kafolatidan biri edi. SHuning uchun ham mang'it amrlari boshqa o'zbek qabilalari boshliqlarini o'z xukumatlariga olar edi.

N.Xanikov bergan ma'lumotga ko'ra amirlikda ayniqsa yaxudiylarning axvoli og'ir va ayanchli edi. Garchand ular o'z diniy e'tiqodlarini saqlab qolgan, amirlikda deyarli butun savdo-sotiqni o'z qo'llariga olib, ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lib olgan bo'lsalar-da, ularga nisbatan inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, xo'rlovchi tartiblar joriy etilgan edi. Xususan, yaxudiylarga ot minib yurish man etilgan edi. Ular eshak minilari mumkin edi, xolos. Bellariga kamar emas, chilvir bog'lab yurishlari shart edi.<sup>81</sup> Bu darhaqiqat to'g'ri edi.

Ko'rinib turibdiki, N Xanikov Buxoro amirligi ichki hayotini juda sinchkovlik bilan o'rgangan. SHu bilan birga Buxoro amirligining XVIII-XIX asrlardagi tarixiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Darhaqiqat ushbu asar mang'it amirlari tarixiga oid qimmatli manbalar sirasiga kiradi.

1841 yilda Rossiyadan kon injeneri, podpolkovnik Butenyov boshchiligida elchilar yuboriladi. Elchilar tarkibida ikki injener va ikki ustadan tashqari,

---

<sup>81</sup> Мадраймов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008. -Б.107.

sharqshunos N.Xanikov, tabiatshunos Leman, topograf Y.Akovlevlar bor edi. Elchilar orasidan tabiatshunos Leman Samarqand atrofidagi faunani o'rganib, ko'p o'simliklar turlarini gerbayini tuzadi. SHarqshunos N Xanikov esa Buxoro amirligining tarixi va iqtisodiy-siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar to'playdi hamda ushbu to'plangan ma'lumotlari asosida 1843 yilda Buxoro amirligi haqidagi muhim ilmiy asarini nashr qildirishga muyassar bo'ldi.<sup>82</sup> Asarda Buxoro amirligining tarixi, uning shaharlari, aholining mashg'ulotlari, hunarmandchilik, savdo-sotiq, qo'shni davlatlar bilan munosabatlari atroflicha bayon etiladi.

XIX asr o'rtalarida Buxoro va Xivaga yuborilgan Rossiyalik yana bir elchi bu N Ignatevdir. N. Ignatev 1858 yilda Buxoro va Xiva davlatlarida bo'lib, Rossiya diplomatik missiyasiga rahbarlik qiladi. U o'zining bu xududlarda bo'lishi asnosida yozib qoldirgan esdaliklari ham Buxoro tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

N Ignatev kuzatuvchan odam bo'lgan. Mazkur safari haqida yozib qoldirgan esdaliklarida Buxoro amirligi haqida muhim harbiy, iqtisodiy, tarixiy va etnografik ma'lumotlar to'plagan.

Esdaliklarda Buxoro amirligining xududi, yirik shaharlari asosan Buxoro va Samarqand haqida, xalqi va uning mashg'ulotlari va amirlikning mudafao salohiyati (harbiy qudrati) haqida diqqatga sazavor ma'lumotlar keltiriladi.

N Ignatev esdaliklarida o'zbeklarning fel-atvori, tabiati va qiyofasi haqida e'tiborga loyiq ma'lumotlar keltirilgan. Unda, xususan quyidagicha beriladi: "O'zbeklar, umuman aqlli va yoqimli, xazil-mutoyibani yaxshi ko'radigan, biron ishga jazm qilgudek bo'lsa, qarorida qa'tiy, to'g'ri so'z, yolg'onni va egrilikni yomon ko'radigan, ruhi tetik, xushbichim va jismonan kuchli xalq....

---

<sup>82</sup> Хаников Н. О писание Бухарского ханства. СПб, 1843.

Harbiy ishlarida xorib-charchamaydilar, qo‘rqmas va jasur kishilardir....”<sup>83</sup>

N. Ignatev esdaliklarida qayd etilishicha Buxoro amirligida bu davrda eng yirik Buxoro, Samarqand, SHahrisabz, Qarshi, Kitob, G‘uzor, Termiz, SHerabod, Hisor, Ko‘lob kabi yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy markazlar hisoblangan shaharlar mavjud edi. Unga hozirgi Tojikistondagi Vaxsh, Kofirnixon, Panj daryolari vodiysidagi erlar, Turkmanistondagi Murg‘ob daryosi vohalaridagi joylar ham qarashli bo‘lgan. SHu bilan birga Buxoro amirligi xududiy jihatdan beklik va tumanlarga bo‘linib, ularni amir tomonidan tayinlangan bekar boshqargan. Amirlik 27 ta beklikka bo‘lingan.

Davlat xududi XIX asrning o‘rtalarida Eron, Afg‘oniston, Qo‘qon va Xiva xonliklari, qazoq juzlari erlari bilan chegeradosh bo‘lgan. Amirlikning markaziy qismi Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi xisoblangan.

Ko‘rinib turibdiki, N Ignatev esdaliklari ham XIX asr o‘rtalaridagi Buxoro amirligi tarixini o‘rganishga doir qimmatli manbalar sirasiga kiradi. Ushbu esdaliklar yana shunisi bilan ham qimmatliki u o‘zi ko‘rgan bilganlari va eshitganlari asosida yozilgan esdaliklardir.

---

<sup>83</sup> Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая. –М.: Наука, 1987. –С. 177.

## ***Xulosa***

XVI-XIX asrlarda Xiva va Qo‘qon xonligida hamda Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarini yoritishda ushbu davrlarga ya‘ni xonliklar davri tarixiga oid birlamchi manbalar jumladan Rossiya elchilari hamda sayyohlarining esdaliklarini tanqidiy ravishda o‘rganish va tegishli ilmiy xulosa chiqarish muxim ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarni o‘rganmasdan turib, bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar to‘g‘risida to‘g‘ri ilmiy xulosa chiqarish mumkin emas. Faqat asl manbalargina o‘sha davr voqealari tarixidan chuqur anglash imkonini beradi.

SHuni e‘tiborga olganda Rossiyalik elchi va sayyohlarning esdalik hamda asarlari ushbu davr tarixiga oid muxim manbalar sirasiga kiradi. Chunki, sayyoh va elchilar o‘zlari ko‘rgan, so‘rab surishtirgan xodisa va voqealarni tafsilotlari bilan boricha bayon qiladilar. Rossiyalik tarixchilar ham o‘z asarlarini shu bois ko‘proq xonliklarga tashrif buyurgan sayyohlar va elchilarning axborotlari, esdaliklariga tayangan xolda yozganlar.

XV asr oxiri XVII asr o‘rtalarida amalga oshirilgan Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng Buyuk Ipak yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qotganligi sababli, O‘rta Osiyo jaxon xo‘jaligi savdosidan chetga tushib qoldi. Biroq bundan qat‘iy nazar yurtimizning Yevropa va jaxon mamlakatlari bilan savdo diplomatik aloqalari batamom to‘xtab qolmadi. XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyo va Rossiya o‘rtasidagi har tamonlama aloqalar tobora kuchayib bordi. Ayniqsa, Qo‘qon va Astraxan xonliklarining Rossiya tomonidan bosib olinganidan so‘ng bunday aloqalar yanada jonlanib ketdi. O‘rta Osiyo xonliklariga muntazam ravishda rus elchilari, savdogarlari va sayyohlari tashrif buyurar edilar. Rus elchi va sayyohlari o‘z xukumatlarining talabiga muvofiq, O‘rta Osiyo xonliklarining ichki axvoli va xalqaro aloqalari, axolisi, xo‘jaligi, harbiy salohiyati xususida imkon qadar batafsilroq ma‘lumotlar berishga xarakat qilar edilar. Bora-bora yurtimizga Rossiyadan kelayotgan odamlar doirasi kengayib boradi. Ularning qatoriga injinerlar, vrachlar, olimlar, harbiylar va boshqalar qo‘shilib bordilar. Natijada rus

mualliflarining O`rta Osiyo jumladan xonliklar xususida to`plagan materiallarining ko`lami kengayib bordi. Ularda Buxoro, Xiva va Qo`qon xonliklarining davlat tizimi, shaharlari, xo`jaligi, axolining mashg`ulotlari va turmush tarzi xususida boy ma`lumotlar bor. SHu bilan birga mazkur xotira va xisobotlar mualliflari ba`zi bir xollarda bir yoqlamalikka va subektivlik singari nuqsonlarga yo`l qo`yishlarini ham ta`kidlab o`tish zarur. Shu bois ham ulardan biz yuqorida qayd etib o`tganimizdek tanqidiy, maxalliy materiallar bilan solishtirgan xolda foydalanish joizdir.

Ayniqsa, O`rta Osiyo davlatlarining XVIII-XIX asrlardagi tarixini o`rganishda maxalliy manbalar bilan bir qatorda evropa muarrixlari va rus sayyohlari, savdogarlari va elchilarining esdaliklari ham muhim birlamchi manbalar sirasiga kiradi. O`rta Osiyo xonliklari va ularning tarixi, axolisiga doir ma`lumotlarni biz yuqorida qayd etib o`tganimizdek bu erga tashrif buyurgan rus sayyoh va elchilari juda ko`p yiqqanlar.

Ko`rilayotgan davrda Buxoroda bo`lgan Rossiya xukumati elchisi Florio Beneveniydir. U 1721-1725 yillarda Buxoroda bo`lib, Buxoro davlatining Turkiya bilan munosabatlari, qurolli kuchlari, axolisi va uning mashg`uloti haqida qimmatli ma`lumotlar to`plagan.

Buxoro amirligi haqidagi eslatmalar ichida Filipp Efremovning "To`qqiz yillik sayohat" nomli kitobi ham alohida ajralib turadi. Filipp Efremov to`qqiz yil davomida Buxoro amiri qo`lida tutqin edi, lekin harbiy xizmat qilib ancha yuqori lavozimlarga erishdi. Asirlikdan qochib o`z Vataniga qaytib borgandan so`ng u yuqorida nomi qayd etilgan kitobni yozdi va katta shuhrat qozondi. Asarda Buxoro amirligi haqida qimmatli ma`lumotlar biz asosiy qismda qayd etganimizdek nihoyatda ko`p.

XIX asrning boshlarida O`rta Osiyo xonliklariga tashrif buyurib, o`z xotiralarini yozib qoldirgan mualliflardan tabiatshunos va vrach E.N. Eversian, ruxoniy Budrin esdaliklarini, Aleksandr Byornsning "Buxoroga sayohat" nomli

asarini, elchi I. Vitkevichning “Qaydlar” nomli xotira kitobini hamda Butakov ismli injener, sharqshunos olim N. V. Xanikovlarning esdaliklarini alohida qayd etish lozim. Mazkur esdaliklardan xonliklar tarixining u yoki bu qirralarini yoritishda, ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish o‘tmishni yanada teranroq tushinib etish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, o‘zbek xonliklari tarixiga doir rus va evropa sayyoh, savdogar va elchilarning esdaliklari muhim manba bo‘lib original xarakterga ega, ishonarli tarixiy manbalar qatoriga kiradi. E’tiborga loyiq tomoni shundan iboratki, bu manbalarda maxalliy xalq xayoti va turmushining maishiy tomonlari yaxshi yoritilgan. Biz maxalliy tarixnavislar asarlarida uchratmaydigan nodir ma’lumotlarni rus mualliflari esdaliklaridan topishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish kerakki, xonliklar xususan Xiva, Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligi tarixiga oid yevropalik hamda rus sayyoh, savdogar va elchilarining esdaliklari muxim manbalar sirasiga kiradi. Ulardan tanqidiy ruhda, sinchkovlik bilan foydalanish davlatchiligimiz tarixida muxim iz qoldirgan Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixini yoritib berishda katta o‘rin tutadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Асарлар. Т., «Ўзбекистон», 1998.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Т., «Ўзбекистон», 1996.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., «Ўзбекистон», 1997.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон», 1997.
5. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Шарқ», 1998.
6. Каримов И.А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. “Туркистон” газетаси мухбирининг саволларига жавоблар. Т., Ўзбекистон. 1999. Б.4.
7. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008,
8. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида.-Тошкент, Ўзбекистон, 2011
9. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи Т., «Шарқ» 2000.
10. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар Т., «Ўқитувчи» 1994.
11. Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк Нашрга тайёрловчилар. Қ. Муниров, Қ. Маҳмудов. Тошкент, 1992.
12. Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи Т., «Фан» 1996.
13. Бабабеков Х.Н. История Каканда. Т., «Фан» 2006.
14. Воҳидов Ш.Х. «Звания и должность в Какандском ханстве и Бухарском эмирате» Т., 1996
15. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги, Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар Т., 1996.

16. Диваев А. Последние дни Худаярхана Т., «Фан» 1986.
17. Зияев Х. Ўрта осийё ва Сибирь (XVII-XIX асрлар) Т., «Фан» 1962.
18. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тошкент. «Шарқ». 2006.
19. Норкулов Н, Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи. (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми) Т., «Шарқ» 2001.
20. Мирзаалим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. Нашрга тайёрлаганлар А. Матғозиев, М.Усмонова Т., 1995.
21. Муқминова Р.Г., Бабабекова Ҳ ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи Т., 1994.
22. Машарипов Қ. Ю. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдотик марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар). Тар. фан. ном.. Дисс. Автореф. Нукус, 2004;
23. Муҳаммаджонов А. Россия ва Ўрта Осиё ўртасидаги карвон йўллари. Тошкент., Фан. 1959.
24. Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, 2008.
25. Исақхон Тўра Ибрат «Фарғона тарихи» нашрга тайёрловчилар Бабабеков Х., Махмуд Хасаний Т., «Мерос» 1991.
26. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Туркистон Россия босқини даврида. Андижон 1995.
27. Йўлдашев М.Й. XV-XIX асрларда Бухоро билан Россия ўртасидаги элчилик муносабатлари. Тошкент Ўздавнашр. 1957.
28. Муҳаммаджонов А. Россия ва Ўрта Осиё ўртасидаги карвон йўллари. Тошкент., Фан. 1959.
29. Муҳаммаджонов А., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Тошкен., 1957.

30. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари) Иккинчи китоб Т., «Шарқ» 2003.
31. Шамсутдинов Р. ва бошқалар. Кўхна ва навқирон Андижон. Тошкент, SHARQ. 2010.-Б.42.
32. Шариф Юсупов. Буни умр дерлар. «Жамият ва бошқарув» 2002, 1-сон.
33. Гулямов Х. Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством в XVIII веке-Т., 1992;
34. Ўзбекистон тарихи Т., «Университет» 1997.
35. Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртларининг номутахассис факультетлари учун дарслик) Т., «Янги аср авлоди» 2003.
36. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида Т., «Шарқ» 2000.
37. Ўзбекистон тарихи: қисқача маълумотнома. Т., «Шарқ» 2000.
38. Ўзбекистон давлатчилиги тарихий очерклари. Т., «Шарқ» 2001.
39. Ўзбекистон халқлари тарихи 1-2 том. Академик А.Асқаров таҳрири остида. 1992.
40. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-8 жилдлар Т. ЎзМЭ. Т. 2000-2004.
41. google.uz.
42. ziyonet. uz.
43. gov.uz.